74.p
486

O`GILOY ASQAROVA

PEDAGOGIKADAN AMALIY MASHQLAR VA MASALALAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'G'ILOY ASQAROVA

PEDAGOGIKADAN AMALIY MASHQLAR VA MASALALAR

(Bakalavriatning barcha pedagogik yo'nalishi uchun o'quv-uslubiy qo'llanma)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI Axborot-resurs markazi
78/10

Toshkent — «ISTIQLOL» — 2005

74p
A86

Asqarova O'g'iloy.
A86 Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar: (Bakalavriatning barcha pedagogik yo'nalishi uchun o'quv-uslubiy qo'll.) / O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Namangan Davlat universiteti. -T.: Istiqlol, 2005.-112 b.

BBK 74p

Mazkur qo'llanma bakalavriatning pedagogik yo'nalishiga mo'ljallangan bo'lib, pedagogika fanidan amaliy mashg'ulot va laboratoriya mashg'ulotlari sifatida tavsiya etiladi.

Qo'llanma maktab o'qituvchilari, bo'lajak pedagoglarning kelgusi ish faoliyatida uchraydigan pedagogik muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, barcha pedagogik bilimlarning, malaka va ko'nikmalarning yanada oshishiga yordam beradi.

Taqrizchilar: Pedagogika fanlari doktori, prof. — ***Safo Ochil,***
Pedagogika fanlari doktori, prof. — ***K. Hoshimov,***
Pedagogika fanlari nomzodi, dots. — ***M. Nishonov.***

© O'g'iloy Asqarova,
«Istiqlol»—2005 y.

«Bugungi zamon talabi, ertangi kelajagimizning tashvishlari bizdan xalq ta'limi tizimini isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.»

I.A. KARIMOV

KIRISH

Jamiyatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo'lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida yuksalishi bilan xarakterlanadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishda mavjud ta'lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan o'zgartirish zamonaviy ilmiy fikrlar yutuqlari va ijtimoiy tajribalarga, ta'lim jarayonining hamma bosqichlarida, uzluksiz ta'lim tizimi, ta'lim muassasalarining hamma shakl va turlarida ilg'or metodik tajribalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Zero, shaxsning ma'naviy yetukligi, bilimdonligi, zehnliligi mana shu muammoni yechish jarayonida namoyon bo'ladi. Chunki vujudga kelgan pedagogik muammolar har doim chuqur fikr yuritishga majbur etadi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odat, an'analarimiz, milliy meros va ajdodlarimiz tayangan tarbiya mezonlari pedagogikaning asosiy negizi hisoblanadi.

Pedagogika fanining toboro rivojlanib borishi bugungi kun pedagoglarini befarq qoldirmaydi. Ma'lumki, tarbiyada har bir muammo e'tibor talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchilar tayyorlashda nazariya bilan amaliyotni uyg'unlikda olib borish maqsadga muvofiq.

Ta'lim-tarbiya ko'lamining kengayib borishi va zamonaviylashuvi bo'lajak pedagogni amaliy tayyorlashga da'vat etadi.

Pedagogik mahorat, bilim va yuksak rivojlangan ko'nikmalarning mustahkam birligidan iborat. Bo'lajak o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi, ilg'or tajriba-

lar hamda yangi pedagogik texnologiyani egallashi, interaktiv metodlarni qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Mazkur qo'llanmada ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganish bo'yicha topshiriqlar, xilma-xil pedagogik mashqlar, anketa, test savollari, shuningdek, pedagogikaga oid aqlni charxlovchi zakovat savollari o'rin olgan. Ular pedagogika fanining deyarli barcha mavzularini o'rganish bilan bog'liq. Bundan maqsad pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, uning mantiqi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'ziga xos tomonlari va munosabatlari bilan tanishtirishdir. Bu topshiriq va masalalarning bajarilishi, turli-tuman hodisalar orasidan pedagogik hodisani ajratib olishni o'rganishga yordam beradi va bo'lajak pedagogning — eng muhim qobiliyati — pedagogik jihatning shakllanishiga olib keladi.

Pedagogik topshiriqlar pedagogik hodisalarning murakkab olamiga yanada teran nazar tashlashga, ulardan murakkab aloqadorlik va munosabatlarini aniqlab, vaqt nihoyatda tig'iz bo'lgan vaziyatlarda ham qaror qabul qilishga, pedagogik tafakkur fazilatlarini egallab olishga o'rgatadi.

Berilayotgan topshiriq va masalalarda asosan maktab amaliyoti nazarda tutilgan.

Ushbu qo'llanmadan pedagogika fanidan amaliy mashg'ulotlarda hamda pedagogika to'garaklari va ijodiy ishlarni boshqarishda, mustaqil ishlarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Qo'llanmaning oxirida adabiyotlar ro'yxati berilgan, qo'llanma yaratilishida ulardan foydalanilgan.

Mashqlarni yechib bo'lgach, kuchingizni yangi topshiriqlarni mustaqil bajarishda sinab ko'rishingizni tavsiya qilamiz.

Vaziyatni to'g'ri anglash va topshiriqqa aylantira bilish pedagogik tafakkurning yuqori darajada rivojlanganligini anglatadi.

1-BO'LIM. TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «TA'LIM TO'G'RISIDA»GI QONUNINI O'RGANISH

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining asosiy maqsadi.

a) «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilingan?

b) Ta'lim sohasidagi Davlat siyosatining asosiy prinsiplari va ta'limning ustivorligini tushuntiring?

d) O'zbekiston Respublikasida bilim olish huquqi qanday?

e) Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi bo'limini bilasizmi?

f) Ta'lim muassasasining huquqiy maqomini asoslab bering?

g) Davlat ta'lim standartlari qanday talablarni belgilaydi?

h) Ta'lim berish tili O'zbekistonda nimaga asosan tartibga solinadi?

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.

II bo'lim. Ta'lim tizimi va turlari bo'limidan quyidagilarni aniqlang:

a) Ta'lim tizimi va turlarida qanday o'zgarishlar ko'zda tutilgan?

b) Maktabgacha ta'lim-tarbiya bosqichlarini ta'riflang?

d) O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi o'zgarishlarni ifodalang?

e) Oliy ta'limda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bosqichlarini va o'qish muddatlarini ayting?

f) Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim qanday amalga oshiriladi?

g) Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha nimalarni bilasiz?

h) Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish haqidagi fikrlaringiz?

2-topshiriq. «KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI»NI O'RGANISH

1) «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qachon va nima uchun ishlab chiqildi?

2) Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillarini bilasizmi?

3) Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari qaysilar?

4) Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari qaysilar?

5) Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini sanang?

6) Milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar haqida bilasizmi?

7) «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» haqidagi shaxsiy fikrlaringiz qanday?

3-topshiriq. YOSHLAR TARBIYASIDA MAHALLANING ROLI VA O'RNIGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1) «O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi» Konsepsiyasini bilasizmi? Qachon qabul qilingan? Maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

2) Prezidentimiz I.A.Karimovning «Mahalla, yurt mustahkam bo'lsagina davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi» degan g'oyasini o'z qarashlaringiz bilan o'rtoqlashing?

3) Xalqimizning «Bir bolaga etti mahalla ota-ona» degan naqliga qanday qaraysiz? Mahallangizdagi yoshlar qanday? Mahalladagi yoshlarga ko'rsatilgan g'amxo'rliklar haqida insho yozing.

4) Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish uslublaridan sizning mahalla ko'mita raisi va boshqalar foydalanadimi? Qanday tadbirlar, kechalar va yig'inlar o'tkazadi, qaysi mavzuda? Ularni yozib boring va boshqa mahallalar faoliyati bilan solishtiring.

5) Mahalla yoshlarini yot unsurlardan, giyohvandlik, SPID, VICH kabilardan asrash uchun qanday chora-

tadbirlar qilingan? Qanday jamg'armalar, maskanlar mavjud, ulardan foydalanasizlarmi?

4-topshiriq. AJDODLARIMIZ MEROSINI O'RGANISH

1) O'zbek milliy ta'lim-tarbiyasi an'analari tarixini ayting?

2) O'zbek xalq pedagogikasidan namunalarlar keltiring?

3) «Avesto» dagi Zardusht haqida bilasizmi?

4) Muhammad payg'ambarimiz tarjimai holini qisqacha bayon qiling?

5) Al-Xorazmiy ijodida matematika fanining ravnaqini so'zlang?

6) Imom Al-Buxoriy, Imom At-Termiziylarning bizga qoldirgan merosi haqida bilasizmi?

7) Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yassaviy hikmatlaridan namunalar keltiring.

8) Amir Temurning odob-axloq to'g'risidagi o'gitlarini bilasizmi?

9) Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarning pedagogik asarlarini ta'riflang?

10) Jaloliddin Manguberdining vatanparvarlikka oid faoliyatini aytib bering.

5-topshiriq. JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXINI O'RGANISH

1) Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlari misolida ta'lim-tarbiyaga oid nimalarni o'rganish mumkin?

2) G'arbiy Evropada maktab, maorif hamda pedagogik fikrlar taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?

3) Yan Amos Komenskiyning pedagogikaga qo'shgan hissasi haqida so'zlang? (Buyuk Didaktika kitobi).

4) Yoxann Xanrix Pestalossi, Robert Ouen, Ioxann Xerbart, Adolf Disterveglarning pedagogik qarashlaridan namunalar keltiring.

5) K.D.Ushinskiyning pedagogik faoliyati tajribalarini bilasizmi?

6) A.S.Makarenkoning «Pedagogik poema»sidagi jamoa tarbiyasi haqidagi va uning ta'lim-tarbiya jarayonlari borasidagi fikrlaringiz?

7) V.A.Suxomlinskiy bola shaxsini shakllanishida tarbiyaning roli haqida qanday fikrlar bildirgan?

6-topshiriq. PEDAGOGIKA FANI MUALLIFLARINI O'RGANISH

1) S.Rajabov «Pedagogika». 1910 (Qozog'iston) 1962—1966. «Fan» nashriyoti.

2) M.M.Mirqosimov «O'zbek xalq pedagogikasi», 1966.

3) R.Mavlonova «Pedagogika», T., «O'qituvchi», 2000.

4) M.Ochilov «Pedagogika mahorat asoslari», «Pedagogik yangi texnologiya». «Qarshi», 2001.

5) K.Hoshimov va boshqalar. «Pedagogika tarixi», 1996.

6) A.Munavvarov va boshqalar. «Pedagogika», T., «O'qituvchi», 1996.

7) S.Ochil, K.Hoshimov. «O'zbek pedagogika antologiyasi», 1—2-jild, T., «O'qituvchi», 1995—1999.

8) A.Zunnunov va boshqalar. «Pedagogika tarixi», T., «Sharq» 2002.

9) N.G'aybullaev. «Pedagogika» (ma'ruzalar matni), «O'qituvchi»T., 2000.

7-topshiriq. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATINI O'RGANISH

1. O'qituvchini kuzating.

1) Pedagogik etika qanday?

2) O'z kasbiga nisbatan munosabati, uning ijtimoiy ahamiyatini tushunishi qanday?

3) O'qituvchi boshqalarni tushuna oladimi?

4) Boshqa kishilarning xulqini boshqara oladimi?

2. O'qituvchining ijodkorlik me'yori qanday?

1) Yangi pedagogik texnologiyaga amal qiladimi?

2) Pedagogik vaziyatni baholay oladimi?

3) Pedagogik rivojlanishni oldindan ko'ra oladimi?

4) O'qituvchida o'z faoliyatiga doir individual samarali uslub bormi?

5) Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanadimi?

6) Innovatsiya, integratsiya kabi yangi usullarni qo'llaydimi?

8-topshiriq. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MULOQOT AHVOLINI O'RGANISH

1. O'qituvchida ustun turgan qaysi pedagogik muloqot bor?

1) O'quvchilarga yangi ma'lumotlar berish.

2) O'quvchini tushunib yetish va unga ta'sir ko'rsatish.

3) O'qituvchi bilan o'quvchining bir-birini tushunishi.

2. O'qituvchi uchun xarakterli bo'lgan pedagogik tiplarini aniqlang.

1) Bilimlarni qo'lga kiritishda o'quvchilar bilan hamkorlik qiladimi? (Demokratik uslub).

2) Sinfni jiddiy boshqaradimi, o'quvchilarning faolligi va tashabbuskorligiga yo'l berdimi? (avtoritar uslub).

3. O'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish turlarini aniqlang.

1) Tashkil etuvchi: yo'l-yo'riq, maslahat. Nasihat.

2) Baho beruvchi: ta'kidlovchi, oldin bildiruvchi baho.

3) Intizomga ta'sir ko'rsatish: bevosita eslatish, savol shaklida tanbeh, intizomga rioya qilishga bevosita yoki bilvosita undash, jazolash.

4. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotidagi xarakterli emotsional tusni aniqlang.

1) Ijobiy (ma'qullash, ishonish, rag'batlantirish, maqtash).

2) Salbiy (haqoratlash, ishonmaslik, qo'rqitish).

3) Neytral (iltimos qilish, sha'ma, bilvosita ko'rsatma).

9-topshiriq. O'QITUVCHI FAOLIYATI QIRRALARINI O'RGANAMIZ

1. Bilimdonlik.

a) O'qitadigan fanini puxta biladimi?

b) Notiqlik san'atiga (o'quv materialini tushunarli va ravon tilda bayon qila olish malakasiga) egami?

d) Bilimlarni gumanitarlashtira oladimi?

e) O'quvchilarning bilimi ko'nikma va malakalarini tahlil qilib, ularni to'g'ri baholay oladimi?

2. Rivojlantiruvchanlik.

a) O'quvchining yosh xususiyatlarini, ularning o'quv imkoniyatlarini biladimi?

b) O'quvchilarda o'z faniga qiziquvchanligini uyg'ota oladimi?

d) Ta'limning turli metodlari (bayoniy-tasviriy, reproduktiv, muammoli, muammoli ta'lim, qisman izlanuvchanlik metodlari)dan foydalaniladimi?

3. Yo'naltiruvchilik.

a) O'qitish prinsiplari orqali bilimga qiziqtiradimi?

b) O'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga e'tibor qiladimi?

d) Ilmiylik va bilimdonlikka o'quvchini yo'naltiradimi?

e) O'quvchining ongliligi va ijodiy faolligiga e'tibor qiladimi?

f) Sistemalilik, izchillikka asoslanadimi?

g) Nazariya bilan hayotiy amaliyotni bog'laydimi?

4. Safarbarlik.

a) Darsda o'quvchilarning diqqatini barqarorlashtira oladimi?

b) Har xil tipdagi darslarni o'tkaza oladimi?

d) Kasb-hunar ta'limiga oid va kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshira oladimi?

e) Hazil-mutoyibani uddalay oladimi?

f) Darsni ilmiy asosda tashkil qiladimi? Darsga qo'yiladigan estetik va gigienik talablarga rioya qiladimi?

5. Loyihachilik.

a) O'z mutaxassisligiga oid kursni puxta biladimi?

b) O'z fanining metodikasini yaxshi biladimi?

d) O'qitish va o'quvchilarni bilimini tekshirish uchun o'quv manbalarini tanlay oladimi?

e) O'qitishda fanlararo ichki va tashqi aloqalardan foydalanish malakasi bormi?

f) Kerakli hujjatlarni to'g'ri olib boradimi va rasmiylashtiradimi?

g) Asosiy tarbiyaviy ishlarning turlari va ularni o'tkazish shakllarini tanlay oladimi?

h) O'qituvchi uchun qaysi shaxsiy sifatlar zarur? (daftaringizga ko'chirib yozing va tagiga chizing).

i) Mehnatsevarlik, ishga ijodiy yondashish, mustaqillik, kamtarlik, yuksak madaniyatlilik, epchillik, hozirjavoblik, vazminlik, mas'uliyatlilik, sinchkovlik, qat'iyatlilik, sabotlilik, tirishqoqlik, ijrochilik, vijdonlilik, holislik, har tomonlama bilimdonlik, kuzatuvchanlik, xushmuomalalik, bolalarni sevish va shaxsini hurmat qilish, ta'sirchanlik, hazilkashlik, xushfe'llilik va boshqalar.

10-topshiriq. O'QITUVCHI QOBILIYATI VA MAHORATINI O'RGANISH

«Haq yo'lida kim senga bir harf
o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas oning haqqin ado
ming ganj ila».
A.NAVOIY

1. O'qituvchi qobiliyati deganda nimani tushunasiz?

a) O'quvchining bilish qobiliyati deganda nimani tushunasiz?

b) Qaysi fan o'qituvchingizda tushuntira olish qobiliyati kuchli?

d) Kuzatuvchanlik qobiliyati nima uchun kerak?

e) Nutq madaniyati va qobiliyati o'qituvchi qurolimi?

f) O'qituvchi tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shartmi?

g) O'qituvchidagi kelajakni ko'ra olish qobiliyatining afzalligini ifodalang.

h) O'quvchining diqqatini taqsimlay olish qobiliyati qachon zarur?

2. Pedagogik mahorat nima?

a) O'qituvchi pedagogik mahoratli bo'lishi uchun nimalarni bilish kerak?

b) Pedagogik mahoratga ega bo'lish uchun pedagogik qobiliyatlar kerakmi?

d) Sinf rahbarining pedagogik mahorati jamoa bilan ishlashda qo'l keladimi? Izohlang.

e) Pedagogik mahoratni yangi pedagogik texnologiya asosida boyitish mumkinmi?

f) O'qituvchi necha yilda malaka oshirish kurslariga boradi? Nima uchun?

11-topshiriq. O'QUVCHI BILIMINI AN'ANAVIY VA REYTING USULDA BAHOLASH TIZIMINI QIYOSIY TAHLIL QILING

T/R	An'anaviy baholash tizimi	T/R	Yangi baholash tizimi
1	Baho obyekti va subyekti o'zaro ta'sir jarayoni sifatida	1	Subyekt — subyekt hamkorligi jarayoni sifatida
2	So'nggi natija baholanadi	2	Natijaga intilish jarayoni sifatida
3	Baholash vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladi	3	Baholash uzluksiz amalga oshiriladi
4	Baholash natijasi. Miqdoriy baho	4	O'quv muvaffaqiyatlari miqdoriy — sifat jihatdan ko'p qirrali
5	Baholash alohida predmet va mavzuga qaratilgan	5	Baholash — fanlararo va izchil
6	Uzuq-yuluq bilimlar va tor ko'nikmalar baholanadi	6	Amaliy bilimlarning kengligi va chuqurligi baholanadi
7	O'quvchi hakam va nazoratchi sifatida namoyon bo'ladi	7	Himoyachi va maslahatchi sifatida faoliyat ko'rsatadi

8	O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir baholash bilan yakunlanadi	8	O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir uzilmaydi, balki baholashda rag'batlantiriladi
9	Baho o'qituvchi tomonidan qo'yiladi	9	O'z-o'zini baholash har tomonlama rag'batlantiriladi
10	Baholash obyektivligiga e'tibor qaratiladi	10	Asosiy e'tibor baholash va o'z-o'zini baholashning qo'shib olib borilishiga qaratiladi
11	Baho tashqi omillar bilan qattiq cheklab qo'yilgan	11	Baholash egiluvchan tabiatga ega va ochiq tizimni tashkil etadi
12	O'quvchi nimani uddalay olmasa va bilmasa shunga e'tibor qaratiladi	12	O'quvchilar egiluvchan tabiatga ega va ochiq tizimni tashkil etadi
13	Baholash sinf ichida nisbiylik kasb etadi	13	Baholash yakka tartibda, o'quvchilarning g'ayrioddiy tavsiflari asosida amalga oshiriladi
14	Bir fan doirasida bir intellekt xususiyati baholanadi	14	Turli-tuman, intelletual baholaniladi
15	Alohida cheklangan vositalar bilan (yozmaish, test) baholanadi	15	Juda ko'plab vositalardan foydalaniladi
16	Baholashda avvaldan berilgan qat'iy javob taqqoslanadi	16	Baholashda ochiq turdagi bir necha topshiriq variantlaridan foydalaniladi
17	Qayd etilgan o'quv muvaffaqiyatlari baholanadi	17	O'quv natijalariga erishish uchun harakat baholanadi
18	Baholash yakka tartibda	18	Guruh, jamoa bo'lib bajarilgan ishlar rag'batlantiriladi
19	Baholash mohiyati xatolarni ko'rsatish	19	Xatolarning oldini olish va undan to'g'ri xulosa chiqarish
20	Baholash o'quvchi uchun hayajonli vaziyatlarda amalga oshiriladi	20	Baholash o'quvchi uchun tabiiy sharoitda, zo'riqishni bartaraf etish maqsadida olib boriladi
21	Nazorat va baholash tizgini o'qituvchining qo'lida	21	Baholash tizgini qisman o'quvchiga o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini nazorat shaklida amalga oshiriladi

22	O'qituvchi o'quvchining bilmidagi xato va kamchiliklarni ko'rsatadi	22	O'quvchilar o'zi ongli tarzda mustaqil xatolarni tahlil qiladi
23	Baholashda vaqt omili ustunlik qiladi	23	Uzluksiz ta'lim jarayonida vaqt chegarasi aniq emas
24	Baholashning sifat tomoni e'tiborga olinadi	24	Baholashda sifatga ko'proq e'tibor beriladi
25	Baho ta'lim mazmunidan ajralib qolgan	25	Uzluksiz ta'lim uzluksiz baholash
26	O'quvchida baho olish uchun intilishni tarbiyalaydi	26	O'quv dasturi va standartdan chetga chiqish rag'batlantiriladi
27	Tashqi miqdoriy baho — bilim o'lchovi	27	Obyektiv baholash — bilimlar ko'rsatkichi
28	Asosiy (yuk) variant faoliyat-ning so'nggi natijasi sifatida qadrlanadi	28	Faqat asosiylar emas, qora-lamalar ham baholanadi
29	Ta'lim samaradorligi ko'rsat-kichi sifatida muvaffaqiyat e'tiborga olinadi	29	Uzluksiz o'z ustida ishlash rag'batlantiriladi
30	Baho bir o'zgaruvchining funksiyasi	30	Baho ko'pgina o'zgaruvchi-larning teng o'zaro ta'siri

12-topshiriq. O'QITUVCHILAR TA'LIM-TARBIYA ISHI VA PEDAGOGIK QOBILIYATI, PEDAGOGIK MAHORATI DARAJASIGA BAHO BERING (foiz hisobida)

T/R	Savol	Ha	Aytish qiyin	Yo'q
1	Mazkur o'qituvchini o'z ishining ustasi deb bo'ladimi?			
2	O'quvchi talabalar undan yordam va maslahat so'rab tez-tez murojaat qiladilarmi?			
3	Har qanday materialni ham o'quvchilarga qiziqarli tarzda yetkaza oladimi?			
4	U darsda rejalashtiriilgan o'quv ishga ulguradimi?			

5	Mavzuni har xil tomonlariga vaqt va kuchlarini taqsimlashda qiynaladimi?			
6	Pedagogik qobiliyatga egami?			
7	U o'zining to'la mustaqil o'quv-tarbiyaviy ish uslubiga egami?			
8	U o'z darslarida ijodiy muhit va muammoli vaziyat yaratadimi?			
9	Mazkur o'qituvchi o'z darslarida munozarani rag'batlantiradimi?			
10	U darslarda o'quvchilar savollarini qondiradimi?			
11	Yangi pedagogik texnologiyadan foydalanadimi?			
12	Pedagogik innovatsion, integratsiya uslublarini qo'llaydimi?			

13-topshiriq. PEDAGOGIKANING METODOLOGIK ASOSLARIGA DOIR TOPSHIRIQLARNI BAJARING

1. Jamiyat va olam rivojida pedagogikaning mohiyati.

a) Milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda pedagogikaning tutgan o'rni qanday?

b) «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Bu qaysi mutafakkir g'oyasi? Uni izohlang.

d) «Pedagogika» atamasining ma'nosini tushuntiring?

e) Pedagogikaning asosiy tushunchalari qaysilar?

f) Pedagogika fani tizimi va turlarini ifodalang?

«Atomlar» o'yini

Guruhdagi hamma talabalar o'yinda teng qatnashadi. O'qituvchi «ta'lim», «tarbiya», «ma'lumot» so'zlarini alohida aytsa, hech kim qo'l ushlashmay harakat qiladi. Agar o'qituvchi «ta'lim-tarbiya» yoki «ta'lim-tarbiya-ma'lumot» so'zlarini birgalikda aytsa unda o'quvchilar qo'l

ushlashib zanjir bo'lib turishadi. O'yin 5—6 marta qaytariladi.

14-topshiriq. SHAXSNI SHAKLLANISHIDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI

1. Shaxs deganda nimani tushunasiz?

a) Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?

b) Shaxsni kamol topishida faoliyatning roli qanday?

d) Shaxs taraqqiyotining o'ziga hosligi xususiyatlarini ifodalang?

e) Bugungi kun shaxs tarbiyasida milliy istiqlol g'oyasi qanday o'rin tutadi?

O'yin: Mantiqiy chigallik.

Inson o'z hayoti faoliyatida qanday tartibdagi yosh davrlarni bosib o'tadi (o'rniga qo'ying).

Ilk yoshlik davri	Kichik maktab yoshi	Yoshlik davri	Chaqa-loqlik davri	O'rta yoshlik davri

Balog'at davri	Keksalik davri	O'smirlik davri	Bolalik davri

15-topshiriq. DIDAKTIKA. TA'LIM NAZARIYASI — O'QUV JARAYONIGA DOIR TOPSHIRIQLAR

a) «Didaktika» atamasining lug'aviy ma'nosini bilasizmi?

b) Didaktikaga kim asos solgan?

d) Ta'lim metodlari prinsiplarini ta'riflang?

e) Sharq xalqlari pedagogikasining buyuk allomalarini ta'lim, ilm haqidagi fikrlaridan namunalar keltiring? (Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Alisher Navoiy kabi).

f) Bugungi kunda hukumatimizning ta'lim jarayoniga e'tibori haqidagi fikrlaringiz?

O'qitish: Hozir va kelajakda.

(Jadvalga kelajakdagi tasavvuringizni yozing).

O'QITISH: HOZIR VA KELAJAK

T/R	O'qituvchilarning e'tiqod va harakatlaridagi munosabat	Hozir	Bilimlarni ko'chirish	Bilimlarni loyihalash
1	O'quv faoliyati	Hozir	Didaktika, o'qituvchiga yo'naltirilgan	Interfaol, o'quvchilarga yo'naltirilgan
		Kelajak		
2	O'qituvchining roli	Hozir	Dalillar (faktlar), haqida ma'lumot beradi, doim ekspert	Sherik (partnyor), ba'zan ekspert
		Kelajak		
3	O'quvchining roli	Hozir	Tinglovchi, har doim o'quvchi	Sherik (partnyor), ba'zan ekspert
		Kelajak		
4	Ta'limda asosiy e'tibor	Hozir	Ma'lumot va esda qoldirishga qaratiladi	Munosabat, izlanish va yangiliklar yaratishga qaratilgan
		Kelajak		
5	Bilimlarni tushunish	Hozir	Ma'lumot to'plash	Ma'lumotlarni qayta ishlash
		Kelajak		
6	Baholash	Hozir	Normalarga asoslangan qat'iy tizim	Muayyan mezonlarga asoslangan tizim
		Kelajak		

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI Axborot-resurs markazi
7810

7	Textologiya	Hozir	Sust axborot berish	Tafakkurning rivojlanishi uchun faol muhit
		Kelajak		
8	Muvaffaqiyatni namoyish etish	Hozir	Miqdor	Tushunish sifati
		Kelajak		

16-topshiriq. TA'LIM MAZMUNI, SHAKLI VA VOSITALARIGA OID TOPSHIRIQLAR

a) Ta'lim mazmunini tashkil qiluvchi o'quv rejasi, dasturi, darslik, o'quv qo'llanmalarni o'rganing va ularning hozirgi o'quv jarayonidagi o'rnini ifodalang.

b) Yangi pedagogik texnologiyada ta'limni tashkil qilish shakllariga e'tibor qanday? Sinf-dars tizimi bilan solishtirgan holda tahlil qiling?

d) Ta'lim jarayonida qanday vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq?

e) Dars turlarining qaysi biri sizning faningizda qo'l keladi? (Yangi bilim beruvchi, takrorlovchi, mustahkamlovchi, bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish va baholash, takroriy-umumlashtiruvchi, aralash darslar).

17-topshiriq. DARSNING BOSHLANISHINI KUZATING

Kuzatish uchun savollar:

1) Dars nimadan boshlanadi? Sinfda tartib o'rnatish, o'quvchilar diqqatini safarbar qilish, barcha bolalarni faollikka tezda tortish uchun o'qituvchi nima qildi?

2) Kelgusi darsning maqsadi o'qituvchi tomonidan qanday ta'riflangan edi? U hamma o'quvchilar tomonidanmi yoki ko'pchilik o'quvchilar tomonidan qabul qilinganmidi? Darsning maqsadi har bir o'quvchi faoliyatining maqsadi bo'lishligi uchun o'qituvchi qanday usullardan faydalandi?

3) Darsning boshidayoq umuman ish ritmidan «chiqib qolgan», «uzilib qolgan» o'quvchilar sinfda bormidi? Ularni ham darsga jalb qilib olish uchun o'qituvchi qanday choralar ko'rdi?

4) Darsning boshlanishini siz qanday tuzgan bo'lar edingiz? Qisqacha yozing. O'zingiz tavsiya etgan variantga dalillar keltiring.

18-topshiriq. DARSDA O'RGANILGAN YANGI MATERIAL USTIDA KUZATISH O'TKAZING

Kuzatish uchun savollar:

1) Darsda yangi materialni o'rganish nimadan boshlanadi? Yangi materialga o'tish paytini aniq ajratishning imkoniyati bormidi? Yangi materialni o'rganish qanday tuzilgan edi?

2) Yangi mavzuni o'rganish davrida o'qituvchi tomonidan qanday ta'lim vositalari ishlatilgan? Ular material xarakteri bilan qanchalik muvaffaqiyatli bog'langan? Ular o'quvchilar bilish faoliyatining qaysi tipini (reproduktiv, ijodiy) tashkil qilishga yordam beradi?

3) O'qituvchi qanaqa ta'lim usulidan foydalangan? Ular darsning maqsadi, o'quvchilarning yosh xususiyati, materialning xarakteriga qanchalik javob berardi?

4) O'qituvchiga barcha o'quvchilar faolligini qamrab olishning imkoni bo'ldimi? Ko'rilgan qaysi savollar bo'yicha bolalar faolligi ko'proq edi?

5) O'qituvchi o'zi tanlagan ta'lim usulini qanday egallagan? U qaysi usuldan ko'proq foydalanadi? Nima sababdan u shu uslubga ko'proq tayanadi?

6) Darsdan so'ng o'quvchilarning birontasi bilan darrov suhbatlashing, u yangi materialni tushunib olgan yoki olmaganligini, uni qanchalik chuqur idrok qila olganligini aniqlang.

7) Ana shu darsda yangi materialni o'rgatishda va uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida siz nimalarni o'zgartirgan bo'lardingiz?

O'zingizning o'quv rejangiz variantini qisqacha asoslab bering. O'z o'rtog'ingiz ishtirokida bayon etilganlarni qayta takrorlang. Ularning fikrlarini so'rang.

19-topshiriq. DARSDA O'QUVCHLAR BILIMINI ANIQLASH YUZASIDAN KUZATISH O'TKAZING

Kuzatish uchun savollar:

1) Bilimni aniqlash darsda qanday o'rinni egallaydi? O'quvchilar bilimini aniqlash uchun o'qituvchi qancha vaqt sarflaydi? Qancha o'quvchilardan so'radi? Qanday baholadi?

2) O'qituvchi o'quvchilar bilimini tekshirish uchun qaysi shakllardan (frontal so'rash, individual so'rash, o'quvchilarning mustaqil ishi, sharxli mashqlar) foydalanadi?

3) O'qituvchi savollarining shaklini qayd qiling. Ular bilish faoliyatining qanday turini keltirib chiqaradi? Qanaqa savollarga to'laqonli aniq javob berilmadi?

4) Bilimni tekshirish jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi orasida qanday munosabat uslub mavjud? Bilimga qo'yiladigan baho qanday amalga oshiriladi? O'qituvchi qanday baholash mulohazasini (ijobiy, salbiy, neytral) hammadan ko'proq ishlatdi? O'qituvchining baholash mulohazalaridan misollar keltiring. Savol-javob paytida bular o'quvchilarning faolligini oshirishga qanday ko'mak berdi?

5) Savol-javob va boshqa tekshirish metodlarini mukammallashtirishga hamda maktabning o'quv jarayonida qo'yiladigan yangi talablar nuqtai nazaridan turib bilimni baholashga qanday takliflarni kiritish mumkin?

20-topshiriq. UYGA VAZIFA BERISH YUZASIDAN KUZATISH O'TKAZING

Kuzatish va tahlil uchun savollar:

1) Uyga vazifa berish o'qituvchi tomonidan qachon, darsning qaysi bosqichida amalga oshiriladi? O'qituvchi tomonidan tanlangan vaqt qanchalik maqsadga muvofiq?

2) Uy vazifasi o'z shakli va mazmuniga ko'ra qanday xarakter kasb etadi? U yangi materialni o'rganish va uni mustahkamlash bilan qanday bog'lanadi? O'qituvchi uyga berilgan vazifa bo'yicha o'quvchilarga qanchalik batafsil va to'la-to'kis yo'llanma beradi?

3) Uy vazifasining ko'lamini baholang. Kuchli va kuchsiz o'quvchilarning uy vazifasini qancha vaqtda bajarishi

haqida fikrlarini aniqlang. O'zingiz topshiriq qilib ko'ring va uni bajarishga qancha vaqt sarflaganligingizni e'tiborga oling.

4) O'qituvchi uy vazifasining xarakterini aniqlashda ayrim o'quvchilarning qiziqish va mayllarini qanday hisobga oladi? O'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga oladimi?

21-topshiriq. DARSNING TUGALLANISHI VA UNING YAKUNLANISHI BO'YICHA KUZATISH O'TKAZING

Kuzatish uchun savollar:

1) Dars qanday tugadi? O'qituvchi darsga ajratilgan vaqt ichida dars maqsadiga erishib ulgurdimi?

2) O'quvchilarning savollari uchun maxsus vaqt qoldirildimi? O'quvchilar qanday savollar berishdi? Ularni yozib olishga urining. Bular nimalardan darak berardi?

3) Dars yakunlandimi? O'qituvchi uni qanday shaklda amalga oshirdi?

22-topshiriq. TA'LIM METODI O'QUV FANI XARAKTERIGA BOG'LIQ EKANLIGI XUSUSIDA KUZATISH O'TKAZING VA MA'LUMOTLARNI YIG'ING

Kuzatish o'tkazing. Mehnat darsini tashkil etish va o'tkazish metodikasi xususiyatlari haqida ma'lumot to'plang.

1. Mehnat darsida ishtirok eting.

2. Darsni tahlil qiling:

1) Darsning boshlanishi qanday uyushtirilgan edi? Avvalgi darsning boshlanishi bilan keyingisi orasida qanday o'xshashlik mavjud va o'ziga xoslik nimadan iborat?

2) Mehnat darsida yangi materialni tushuntirish qanday tartibda tuziladi?

23-topshiriq. BILIMNI TEKSHIRISH UCHUN O'QITUVCHILAR TOMONIDAN QO'LLANILGAN TURLI XIL METODLAR BILAN TANISHING

1. Darsga qatnashing va quyidagi asosiy savollar bo'yicha ma'lumotlar to'plang:

1) O'qituvchi dars jarayonida qanday tekshirish metodlaridan foydalandi?

2) Qancha o'quvchi o'qituvchi tomonidan so'rab chiqildi?

3) So'rab chiqish vaqtida o'qituvchi haysi savol turlarini ishlatdi (idrok, xotira, tafakkurni kengaytirish talab qiluvchi savollar)? Qanday savollar ko'proq bo'ldi?

4) O'qituvchi tomonidan savollarni ta'riflayotganda bolalarning yosh va individual xususiyatlari hisobga olindimi?

5) O'qituvchi qancha ball (baho) qo'ydi? Ularni yetarlicha asoslangan deb hisoblash mumkinmi?

6) Bilimni baholashda o'qituvchi qanaqangi fikrlarni bildirdi (ijobiy, salbiy, betaraf)? Qaysi fikrlar ustun edi? O'qituvchilarning bolalarga nisbatan munosabati haqida nimalar deyish mumkin?

24-topshiriq. TARBIYA NAZARIYASIGA DOIR TOPSHIRIQLAR

1. O'zbek xalq pedagogikasi milliy tarbiya jarayoning asosi.

a) Tarbiya jarayonining mohiyati va qoidalarini ta'riflang, misollar bilan boyiting.

b) Tarbiyashunoslikdagi «hikmat, maqol, matal va boshqalar ongni charxlaydi deyilishini isbotlang.

d) Tarbiya usullarini yozing va o'qituvchingiz qaysi metodni dars jarayonida qo'llaydi-yu, qaysi birini darsdan tashqari vaqtda yoki tarbiyaviy soatlarda qo'llaydi?

e) Ota-ona tanbehi, nasihati, jazosi rag'bati siz uchun ta'sirlimi? Yoki o'qituvchi, guruh rahbarlaringiznikimi? Nima uchun? Taqqoslang va isbotlang.

f) Tarbiyaning tarkibiy qismlarini bir-biri bilan bola tarbiyasiga zanjirsimon ekanligini isbotlang (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy mehnat, diniy va boshqalar).

g) Qur'oni Karim va Hadisu Shariflardan tarbiya masalalariga doir misollar ayting va tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiring.

h) Hozirgi kunda qaysi gazeta yoki jurnallarda tarbiya masalasi ko'proq yoritilyapti? Teleko'rsatuvlarda-chi?

25-topshiriq. O'QITUVCHINING DARS JARAYONIDA O'QUVCHILARNING AXLOQIY TARBIYASI MASALALARINI HAL ETISHDAGI ISH TAJRIBALARI BILAN TANISHING

Xohlagan o'qituvchining darsiga kiring, darsni tahlil qiling. Darsni tahlil qilayotganda quyidagilarga ahamiyat bering:

1) O'quv materialiga axloqiy tarbiya masalasining yechilishi nuqtayi nazaridan turib baho bering.

2) O'quv materialining imkoniyati qanchalik to'la amalga oshirilgan?

3) O'qituvchiga nimani tavsiya etish mumkin bo'lardi?

4) Darsning tuzilishidan kelib chiqsak, bu tavsiyalar qanchalik aniq?

5) O'quvchilarning axloqiy tarbiyasiga u qanday ta'sir ko'rsatadi?

6) Qanday ma'lumotlar bo'yicha bu haqda xulosa chiqarish mumkin?

7) O'zingiz ishtirok etgan darsdagi axloqiy tarbiya masalasining yechimini jurnallarda o'zingiz o'qigan, o'qituvchilar ish tajribasidan olingan o'xshash misollar bilan solishtirib ko'ring.

26-topshiriq. O'QITUVCHILARNING O'QUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYALASHGA DOIR ETIKAVIY SUHBATLAR TAJRIBALARINI O'RGANING

1. Yuqori sinf o'qituvchisining bolalar bilan olib borgan etikaviy suhbatida ishtirok eting, uni qisqacha yozib oling, quyidagi savollar bo'yicha suhbatning qisqacha tahlilini bering:

1) Suhbat qanday vaziyatda boshlandi? Tashqi sharoit va o'quvchilar uyushqoqligi qanday edi?

2) O'qituvchi bolalarning suhbatni yaxshi idrok qilib olishi uchun qanday usullardan foydalangan?

3) O'qituvchi suhbat o'tkazar ekan, qanday masalani qo'ydi?

4) Uni o'tkazish jarayonida masala qanday yechildi?

5) Suhbat qanday tuzilgan edi?

6) Uning tuzilishi suhbatdan ko'zlagan maqsadga qanchalik muvofiq keldi?

7) O'qituvchi sinf hayotiga doir qanday materialdan foydalandi?

8) Suhbat qanday tugadi?

9) O'qituvchi qo'ygan maqsadiga erishdimi?

10) Qanday ko'rsatkich bo'yicha bu haqda fikr yuritish mumkin?

27-topshiriq. ETIKAVIY SUHBATNI ISHLAB CHIQISHNI QAYTA-QAYTA MASHQ QILING

1. Mashg'ulotga quyidagi materiallarni tayyorlang:

1) Muayyan bir sinf o'quvchilari uchun etikaviy suhbatlar mavzusini aniqlang. Tanlangan mavzuni asoslang.

2) Suhbat qanday asosda tuziladigan bo'lsa, shunga ko'ra material tanlang.

3) Suhbatni o'tkazishga sinfni qanday tayyorlash, bolalarning hayotiy tajribalaridan qanday foydalanishni o'ylab ko'ring.

4) Suhbat rejasini tuzing. Rejaning ayrim savollarini ko'rsating.

5) Suhbatni kim o'tkazadigan bo'lsa, o'shalarga yordam tariqasida adabiyotlar tanlang.

6) Mashg'ulot uchun suhbat rejasini rasmiylashtiring.

2. Tayyorlangan materialni mashg'ulotda muhokama qiling, suhbatning tuzilishiga doir turli variantlarni solishtirib ko'ring.

Tayyorlangan materialni umumlashtirishda quyidagi savollarga ahamiyat bering:

1) O'qituvchi suhbat mavzusini tanlayotganda nimalarga amal qiladi?

2) O'qituvchi suhbatni o'tkazishga tayyorlayotganda ko'rgazmali qurollar, kitoblar, maqolalardan qanday foydalanishi kerak?

3) V, VI, VII sinf o'quvchilari bilan bo'ladigan suhbatning xususiyati nimalardan iborat?

4) Suhbatni qanday yakunlash kerak?

28-topshiriq. O'QUVCHILARNI ESTETIK TARBIYALASH DARSIGA TAYYORLANISHGA SIZ HAM QO'SHILING

1. Maktab o'qituvchisining tarbiyaviy ish rejasidan estetik tarbiyaga bag'ishlangan tadbirlaridan: **suhbat, tabiat qo'yniga sayohat, konsert-suhbat** va hokazolardan birontasini tanlab oling.

2. Tanlangan tadbirning rejasini pedagogika o'qituvchisi rahbarligida ishlab chiqing. Uni o'quvchilar bilan o'tkazing.

3. O'tkazilgan tadbirni quyidagi savollar bo'yicha tahlil qiling:

1) Bolalar o'tkazilgan tadbirga qanday munosabat bildirishdi?

2) U o'quvchilarda qiziqish uyg'ota olmaganligini sezdingizmi?

3) Bolalarga ayniqsa nimalar ko'proq yoqdi? Qanday ko'rsatkichlarga asoslanib bu haqda fikr yurita olasiz?

4) Tavsiya etilgan bu tadbirga dastlab qiziqish bildirmaganlarni unga qiziqtirishga qanday erishdingiz?

5) Agarda shu tadbirni yana qayta o'tkazishga to'g'ri kelsa, uning rejasiga qanday o'zgarishlar kiritgan bo'lardingiz?

29-topshiriq. SINF JAMOASI RIVOJLANISH DARAJASINI O'RGANISH

1. Quyidagi savollar bo'yicha o'qituvchi bilan suhbat o'tkazing:

1) Sinf bilan anchadan beri ishlaysizmi? Jamoani yaxshi bilasizmi?

2) Bolalar bir-birlariga nisbatan qanday munosabatda bo'lishadi? Hamma bolalar ham sinfdagi ishlar bilan qiziqadimi? Turli xil jamoa faoliyatlariga ular qanday munosabatda bo'lishadi? Buni misollar bilan ko'rsating.

3) Sinf faollari bormi? Faollarga kimlar kiradi? U qanday tashkil qilingan? Faollarining obro'lari qay darajada? Boshqa bolalar bilan ularning munosabati qanday?

4) Siz o'qituvchi sifatida faollar bilan tez-tez uchrashib turasizmi yoki har zamondami? Ular bilan qanday ishlarni bajarasiz? Faollardan kim sizga hammadan yaxshiroq yordam beradi? Kim sizni ko'proq xavotirga soladi? Nima sababdan?

5) Sinf jamoasi umummaktab jamoasi bilan qanday bog'langan? Sizning sinfingiz qanday jamoat ishlarida ishtirok etgan? Qanchalik muvaffaqiyat bilan?

6) Tarbiyaviy ish bo'yicha bu yil qanday masalalarni hal etmoqchisiz? Ularning muvaffaqiyatli yechimi uchun nimalarni rejalashtirdingiz?

7) Sizning sinf bilan o'zaro aloqangiz qanday? O'zaro munosabatda sizni nima qanoatlantirmaydi?

8) Sinf jamoasining ishini tashkil etishga o'quvchilarning ota-onalarini qanday jalb qilasiz?

30-topshiriq. DARS YOKI DARSDAN TASHQI MASHG'ULOT YUZASIDAN KUZATISH O'TKAZING VA SINF JAMOASIDAGI O'ZARO MUNOSABATNING XARAKTERI HAQIDA MATERIAL TO'PLANG

1. O'quvchilar bilan suhbatlashing va jamoaning takomillashuvi darajasi haqidagi ularning fikrlarini aniqlang.

Suhbat uchun savollar:

1) Sizning fikringizcha sinfingizda jamoa bormi? Agar bor bo'lsa, unda bu nimalarda ko'rinadi?

2) Siz o'z xohishingiz bilan maktab uchun, sinf uchun kerakli, foydali ish qila olasizmi? Bular qanaqangi ishlardan iborat?

3) Sizlardagi har bir kishi bir-birining kamchiligi haqida to'g'ridan-to'g'ri gapira oladimi?

4) Sinf faoli jamoa hayotining haqiqiy tashkilotchisimi?

5) Siz o'z jamoangizning yo'lboshchilariga qanday munosabat bildirasiz?

6) Sizlar har doim ham bir-biringizga nisbatan

e'tiborlimisizlar? Hayotdagi va ishdagi muvaffaqiyatlar hamda muvaffaqiyatsizliklar hamma tomonidan yaqin qabul qilinadimi yoki ba'zi birovlar tomonidanmi?

7) Jamoangizning o'z an'analari bormi? Siz ularga nisbatan qanday munosabatdasiz?

8) Sinf jamoasining rivojlanishiga nima ko'maklashadi va nimalar halaqit beradi?

31-topshiriq. OTA-ONALAR MAJLISIGA TAYYORGARLIK KO'RISH ISHLARI VA UNI O'TKAZISH HAQIDA UMUMIY TASAVVUR HOSIL QILING

1. Ota-onalar majlisida ishtirok eting. Majlisning borishini qayd qiling.

2. O'qituvchi bilan bo'lgan suhbatda quyidagi masalalarni aniqlang:

1) Bu majlis oldiga u qanday masalalarni qo'ydi?

2) O'qituvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ish rejasiga ular mos keladimi?

3) Majlisning oldiga qo'yilgan masalani u hal qila oldimi?

4) Uning yana ham samarali bo'lishligi uchun nima qilish kerak edi?

5) Ota-onalar bilan olib boriladigan ishga yana ham yaxshiroq tayyorgarlik ko'rish uchun qanday maslahatlar bera olasiz?

32-topshiriq. OILADA BOLA TARBIYASIGA DOIR TOPSHIRIQLAR

a) Oila turlarini bilasizmi?

b) Professor A.Q.Munavvarovning «Yaproq ildizdan quvvat oladi» pedagogik risolasini o'qiganmisiz?

d) Ko'p bolali oilalarga qanday qaraysiz? Oilangizda nechta farzandsizlar?

e) Oynisa Musurmonovaning «Oila ma'naviyati milliy g'urur» kitobini tarbiyaviy ahamiyati unda ilgari surilgan g'oyalar va keltirilgan dalillarga qanday qaraysiz?

f) Oilangizda ota-ona namunasi kuchlimi? Yoki ik-

kisidan birini ta'siri kuchlimi? Tahlil qiling va boshqa tanish oilalarga solishtiring.

g) Oilangizda qanday sharqona urf-odat, an'analarga suyanadi (marosim, to'y, bayram, tug'ilgan kun va hokazo).

h) Chet mamlakat oilalari an'analari sizga yoqadimi? Fikringizni yozing va o'rtoqlaringiz bilan muhokama qiling.

33-topshiriq. QUYIDAGI MATNNI O'QING, TAHLIL QILING. SIZNING OILANGIZDA OBRO'NING QAYSI TURI MAVJUD? BOLALAR TARBIYASIDA OTA-ONALAR OBRO'YI

Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashda ota-onalar obro'yi muhim rol o'ynaydi. Eng avvalo, «**obro' nima?**», degan savolga javob topishimiz kerak.

Obro' hech qanday dalil-isbot talab qilmaydi, katta yoshli kishini shunday deyish mumkin bo'lsa, o'z ko'zi bilan yaqqol ko'rib turadigan, hech qanday shubhasiz e'tirof qilinadigan ta'siri va hislatlaridir.

Ayrim ota-onalar obro'ni tug'ma deb biladi, u alohida bir iste'dod deb o'ylashga moyil bo'ladilar. Bu xatodir. Har bir oilada obro' hosil qilinishi mumkin va bu ish hatto qiyin ham emas. Ko'pincha ota-onalar bolalarni itoatli bo'lishlariga intiladilar, buni maqsad qilib oladilar — bu ham to'g'ri emas. Itoat maqsad bo'la olmaydi. Maqsad birgina bo'lishi mumkin: u ham bo'lsa to'g'ri tarbiyadir. Agar bolalari itoatli bo'lsalar, xotirjam yuraveradilar, bola itoatli bo'lib o'sadi, lekin ojiz odam bo'lib qoladi. Mana shunday yolg'ondakam obro'larni bir necha turlarini sanash mumkin.

1. Zug'um obro'yi. Bunday obro'ga ko'proq otalar mubtalo bo'ladilar. Otaning bunday zug'umidan butun oila tartib saqlab turadi. Bunday obro' bolada hech qanday xislatni tarbiyalamaydi.

2. Masofa obro'yi. Bolalarni itoatli qilish uchun ular bilan kamroq gaplashish, ulardan uzoqroq bo'lish, onda sonda faqat rahbar sifatida muomala qilish kerak deb ishonadigan ota va onalar bor.

3. Manmanlik obro'yi. O'zlariga hammadan ortiq xurmat ko'rsatadigan, juda yuqori martabali arbob deb hisoblaydilar. Nuqul o'zlarini maqtaydilar, bolalarni nazar-pisand qilmaydilar.

4. Pedantlik obro'yi. Bu holda ota-onalar bolalariga ko'p e'tibor beradilar, bunday ota-onalar bir so'z aytdimi, aytgani aytgan deb o'ylaydilar. Bunga qattiq ishonadilar. Mening deganim degan, shunday bo'lishi kerak deydi. «Ertaga qor yog'adi, ko'chaga chiqib o'ynamanglar» deyildimi, ertasiga havo yaxshi bo'lsa ham, ko'chaga chiqib o'ynash taqiqlangan hisoblanadi.

5. Nasihatgo'ylik obro'yi. Bu holda ota-ona bolaga benihoya pandu-nasihat qilib ketadi. Bunday ota-onalar tarbiyaning butun hikmati nasihatgo'ylikda deb, biladilar. Bunday oilada quvnoqlik, jilmayish kamdan-kam bo'ladi.

6. Mehr-muhabbat obro'yi. Ko'pchilik ota-onalar bolalarning itoatli bo'lishlari uchun ular ota-onalarini sevishlari kerak, ota-onalar bu hurmatga sazovor bo'lishlari uchun esa bolalarga har qadamda girgitton bo'lishlari lozim, deb o'ylaydilar. Bolalaridan aylanib, o'rgilaveradilar, bolalarni bo'salarga ko'mib tashlaydilar. Bola gapga quloq solmay qo'yadi. Egoist bo'lib o'sadilar. Egoistlikni jafosini ko'p hollarda ota-onalar tortadilar.

7. Ko'ngil bo'shlik obro'yi. Bunday hollarda bolalarning itoatli bo'lishlariga ularning ko'ngliga yoqish yo'li bilan erishiladi. Bola nima desa, shunga xo'p deyishi bo'sh ko'ngillik qilish bilan erishiladi. Bunday ota-onalar bolaning hech qanday ra'yini qaytarmaydi. Bolaga hamma narsani ruxsat qilaveradi. Bunday oilada bolalar hash-pash deguncha ota-onaning boshiga chiqib oladilar.

8. Apoq-chapoqlik obro'yi. Ko'pincha ota-onalar «bolalarimizni o'zimizga do'st qilib olamiz», deyishadi. Bu yaxshi. Lekin do'stlik oshib ketsa tarbiya to'xtaydi, bolalar ota-onalarini tarbiya qila boshlaydilar. Bunday do'stlik bo'lmaydi, chunki o'zaro hurmat bo'lmasa, hech qanday do'stlikning o'zi bo'lishi mumkin emas.

9. Avrash obro'yi. Bolani biror nimaga unatish uchun sovg'alar va va'dalar berish yo'li bilan uni to'g'ridan-to'g'ri sotib oladilar. Oilada mukofotlashga o'xshash bir qadar rag'batlantirishning ko'rinishi bo'lishi mumkin. Ammo bolani itoatli bo'lgani uchun mukofotlash aslo mumkin emas. Oila tarbiyasi katta va mas'uliyatli bir ishdir. Ota-onalar bu ishga rahbarlik qiladilar va ular jamiyat oldida va bolalarining hayoti oldida javobgardirlar. Ota-onalar farzandlarini tarbiyalashni vijdon bilan, idrok bilan bajarsalar, agar o'z oldilariga ulug' bir maqsadni qo'ygan bo'lsalar, o'zlarining har bir xatti-harakatini o'ylab qilsalar, demak, ularning ota-onalik obro'yi bo'ladi, hech qanday tayanch qidirishlari ham kerak bo'lmaydi. Bolalar ulg'aya boshlashi bilan ota-onalarning qayerda ishlashi, jamiyatda tutgan o'rnini, bilishga doim qiziqadilar. Ota-ona qanday ishda bo'lsa, bu ishni bola jiddiy hurmatga loyiq bir ish deb biladigan bo'lishi kerak. Ota-onalar bolalar hayotidan doimo xabardor bo'lishlari kerak. Bolaga ehtiyot va e'tibor bilan rahbarlik qilib turish kerak, oilada ota-onalarning obro'yi bo'lishi shart.

34-topshiriq. XALQ OG'ZAKI IJODINI O'RGANAMIZ

1. O'zbek xalq og'zaki ijodi haqida suhbat uyushtiring. Uning qirralarini ochishga harakat qiling.

2. O'zbek xalq ijodida dostonchilikning o'rni va dostonlarning ahamiyatini izohlang.

3. Kaykovusning «Qobusnoma» asarini bilasizmi? Misollar keltiring.

4. Xalq og'zaki ijodining nodir namunalaridan biri bo'lmish «Hotamnoma»dagi inson tafakkurining kengligi, yaxshilik va hayotga cheksiz muhabbat va Hotami Toyning ajabtovur sarguzashtlarini bilasizmi?

5. O'zbek xalqiga xos etnopedagogik xususiyatlari talqini bo'lgan «Mehmonnoma»ni o'qing, an'ana va qadriyatlarning siz uchun yangilik bo'lganlarini daftaringizga qayd eting.

6. O'zbek xalqining milliy urf-odatlari turli marosimlar, an'analar va bayramlarning bolalar tarbiyasidagi o'rni.

7. O'zbek xalq ijodida ona-Vatan, imon-e'tiqod, yaxshilik, ezgulik, ahillik, qadr-qimmatni e'zozlanishi haqida so'zlang.

35-topshiriq. ISLOMDA TA'LIM TARBIYANI O'RGANISH

1. Musulmon ahlining dunyoqarashi, ma'naviyati, axloqi, huquqning asosi bo'lgan Qur'oni Karimda ta'lim-tarbiya masalasini yoriting.

2. Muhammad payg'ambarning qisqacha tarjimai holini so'zlab bering, ibratli hayotini islom yo'lidagi ishlarini bog'lang.

3. Muhammad alayhissalomning Hadisi Shariflarida musulmonlarning moddiy va ma'naviy barkamolligi, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, ehson, sabr-toqat, poklik kabi insoniy fazilatli bo'lishi haqida so'zlang.

4. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Imom Ismoil, al-Buxoriy va Imom at-Termiziyning hadis ilmi rivojidagi xizmatlari haqida suhbat uyushtiring.

5. Axloq-odobga oid hadis namunalaridan keltiring.

6. Islom ilmini o'rganish va o'rgatish usullari, shakllarini eslang, mustaqillik davridagi talqini haqida insho yozing.

36-topshiriq. AMIR TEMUR HAYOTI HAQIDA «TEMUR TUZUKLARI»NI O'RGANAMIZ

1. Amir Temur hayoti va uning avlodlari haqida bilasizmi? Uning hayoti haqidagi rivoyatlarni eslang, ibratli tomonlariga alohida to'xtaling.

2. Amir Temurning odob-axloq, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi o'gitlaridan misollar keltiring.

3. Amir Temur nomi bilan bog'liq dunyo tarixiga oltin harf bilan yozilgan shahar, imorat, yodgorlik va meroslar haqidagi tasavvuringizni izohlang.

4. Amir Temur saltanat ishlarini boshqarishda nimalarga e'tibor bergan, nimalarni qoralagan. Misollar keltiring.

5. Amir Temur o'zi amal qilgan 11 sifatni izohlang, ibratli tomonlarini daftaringizga qayd eting.

6. «Yaxshi yomonni kunda sina», «El tupursa ko'l

bo'lur», «Adovat emas, adolat yengadi», «Bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritar» maqollarini ma'nosini ayting.

7. Mustaqillik yillarida Amir Temur xotirasiga munosabat haqida suhbat uyushtiring.

37-topshiriq. YUSUF XOS HOJIBNING «QUTADG'U BILIG», «QUTGA, YA'NI BAXT-SAODATGA ERISHTIRUVCHI BILIM» ASARINI O'RGANAMIZ

1. Asarni o'qing, tasavvuringizni qisqacha bayon eting.

Boshdan oxiriga donolar so'zi,
Go'yoki tizilgan marjondek o'zi.

2. «Inson qadri bilimda» bo'limini izohlang.

Yana bir hikmat bor: Hazrati odam —
Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram.

3. Nima uchun kitobga «Qutadg'u bilig» nomi berilgan? «Qutadg'u hikoyasi» bo'limi bo'yicha suhbat uyushtiring.

4. Foydali fazilat va yaramas odat bo'limini hozirgi kun kishilariga taqqoslang (kiyinish, hayo, sofdillik, zakovat, sahiylik, go'zal xulq).

5. «Bilimdan boshlanar donolik yo'li», «Bir yigitga qirq hunar oz» bo'limlari haqidagi fikrlaringiz asosida qisqacha hikoya qiling. Xulosalaringizni o'rtoqlashing.

6. «Otim bo'lsin desang el aro mangu» va «Olim ilmi elga bo'ladi mash'al» bo'limini alohida o'rganing, ibratli tomonlarini daftaringizga yozing.

7. «Bor so'zni tingla, keragini ol» bo'limini o'rganing va insho yozing.

38-topshiriq. ALISHER NAVOIYNING «MAHBUB-UL-QULUB» ASARINI O'RGANISH

1. «Mahbub-ul-qulub» asarining yaratilishi va uning ahamiyati haqida so'zlang.

2. Asarning «mudarrislar to'g'risida»gi «dars beruvchi» bo'limini o'qing va bugungi o'qituvchi sifatiga taqqoslang.

3. «Maktab ahllari to'g'risida»gi bo'limida «ustoz va shogird» masalalarini yoriting.

4. «Tajovuz va adab to'g'risida»gi bo'limi haqida fikringizni bildiring.

5. «Sabr to'g'risida» bo'limidagi hikmatli so'zlardan namunalar keltiring.

6. «Sahovat va hikmat to'g'risida» bo'limidagi nasihat nimaga asoslanadi?

7. Asarning so'nggi bo'limi — «Vafo orqali hayo to'g'risida» bo'limi bo'yicha suhbat uyushtiring.

39-topshiriq. CHET EL TA'LIMI TARAQQIYOTINI O'RGANISH

1. Chet el ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari qanday va ular qanday amalga oshiriladi?

2. Ta'limni tabaqalashtirib olib borish muammolari. «Ta'limni tabaqalashtirish — kelajak strategiyasi» shiori asosida Fransiya davlati olib borayotgan ta'limga qanday qaraysiz?

3. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ta'lim tizimi tarkibini o'rganing, uni respublikamiz ta'lim tizimi bilan solishtiring.

4. Yaponiya ta'lim tizimi, Turkiya maorifini o'rganing, afzal tomonlarini aniqlang.

5. Fransiya ta'limining amalga oshirilishini o'rganing. Ta'lim tizimining sirtqi ta'lim bo'limi ishlari bilan bizdagi sirtqi ta'lim ishlarini taqqoslang.

6. Germaniyada maktab va oliy ta'limni o'rganing. O'qituvchi kadrlar tayyorlash bo'limini bizdagi pedagoglar tayyorlash bo'limidan farqini ayting.

7. Ta'limni rivojlantirishga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilotlarni bilasizmi (Yunesko, Yunisef kabi)? Ularning vazifalarini ayting. Misollar keltiring.

40-topshiriq. ABU NASR FOROBIYNING «AQL TO'G'RISIDAGI» RISOLASINING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

1. Forobiyning «Aql to'g'risida»gi risolasidagi ilgari surilgan g'oyalari haqida so'zlang?

2. Forobiy ushbu asarida «o'zida 12 tug'ma xislatni» birlashtirgan kishigina axloqli odam bo'la oladi», deydi. Ular qaysilar?

3. Asarda bolaning aqliy rivojlanishi va fiziologik holatiga alohida ta'rif mavjud, ifodalang.

4. Forobiy fikricha tarbiyalash 2 xil uslubda olib borilishi mumkin, ixtiyoriy va majburiy, ya'ni tarbiyalanuvchi aqliy va axloqiy xislatlarni o'zi xohlamasa majburiy o'rgatish kerakligi haqida so'z borgan. Sizning bu g'oya haqidagi fikringiz qanday?

5. Forobiyning ushbu asarini hozirgi kundagi ahamiyatini nimada deb o'ylaysiz.

6. Asarda falsafiy, ijtimoiy-pedagogik, psixologik qarashlar haqida Sharq va G'arb mutafakkirlarining fikrlari qanday edi?

41-topshiriq. JADIDCHILIK TA'LIMOTINI O'RGANAMIZ

1. Turkistonda jadidchilik harakatining rivojlanishiga qanday voqealar kuchli ta'sir etdi?

2. Namanganlik qaysi ma'rifatparvar pedagog usuli savtiya maktabini ochdi?

3. Qaysi ma'rifatparvar birinchilardan bo'lib Toshkentda usuli jadid — yangi usul maktabini ochdi?

4. 1907-yilda yaratilgan «Adibi avval» va «Adibi soniy» o'qish kitoblarining muallifi kim?

5. 1909-yilda «Jamiyati hayrid» tashkiloti kim tomonidan va nima maqsadda tashkil etildi.

6. 1904-yil Mirobodda usuli jadid maktabini ochgan ma'rifatparvar pedagog olim kim?

7. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan usuli savtiya maktablarida qanday masalalarga alohida e'tibor berilgan?

8. Turkiston jadidlarining harakat dasturida qanday asosiy masalalar bayon qilingan?

42-topshiriq. TARBIYA JARAYONI — AJDODLARIMIZ MEROSI

1. Tarbiya berish usuli Forobiyning fikricha qanday turlarga bo'linadi?

2. Jomiy o'zining qaysi asarida tarbiya masalalariga to'xtalib o'tgan?

3. Qaysi mutafakkir olimning fikricha, tarbiyaning maqsadi — yosh avlodni xalqparvar, bilimli va yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib etishtirishdir?

4. Sa'diy o'z pedagogik qarashlarida tarbiyani uch asosiy turini aytadi, ular qaysilar?

5. Qaysi mutafakkir fikricha, tarbiya tabiatga uyg'un bo'lishi, tarbiyada bolaning shaxsiy xususiyatlari hisobga olinishi lozim?

6. Russo bolaning yoshlik xususiyatini hisobga olgan holda, tarbiyani nechta davrga bo'ladi va ular qaysilar?

7. Tarbiyaning xalqchilligi haqidagi g'oya kimning pedagogik nazariyasidagi eng asosiy g'oyadir?

8. Tarbiyaning maqsadi bolalarga «haqiqiy insoniylik»ni namoyon ettirishdan iboratligini kim aytadi?

43-topshiriq. A.AVLONIYNING «TURKIY GULUSTON YOXUD AXLOQ» ASARINI O'RGANAMIZ

1. A.Avloniyning «Turkiy guluston yoxud axloq» asari qachon yaratilgan va u dastlab qanday maqsadda foydalanilgan?

2. A.Avloniyning axloqiy, ta'limiy va tarbiyaviy asari qaysi?

3. A.Avloniyning qaysi kitobi ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qiladi.

4. A.Avloniy ilm to'g'risida qanday fikrlarni bildiradi?

5. A.Avloniy «Turkiy guluston yoxud axloq» asarida qanday masalalar xususida gapiradi?

6. A.Avloniyning qaysi asarida xalq manfaati ustun turadi?

7. «Turkiy guluston yoxud axloq» asarini birinchi sahifasidan so'nggi sahifasigacha Avloniyning qanday g'oyalari ifodalangan?

8. A.Avloniyning «Turkiy guluston yoxud axloq» asari ichidagi mavzu jihatdan qaysi asarlar (o'tmish) qatoriga kiradi.

44-topshiriq. YAN AMOS KOMENSKIYNING «BUYUK DIDAKTIKA» ASARINI O'RGANAMIZ

1. Gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiyning hayoti va ijodini o'rganing. Eng namunali tomonlarini daftaringizga qayd eting.

2. Nima uchun Komenskiyning «Buyuk Didaktika»si mumtoz asar hisoblanadi? Fikringizni misollar bilan ifodalang.

3. Asardagi asosiy fikrlardan biri «tarbiya bilan o'qitishning tabiatga uyg'un bo'lishi» g'oyasi edi. Bu g'oyaga qanday qaraysiz? Bu g'oya asarning qaysi boblarida aks etgan?

4. «Buyuk Didaktika»da qaysi davrni «Ona maktabi» deb atadi va insonning o'sish yillarini qaysi boblarida davrlarga bo'ladi? Pedagogika va psixologiya fanlaridagi yosh davrlar bilan taqqoslang.

5. Asarda Komenskiy Akademiya, ya'ni oliy maktablar haqida qanday fakultetlar bo'lishiga e'tibor qildi?

6. Komenskiyning fikricha o'qitish 4 ta talabga javob berishi kerak:

a) samaradorlik; b) asoslilik; d) osonlik; e) qisqalik. Bunday talab nima uchun kerak bo'ldi?

7. Asarda Komenskiy nima uchun sxolastik maktablarni qattiq tanqid qildi, bunga qarshi chiqadi. (XVIII bob, 16-b.)

8. Didaktik prinsiplar deb qaysi prinsiplar tan olindi va uning zaruriyati nimada edi?

9. «Buyuk Didaktika» asarining ahamiyati va bugungi kunda tutgan o'rni haqida suhbat uyushtiring.

II BO'LIM. PEDAGOGIK MASALALAR

Ishga yarab qolsa ilming bir muddat,
Yana oshirmoqqa aylagil shiddat.
MIRZO ULUG'BEK

TA'LIM NAZARIYASI BO'LIMIGA OID PEDAGOGIK MASALALAR

1-masala.

6-sinfda adabiyot darsi ketyapti. Doskada Komil Isayev javob bermoqda. Uni barcha bolalar diqqat bilan tinglashmoqda. Javob beruvchi tutilib yoki bir oz adashib qoldi deguncha darrov barcha qo'llar yuqoriga ko'tariladi. Juda betoqatlari esa hatto ikkala qo'lini ham havoga silkitib ko'targani-ko'targan, ular o'z o'rtoqlarining javobini diqqat bilan tinglashayotganliklarini va uning xatosini darhol tuzatishga tayyor ekanliklarini o'qituvchilarining ko'rishini juda-juda istashadi. Komil tez-tez xatolikka yo'l qo'ya boshladi, sarosimaga tushib, gapidan adashib ketaveradi.

Bolalar o'rtog'ining javobini to'ldirishga, to'g'rirog'i, unga xalaqit berishlariga o'qituvchi dastlab qarshilik ko'rsatmadi, ammo oxirida chidab tura olmadi va bolalarning eng betoqatlariga javobni tuzatish va to'ldirish uchun ruxsat berdi. Komil endi o'z javobi bilan emas, ko'proq sinfdagi vaziyat bilan band bo'lib qolgandi. U tez-tez adashib, so'zlarni ham cho'za boshladi va tezda xafsalasi pir bo'lib, tamoman jimib qoladi.

— Xo'sh, azizim, javobni qanday yaxshi boshlagan eding, nega qo'qqisdan jimib qolding? Bolalar senga qanday yaxshi yordam berishdi. Yana darsni oxirigacha o'qimabsanda?!

Biologiya darsi. Iroda Kamolova javob beryapti. Sinfda jimjitlik. Bu qanaqa sokinlik? Irodaning javobini o'rtoqlari tinglashyaptimi (ayrimlari tinglashyapti, qolganlari-chi?) Keling, yaxshisi sinf bolalarini bir kuzatib ko'raylik.

Mana uchta o'quvchi, ular o'qituvchining navbatdagi savolini payqab, darslikni varaqlashyapti. Bir nechtalari

nigohlarini derazaga qadashgan — chehralarida chuqur o'ychanlik va orzular og'ushiga cho'kishgan. Boshqalari tarix kitobini sekingina ochib, bundan keyingi darsga tayyorlana boshlashdi. Ikki qiz dars mazmunidan juda uzoq bo'lgan narsa, qandaydir buyumlar haqida «ko'z urushtirib gaplashmoqda». Xullas, sinfdagilarning aytarlik yarmidan ko'pi o'zlari partada o'tirishgan bo'lishsa ham, xayollari allaqaerlarda sayr qilib yuribdi.

Iroda xatoga yo'l qo'ydi, ammo uni tuzatuvchi bironta ham talabgor sinfda yo'q. Balki e'tirozlar keyinroq bo'lar? Yo'q. Sinfda hech bir o'quvchi javob haqida fikr bildirishga oshiqmadi.

1. Birinchi va ikkinchi hodisadagi kabi doskaga chiqarib, og'zaki so'rashning samarasini baholang. Bu vaziyatlar o'rtasida biron-bir umumiylik bormi? Bunda o'quvchilar xulqidagi qanday xususiyatlarni payqash mumkin? Ular nimalar tufayli paydo bo'lishi mumkin?

2. O'qituvchi birinchi va ikkinchi hodisada doskaga chiqarib individual so'rashni uyushtira turib, o'z oldiga ongli holda qanday ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni qo'yadi?

3. O'quvchi tomonidan oldindan inobatga olinmagan qanday masalalarni o'qituvchi ifodalashi kerak? Ularni bu darslarda hal etish mumkinmi?

4. O'quvchilardan og'zaki so'rashning samaradorligini oshirish va yuqoridagi kabi vaziyatlarning oldini olish uchun biologiya o'qituvchisi qanday pedagogik usullardan foydalanishi kerak?

2-masala.

Pedagogika Universiteti Adabiyot fakulteti 4-kurs talabasi Nigora Aliyeva amaliyot jarayonida. 5-«b» sinf o'quvchilariga «Ona tili»dan dars o'tmoqchi edi. 2-chorak yaqinlashgan, bolalarni charchaganligi sezilib turardi. Birdan tashqarida sharros jala quyib yubordi. Shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir bolalar diqqatini o'ziga tortdi.

— Yomg'ir, yomg'ir, — deb shodlanib, sakray boshladilar bolalar.

Nigora bunga javoban, derazani ochishni buyurdi, tashqaridan kirgan yoqimli havo dimoqqa urilib, barchani bahri-dilini yana ham ochib yubordi.

— Ko'rayapman, — dedi Nigora kulib, — barchangizning kayfiyatingiz choq. Kelinglar, mana shu tasodifiy shodlikni qo'ldan bermaymiz, buning uchun biz «Shodlik yomg'iri» mavzusida insho yozamiz. Mavzu nomini o'zgartirishingiz mumkin.

— Men uning sarlavhasini «Yomg'ir nima haqida shivirlaydi?» deb qo'ysam maylimi? — so'radi o'quvchilardan biri.

— Mayli... Hozir hammasi mumkin. Siz hozirgi hodisa haqida qanday o'ylasangiz, uni qanday tasavvur qilib, his etsangiz, xuddi o'shanday yozing.

1. Dars rejasidan bunday chetga chiqishni siz qanday baholaysiz?

2. Sizningcha, o'qituvchi amaliyotchining yutug'imi? Yoki...

3. Sizning fikringizcha, fan o'qituvchisi bunday vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lardi?

4. Sizning o'zingiz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?

3-masala.

Adabiyot darsida o'quvchilar adabiy chizgining yaratilishi ustida ishlashardi. O'qituvchi o'quvchilarning har biriga ularning o'zlariga yaqindan tanish bo'lgan kishilarning tashqi qiyofasini tasvirlashni tavsiya qildi. Barcha bolalar yozishdi. O'qituvchi kim yozib bo'lgan bo'lsa, o'qita boshladi. Shu payt bir o'jar bola ruxsat so'rab o'z yozganlarini o'qiy boshladi. O'qituvchi esa sekingina «oh» deb yubordi: o'quvchi tasvirida uning ko'rimsiz tashqi qiyofasidagi alomatlar shunchalik mohirlik bilan qamrab olingan ediki, u gap kim to'g'risida ketayotganiligini darhol payqadi. Ha, u o'zini tanidi! Baqirib yuborgisi, bu yaramas bolani jim bo'lishga majbur qilgisi, sinfdan qochib chiqib ketgisi keldi.

1. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'zini qanday tutsa pedagogik maqsadga muvofiq bo'ladi?

2. O'quvchining xulq-atvori, axloqi, uning tutayotgan yo'lini baholang.

3. Bu vaziyatni yuzaga keltirish bilan u qanday muammoni hal etayapti?

4. O'quvchining qaysi jihatlari o'ziga xoslikni belgilaydi?

5. Bunga o'xshash hodisa-voqealar har doim sodir bo'lib turadimi?

6. Ularning sodir bo'lishiga nima sabab bo'lishi mumkin?

4-masala.

O'qituvchi yozma ishni tahlil qila turib, baholarni izohlay boshladi:

— Farhod, senga yaxshi. Sening ishing har doimgidek. Ammo birgina xatoga yo'l qo'yibsan, afsus. Bilaman, bu albatta tasodifiy xato, lekin baribir xatoda.

— Hasanboy, senga ham «yaxshi» baho. Tabriklayman, barakalla, endi bu yog'ini bo'shashtirma!

— Jalil, bu safar senda xatolar kam. Avvalgi ishlaringga qaraganda ancha yaxshi. Buni sezilarli o'zgarish desa bo'ladi. Yana harakat qilsang o'rtoqlaringga yetib olasan, «qoniqarli».

1. O'qituvchining baholash mushohadasini tahlil qiling.

2. O'qituvchi qoniqarsiz baho olgan o'quvchining nomiga o'zining ijobiy baholash mushohadasini qaratish bilan qanday vazifani yechishga urinyapti?

3. O'qituvchining turli baho olgan o'quvchilar nomiga bildirgan baholash mushohadasi variantlaridan misollar keltiring (ijobiy, salbiy, neytral).

a) Har vaqtdagiga nisbatan yuqori;

b) Doimgidan past;

d) Odatdagidek.

4. Baholarni sharhlab e'lon qilish va o'quvchilar bilimi haqida fikr yuritishdan pedagogning maqsadi nima edi?

5-masala.

Darsga kechikib kelgan o'quvchilarning bahonalarini tinglang.

— Soatimiz to'xtab qolibdi, uxlab qolibmiz.

— Ukamni kitobi qolib ketibdi, yo'ldan qaytib borib, olib kelgunimcha dars boshlanib qolibdi.

— Bugun jismoniy tarbiya darsi bor edi, oyim ertalab keta olib berdilar, yetib kelgunimcha qo'ng'iroq chalinibdi.

— Erta turib, dars tayyorlab o'tiraveribman, vaqtni o'tganini bilmay qolibman, shuning uchun kech qoldim.

— Men sinfga erta kelgan edim, sinf jamg'armasi menda edi, qaytib borib olib kelyapman.

1. Har bir javobni tahlil qiling.

2. Darsning boshida kechikkanlarning har biriga qanday e'tibor berasiz?

3. Kechikib qolganlarning har qaysinisiga darsning oxirida nima chora ko'rasiz?

4. Bolalarning shunga o'xshash bahonalar bilan keyingi safar ham kechikib kelishining oldini qanday olish mumkin?

5. Bu voqealarni ota-onalar yig'ilishida muhokama qilish mumkinmi? Qanday qilib?

6-masala.

O'qituvchining har xil uslublari bilan tanishing.

a) Pedagog «Milliy istiqlol g'oyasi» darsi uchun bir necha test variantlari kerakligini, ammo imkoniyati ham, vaqti ham yetishmasligini bolalarga quyidagicha tushuntiradi:

— «Bolalar, sizlardan iltimos, fanimiz bo'yicha xuddi mana bunga o'xshash, bundan-da qiziqarliroq qilib test variantlari ishlasalaring. Men bo'lsam ularni dars paytida o'zlaringizga beraman». O'quvchilar tomonidan darsga muvofiq tuzilgan test variantlari foydalaniladi.

Pedagog test tuzgan o'quvchi nomini sinfga e'lon qiladi va mehnati uchun minnatdorchilik izhor etadi.

b) Shu fandan o'quvchilarga mustaqil ish uchun mavzu tanlash taklif qilinadi. Tavsiya etilayotgan mavzuni doskaga yozib qo'yadi va butun sinf uning ichidan uch-to'rtta mavzuni tanlashadi va shu mavzularda mustaqil ish tayyorlaydilar.

d) O'qituvchi shu fan bo'yicha «Vatan» mavzusida insho yozishni taklif qiladi. O'qituvchi sinfni aylanib chiqadi. Vaziyat e'tiborga olingan, stol ustida Vatan haqidagi bir qancha mavzular bor. Xohlasangiz foydalanishingiz mumkin, deb taklif qiladi.

1. Qo'llanilgan uslublar bilan o'quv ishi orasida qanday umumiylik mavjud? Qanday farqlanadi?

2. O'qituvchi o'z ishida bu uslublarni qo'llayotganida qanday ta'limiy va tarbiyaviy masalani hal qiladi?

3. Siz ish jarayoningizda uslublardan qanday foydalangan bo'lar edingiz?

7-masala.

5-sinf rahbar— o'qituvchisi guruhga kirdi va bugun 3 nafar o'quvchining tug'ilgan kuni ekanligini aytib, tabrikladi. Bolalar ham samimiy tilaklarini aytib, ketma-ket tabriklashdi. Qarsaklar chalindi, qo'shiq, she'rlar aytildi. Sinfdoshlari kitob va gul sovg'alarini tantanali topshirishdi. 15 daqiqa dars vaqti chegirildi. Biroq, dars juda qiziqarli va quvnoq kayfiyatda yakunlandi.

1. Sinf rahbari to'g'ri ish qildimi?

2. Bu usulni qo'llash tarbiyaviy ahamiyatga egami? Nima uchun?

3. Tug'ilgan kunlarni nishonlashni an'anaga aylantirish kerakmi?

4. Bu tadbirning ahamiyatini o'ylab ko'ring?

8-masala.

4-kurs amaliyotchi-talaba «Zoologiya» fanidan dars o'tayapti. Mavzu: «Suvda ham, quruqlikda ham yashovchi hayvonlar sinfi. Baqaning tashqi tuzilishi». Darsda rasm, chizmalardan foydalanilyapti, negadir bu narsalar bolalar diqqatini o'ziga jalb qila olmayapti. Baqaning tashqi tuzilishi haqidagi so'zlar bolalarni hech ham qiziqtirmayotgandek edi. Talaba mavzu yuzasidan bir qiziq voqeani ayta boshlagan edi hamki, hamma jon qulog'i bilan tinglay boshladi.

«Rus olimi I.V.Michurin bir baqani o'ziga o'rgatib olib, uni ehtiyot qilib boqa boshlabdi, o'zi ham unga juda o'rganib qolibdi, kunlardan bir kuni Michurinning eng yaqin do'sti mehmonga kelibdi. Baqani mehmon tayoq bilan urib o'ldirib qo'yibdi. Michurin xafa bo'lib qolibdi va bir oy do'sti bilan gaplashmay yurgan ekan». Bu voqeani sinf xayratlanib tingladi, endi barcha bolalar talaba-amaliyotchining so'zlarini zo'r qiziqish bilan tinglashni davom ettirdilar.

1. Vaziyatni tahlil qiling. Bu holatdan yosh o'qituvchilar qanday xulosa chiqarishlari kerak?

2. Sizningcha bu qo'shimcha axborotdagi bayonning o'rni qaerda?

3. Axborotning o'rni o'zgarsa, tarbiyaviy-ta'limiy vazifalar ahamiyati qanday bo'ladi?

9-masala.

O'qituvchining o'quvchilarga aytgan bir necha murojaati bilan tanishing:

— Juda ham qiziqarli savol, lekin men bu savol javobini bilmayman. Chunki unga javob berish uchun bir necha kitoblarni ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Balki sizlar ham qomusdan va boshqa kitoblardan qarab javob toparsiz. Kelinglar ertaga darsda bilganlarimiz haqida bir-birimiz bilan o'rtoqlashamiz;

— Bolalar, Sevara menga yaqinda g'alati bir savol berdi. Men esa unga javob qaytara olmadim. Men anchagina kitoblarni qarab chiqdim, bir mutaxassisdan so'radim va juda ajoyib ma'lumotga ega bo'ldim. Hozir bir necha daqiqa Sevara bilan shu masalada gaplashamiz. Bizning muammomiz balki sizlar uchun ham qiziqarlidir;

— Bolalar, bugun hammangizni xursand qilmoqchiman: buni qarangki, hammangiz hayrixohlik ko'rsatayotgan o'rtog'ingiz kattagina imkoniyatga ega ekan. U masalani qanday ajoyib qilib yechdi?! Kelinglar uni tabriklaymiz, yana kattaroq muvaffaqiyatlar kutayotganligini bildirib qo'yaylik;

— Bugun men sizlarga uy vazifasi bermayman. Ammo kim istasa, qo'shimcha tarzda vazifa bajarib kelsin, ertaga darsda bizga uni aytib bersin.

1. O'qituvchi qaysi yoshdagi o'quvchilar bilan ishlayapti?

2. Javoblar nimaga asos bo'la oladi?

3. O'qituvchi aytayotgan fikrining har biridagi maqsadga muvofiqlikni siz nimalarda ko'rasiz?

4. Pedagogik jihatdan to'g'ri yondoshilganmi?

5. O'z fikrini shunga o'xshash bayon qilish xarakteridagi o'qituvchida, sizningcha, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida qanday o'zaro munosabat uslubi (avtoritar, liberal, demokratik) yuzaga keladi?

10-masala.

Namangandagi maktablarning birida o'qituvchi bir uslubda tajriba o'tkazdi. Boshlang'ich sinflardan 3—4-sinf o'quvchilari, o'rta ta'lim sinflaridan 6—7-sinf o'quvchilarining uy vazifasi va sinfda bajaradigan o'qituvchi topshiriqlarini, avval o'zlari (ball) baholashlari kerak edi.

O'qituvchi tekshirib baho qo'ygandan keyin uning bahosi (balli) bilan o'quvchining o'ziga qo'ygan bahosi o'rtasidagi farq taqqoslanardi. Bolalar nimaga asoslanib o'zlariga bunday baho (ball) qo'yganliklarini va qaysi ko'rsatgichlarga muvofiq o'qituvchi ishni baholaganligining mohiyati aniqlanardi.

Har bir sinfda anchagina foiz bolaning o'ziga-o'zi qo'ygan bahosi (balli) o'qituvchining qo'ygan bahosiga mos kelmasligi aniqlanadi. Bunday bolalar 3-sinfda 60 foiz, 4-sinfda 34 foiz, 6—7-sinflarda 28 foizga yaqin bo'lib chiqdi. Bu bolalarning o'ziga-o'zi qo'ygan bahosi o'qituvchi qo'ygan bahodan yuqori bo'lardi.

Biroq o'quvchilarning o'z faoliyati natijasini baholash shunga olib keldiki, o'rtadagi farqning soni oydan-oyga kamaya bordi. O'quv yilining oxiriga kelib, o'z ishini noto'g'ri baholovchilarning soni 3-sinfda 18 foiz, 4-sinfda 14 foiz, 6—7-sinflarda esa 6—8 foiz bo'ldi.

1. O'qituvchining bahosi bilan o'quvchining o'ziga-o'zi qo'ygan bahosi o'rtasidagi farq nima uchun boshlang'ich sinflarda katta foiz bo'lib chiqdi?

2. Qo'yilgan baho va o'ziga-o'zi qo'ygan bahoning birbiriga muvofiq kelishiga qat'iy turib harakat qilish kerakmi?

3. Qo'yilgan baho bilan o'z-o'ziga baho qo'yish o'rtasidagi tafovut o'qituvchiga ko'proq qaysi sinfda tashvish keltirdi? 3—4-sinfdami yoki 6—7-sinflardami? Nega?

4. Bu uslubdan pedagog foydalanishi mumkinmi? Qaysi sinflarda qo'llash maqsadga muvofiq?

11-masala.

Matematika darsida o'quvchilarga yozma ish variantlari tarqatildi.

O'qituvchi sinf aylanib quyidagicha iuqmalar bilan o'quvchilarga murojaat qilyapti.

— Kimda-kim birinchi bo'lib 10—15 daqiqa ichida hamma misollarni to'g'ri yechsa, «a'lo» baho bo'ladi va eng yuqori ballni qo'yaman.

— Javohir 3-misolni yana bir fikringni jamlab tekshirib chiqishing kerak.

— Zarnigorga bugun qoyil qolsak bo'ladi, u juda yaxshi va tez ishlayapti.

— Ilyos, sen hammasini yechib bo'ldingmi? Nodiraga ber, tekshirib bersin, bo'lmasa past ball olishing tayin, gapim to'g'rimi?

— Elyor Asqarov bugun uyga berilgan vazifani ham tayyorlab kelibdi, hozir misolni ham to'g'ri yechayapti, barakalla!

— Dilfuza Sobirova hamma misollarni birinchi bo'lib ham to'g'ri, ham tartib bilan ishladi. Men unga eng yuqori ballni qo'yaman.

— Bolalar, yozma ish uchun ajratilgan vaqt tugadi, tezroq tamomlanglar. Hozir javoblarni tekshiramiz. Dilshoda, birinchi javobni o'qi.

— Kimda shunday javob chiqqan? To'g'ri, kim adashibdi? Xato ishlangan misollarni belgilab chiqinglar, ularni qaytadan hisoblab chiqish kerak bo'ladi.

1. O'qituvchining har qaysi mulohazasiga baho bering, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, baholovchi fikrlarni toping.

2. O'qituvchining xuddi shu mulohazalaridan 8-sinfda foydalanish mumkinmi?

3. Pedagogik jihatdan qanday izohlaysiz? To'g'rimi? Yoki...

12-masala.

O'qituvchilarning quyida sanab o'tilgan turli darslardagi fikrlari bilan tanishing:

— Ma'rifat, sen masala yechayapsanmi yoki vaqtni cho'zayapsanmi? Sening yechib bo'lishingni kutib hamma charchab ketdi-ku, axir. Iltimos, bir oz tezlatgin.

— Faqat uch. Men o'ylaymanki, agar daftaringdagi yo-

zuvlar tartibli qilib yozilganda edi, u holda bolalar senga ko'rsatishgan noaniqliklarga yo'l qo'ymagan bo'larding.

— Vasilaning soda formulasini bilmasligi meni juda tashvishlantirib qo'ydi. Bu ahvolda boshqa reaktivlar orasidan uni qanday topar ekan? Chunki kislotani neytrallash uchun bizga xuddi ana shu soda kerak-ku, axir. Demak, endi u bizga sodaning reaksiyasini ham ko'rsata olmaydi, uning tenglamasini ham yozib bera olmaydi. Vasila, ko'ryapsanmi, sening javobingda qancha kamchiliklar bor. Lekin yuzaki qaraganda, go'yo bitta sodaninggina formulasini bilmayapsan. O'tir.

— Sen xatoga yo'l qo'yyapsan. O'zing tuzata olasanmi?

— Menimcha, mana bu yerda senda nimadir chiqmayapti, o'zing nima deb o'ylaysan?

— Xo'sh, bolalar, nima qildik? Unga o'ylab ko'rish uchun yana imkoniyat beramizmi yoki masaladan ozod qilasizmi? Akmal, biz bunga o'xshash masalalarning hammasini allaqachon yaxshi yechadigan bo'lib qolganmizku, axir. Yalqovlik senga nisbatan kuchli ekanligiga ko'nib qo'ya qolishga nahotki rozi bo'lsang? Balki, har holda sen uni yengarsan va keyingi darsda bizlarga yetib olarsan? Ishonsa bo'ladimi? Unda o'tir.

— Afsuski, bolalar, Nodir sizlarning yordamlaringiz bilan ham yechishni eplay olmayapti. Nodir, o'tir. Qoidani o'qish kerak.

— Sanjar javobidagi barcha yaxshi sifatlar va kamchiliklarni jamlab turib, men har holda unga besh qo'yishga moyillik bildirdim. Sanjar, mening «har holda» deganim seni xafa qilmaydimi?

— Abdullayevni eshitish uchun, albatta, zo'r sabr-toqat kerak. U har ikki so'z uchun bir daqiqadan vaqt sarflab, axborotni bizlarga yetkazadi. Ammo meni ham tushunish kerak-da: men unga choraklik baho chiqarishim lozim, uning esa u yoki bu darajadagi biron-bir aniqroq javobini eshitmayapman. Shunday bo'lgach, sabr qilishlaringizni so'rayman. Abdullayev, qani davom et.

— Bobirova, o'tir. Javobing uchun «ikki». G'aniyevaga

ham do'stona hamkorligi va ishdagi ko'rsatgan «yordami» uchun o'shanday baho. Bundan tashqari darsni tinchgina o'tirib tinglashligi uchun kundalik daftariga tanbeh yoziladi.

1. Har bir mulohazani qarab chiqib, o'qituvchi ulardan foydalanish bilan qanday ta'limiy va tarbiyaviy masalani yechyapti?

2. Hamma mulohazalar ichidan ayniqsa muvaffaqiyatli chiqqanini va aniq muvaffaqiyatsiz chiqqanlarini ajratib oling. Javoblarni asoslang.

13-masala.

Darsning bir qismi bilan tanishing.

— Qani, Sohibga qanday baho qo'yamiz? Nodir, sening fikring.

— Unga «to'rt» qo'ysa bo'ladi.

— Nima uchun? Uning javobida qanday yaxshi tomonlar va qanday kamchiliklar bor? Nimaga asosan sen unga «to'rt» qo'yish kerak deb hisoblaysan?

— U masalani to'g'ri yechdi, ammo qo'shimcha savolga javob bermadi.

— Bu jiddiy kamchilikmi yoki uni kechirsa bo'ladimi?

— Eruvchanlikning nima ekanligini bilish kerak, albatta.

— Odil, javobga sening qanday e'tirozing bor?

— Sohib masalani birdan yechmadi. U tutilib qoldi va tashqaridan yordam kutdi, chunki proporsiya tuza olmadi.

— Sen Sohibga necha baho qo'yishni tavsiya qilasan?

— Bugun unga «uch» baho qo'ysa bo'ladi, deb o'ylayman.

— Ha, unga «uch» baho qo'yamiz. Shuni ta'kidlaymizki, kimyodan bilimlar sifati ko'p jihatdan matematik malakalarga bog'liq. Har ikki fanni sinchkovlik bilan o'rganish kerak.

1. O'qituvchi qo'yiladigan bahoning munozarasiga o'quvchilarni jalb qilish bilan qanday tarbiyaviy, didaktik masalani o'rtaga tashlayapti. O'qituvchi nima uchun bu usulni qo'llab, ongli holda ortiqcha vaqt sarf qilyapti?

2. Bu usulni qaysi sinfdan boshlab doimiy tarzda qo'llashni tavsiya qilar edingiz? Nima sababdan?

14-masala.

Toshkent shahar maktablaridan birida matematika

o'qituvchisi masalalarni uyga tarqatib beradi. Bu shuni anglatadiki, uyga ikki-uchta, ba'zan to'rtta masala beriladi, o'quvchi esa uning ichidan xohlaganini tanlab oladi. To'g'ri, bunda tekshirish qiyin, lekin qiziqarli. O'sha o'qituvchi ba'zan uyga matematik insho topshiradi — o'quvchilarga aniq turdagi va muayyan yechimga ega bo'lgan yoki 10 daqiqaga mo'ljallangan, istalgan masala o'ylab topish vazifasi beriladi. Mustaqil tuzilgan masalalar yuzasidan vaqti-vaqti bilan tanlov uyushtiriladi: bunda kimning masalasi eng qiyin, eng aniq, eng oqilona tuzilganiga qaraladi.

1. O'qituvchi o'z ishidagi bunday usullar turkumini qanday maqsadni ko'zlab ishlab chiqadi?

2. O'sha ish usullarini o'z ish tajribangizga muvaffaqiyatli qo'llash lozim bo'lgan qator shartlarni ifodalang.

15-masala.

Bir gazeta redaksiyasiga 6-sinf o'quvchisining onasidan xat kelibdi:

«Hurmatli tahririyat!

Mening o'g'lim to'g'ri yo'l tutgan-tutmaganligini tushunib olishida menga yordam beringlar. O'g'lim 6-sinfda o'qiydi. Yaqinda u maktabdan kelib geografiya darsida sodir bo'lgan bir hodisani gapirib berdi. O'qituvchi bir qizchani doskaga chiqaribdi va Yevropa daryolarining nomini doskaga yozishni undan so'rabdi. Qizcha barcha nomlarni xaritadan qarab-qarab ko'chirib yozibdi. O'qituvchi uni sezmabdi va:

— Juda yaxshi! Senga «besh» qo'yaman! — debdi.

Shunda mening o'g'lim joyidan turib, qizcha nomlarning hammasini xaritadan ko'chirib yozganligini aytibdi. O'qituvchi qizchadan:

— Shu to'g'rimi? — deb so'rabdi.

U hech narsa demasdan boshini xam qilgancha jim turaveribdi. O'qituvchi uni aldaganligini tushunibdi va «besh» o'rniga «ikki» qo'yibdi.

O'g'limning bu gaplarini tinglab turdim, lekin uning bu ishda haq yoki nohaq ekanligi haqida nimagadir hech narsa demadim. Lekin har vaqt o'ylayman: u boshqacha yo'l tuta olarmidi yoki boshqacha yo'l tutish kerakmidi?

Buni anglab olishda menga yordam bersalaring».

1. Agar shu maktubga asosli javob yozish sizga topshirilsa, nima deb javob yozgan bo'lardingiz.

2. O'qituvchining o'rnida siz qanday ish tutgan bo'lardingiz?

3. Shunga o'xshash voqeadan xabardor bo'lgan sinf rahbari o'rnida nima qilardingiz?

4. Javoblarning xarakteri o'quvchi yoshiga bog'liqmi? Masalan, onaning savoliga 4 va 7-sinf o'quvchisi ko'rsatadigan reaksiya bir xil bo'lishi mumkinmi?

16-masala.

6-sinf ota-onalar majlisida o'qituvchi har qaysi ota-onani o'z farzandi o'tiradigan partaga o'tirishga taklif qildi. U har qaysi ota-onaning oldiga o'z bolasining daftari va buklangan qog'ozni partaga qo'yib chiqadi. Buklangan qog'ozda faqatgina ota-onaga tegishli yozuv bor edi. Masalan:

«Dilnozada ancha o'zgarishlar bor, yaxshi o'qiyapi, biroq matematikadan biroz qiynalayapti. Shu fandan qo'shimcha darsga borsin. Iltimos, dushanba kuni soat 13^{00}da kelsangiz matematika fani o'qituvchisi bilan maslahatlashib olasiz».

«Mohira parishonxotir, hamma narsaga e'tiborsiz, fanlarni o'zlashtirishga harakat qilyapti. Suhbatlashish uchun qolishingizni so'rayman».

«Sevara juda harakatchan, lekin so'zlab berishda qiynaladi. Fikrlashiga, nutqiga e'tibor berish kerak».

«Anvarning o'qishlari pasayib ketdi, musiqaga qiziqadi, qizlarga qarab faqat qo'shiq aytadi. Iste'dodi haqida o'ylab ko'rish kerak».

1. Bu kabi yozuvlarga qanday qaraysiz?

2. O'qituvchi bu usulni nima maqsadda ishlatdi?

3. Bu usulni siz ham pedagogik faoliyatingizda qo'llarmidingiz?

17-masala.

O'qituvchi o'quvchilarga ingliz tili darsidan «men oyimga qanday yordam berdim» mavzusida uyda matn tuzib kelishni vazifa qilib berdi. Bu matnni Dildora va Nodira

birga bajarishga qaror qilishdi. Dildoralarnikida vazifani bajarib bo'lgan edilar hamki, ko'chadan tanish ovoz eshitildi. Derazadan qaramoqchi bo'lgan Nodira gultuvakni tushirib yubordi.

— Oyimning eng yaxshi ko'rgan gullari edi, — deb yubordi Dildora.

Ko'chada sinfdoshlari Fazliddin chaqirayotgan edi. Ikkala qizni suratga oldi. Ishdan kelgan ona derazadagi gulning yo'qligini payqadi va so'radi.

«Behosdan deraza ochilib, tushib ketdi», — degan javobini oldi. Dam olish kuni suratlarni tomosha qilib o'tirgan ona birdan Dildorani o'rtog'i bilan hovlilari yonida tushgan suratini ko'rib qoldi.

— Dildora, dugonang biznikiga kelganmidi?

— Ha, oyijon gultuvakni u sindirmadi, o'zi behosdan tushib ketdi, — dedi.

1. Bu voqeani o'qiyotganda axloqiy tarbiya haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?

2. Dildora to'g'ri yo'l tutdimi? Yoki...

3. Bu o'rinda qanday pedagogik xatodan ehtiyot bo'lish kerak?

4. Sizningcha, bu voqea qaysi yoshdagi o'quvchilar davriga mos?

18-masala.

Sinf rahbarining 5-sinf o'quvchisi Imomov Nozimga berilgan tavsifnomasidan keltirilgan parchalar bilan tanishing.

Nozimning xarakteri og'ir, u juda ayyor bola, dars jarayonida faol emas, ammo vazifani to'liq bajarib keladi. Darsda ko'pincha har xil qitmirliklar, bemaza qiliqlarni o'ylab chiqaradi, siri fosh bo'lib qolsa, aybni o'rtoqlariga ag'darishga urinadi, qo'ldan kelgancha sinfdagilarning munosabatlarini buzadi, janjal chiqaradi. Hamisha xushchaqchaq, shang'i. O'zidan kattalar va o'rtoqlari bilan qo'pol muomala qiladi. Agar biror bola mashg'ulotni bajarayotganida xatolikka yo'l qo'ygudek bo'lsa, ustidan masxaralab kuladi, sevinib ketadi. O'jar, o'z manfaatini ko'zlovchi, injiq, badjahl va qasoskor. Ruhi tetik. Jazodan so'ng yoki jazo

berilayotganda yig'laydi, gap qaytaradi. Ko'chada kattalarni orqasidan masxaralab kuladi.

1. Bolaning xulq-atvori haqidagi qanday ma'lumotlar tavsifnomada ustunlik qiladi?

2. Sinf rahbar, o'qituvchilar va ota-onalar bola xulqidagi qaysi salbiy tomonlarga diqqat-e'tibor berishlari kerak?

3. O'qituvchi pedagogik jihatdan Nozimning xarakteridagi qanday ijobiy tomonlariga suyansa bo'ladi?

4. Bolaning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari, o'rtoqlari sinf rahbariga, qanday yordam berishlari kerak.

19-masala.

— Bugun nimaga maktabda qolib ketding? Tezroq kelib uy ishlariga qarashsang bo'lmaydimi?

— Men erta kelar edim. Bizlarga javob berishmadi.

— Nimaga javob berishmaydi, biron ish qilib qo'ydilaringmi?

— Biz hech narsa qilib qo'yganimiz yo'q, sinf rahbarimiz Anvar Sattorov ruxsat bermadi. Majburlab xorga qatnashtirdi.

— Zo'r-ku. Qachondan boshlab ashula aytishga yozilgansan?

— Men yozilgan emasman, bizlarni zo'rlab zalga haydashdi.

— Bu nima deganing?

— Voy, oyi, qanaqa odamsiz o'zi, gapga tushunmaysizmi?

— Xo'sh, buni nimasi yomon?

— Men qo'shiq aytishni yoqtirmayman.

1. Bu ona-bola so'zlashuvi bola psixologiyasida qanday o'ziga xoslikni ko'rsatadi?

2. Bu o'ziga xoslikni ona va maktab pedagoglari qanday hisobga olishadi?

3. Bolalarning badiiy havaskorlikka bunday tarzda ishtirok etishlaridan biron-bir foyda chiqadimi?

4. Bolalarni xorga, raqs to'garagiga, badiiy so'z ustasi studiyasiga jalb etishda majburlash metodini qo'llash mumkinmi? Javobni asoslang.

20-masala.

Sinf rahbari 5-sinf o'quvchilarining ota-onalari bilan quyidagi mazmunda anketa to'ldirishlarini taklif qildi:

1. Siz farzandingizni to'g'ri tarbiyalayapman deb hisoblaysizmi?

2. Uni to'g'ri tarbiyalash uchun sizga nimalar xalaqit beradi?

3. Farzandingizning xulq-atvoridagi qaysi xususiyatlar sizga yoqmaydi?

4. Farzandingizda qanday ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga muvaffaq bo'ldingiz?

5. Uning tarbiyasi uchun qanday yordam kerak deb o'ylaysiz?

6. Yana farzandlaringiz bormi? (akasi, opasi, ukasi, singlisi).

1. O'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari va oila sharoiti bilan bu xilda tanishish vositasida qanday pedagogik muammoni yechyapti?

2. Anketa yo'li bilan to'plangan ma'lumotlardan o'qituvchi qanday foydalanishi mumkin?

3. Siz bolalar va ota-onalar bilan ish olib borishda undan qanday foydalanar edingiz?

21-masala.

Sinf rahbari o'quvchisining onasi bilan suhbatlashmoqda:

— O'g'limning do'stini yoqtirmayman, lekin o'g'lim undan hech ajralmaydi. Men o'g'limning o'rtog'i Solini necha marta uydan quvib solganman, o'g'limni ularnikiga yubormay qo'ydim, baribir foydasi yo'q. Kindiklari bittami deyman, do'stliklarini uzishmaydi?

— Bu do'stlikning nimasi sizga yoqmaydi?

— Bilmadim, bezori, o'ta sho'x, qaysar.

— Zohid emas, balki har vaqt Soli aybdor ekanligiga ishonasizmi?

— Ikkalasi ham bir go'r, lekin ular bir-biridan ajratilsa, o'g'lim yaxshi bo'lib qoladimi deyman-da.

— Biroq Soli yaxshi, ishonchli do'st. Bunday do'stlik boshqa qaytib uchramasligi mumkin, shuni bilasizmi?

— Men uning oilasini yoqtirmayman. Ularning do'stliklariga nuqta qo'ymasam bo'lmaydi. Shoshmay tursin, ikkalasini ham o'zim...

1. Bolaning onasi bilan suhbatni davom ettiring. Bolalarning do'stligini himoya qilish uchun qanday qo'shimcha dalillarni keltirish mumkin?

2. Ana shu suhbat bilan bog'liq qanday savollarni ota-onalar majlisiga olib chiqish mumkin bo'ladi?

3. O'quvchilar orasidagi do'stlik nimalarga bog'liq?

4. Do'stni ota-ona tanlashi to'g'rimi?

22-masala.

Vaziyatni tahlil qiling.

— Agar menga ishonmasang, Ra'nodan so'ra, u andishali, to'g'ri qiz.

— Ey, qo'ysang-chi uni. Nimasi andishali, to'g'ri bo'lsa.

— Ha, juda yaxshi-a? Tushundingmi?!

1. Bola nima uchun Ra'noga savol bilan murojaat qilishni istamayapti?

2. «Andishali», «to'g'ri» degan tushunchaga u qanday mazmun berayapti?

3. Agar shu tushunchaning mazmunini o'quvchilarga tushuntirishga to'g'ri kelganda, buni qanday uddasidan chiqar edingiz?

23-masala.

Farzandining kundaligini tekshirib o'tirgan ona bilan o'g'il o'rtasidagi suhbat:

— Kundaligingning nega mana bu yeriga hech narsa yozmading?

— O'shanda uyga topshiriq berilmagandi.

— Unda nega «ikki» turibdi?

— Men darsga quloq solmay, yomon o'tirgandim. Bu tarbiyaviy «2». U jurnalga qo'yilmaydi, faqat kundalikka qo'yilgan.

— Adabiyotdan nima uchun «2» olding?

— Bu matn uchun. Biz o'tayotgan badiiy asar menda yo'qligi uchun qo'yilgan. O'zingiz menga topib bermadingiz, kutubxonamizda ham yo'q.

— Nima uchun jismoniy tarbiyadan «ikki» olasan?

— Bu ikki ketam yo'qligi uchun qo'yilgan. O'zingiz keta olib bermadingiz.

1. Bu vaziyat maktabingiz uchun qanchalik haqqoniy bo'la oladi?

2. Bu masala ota-onalar uchun maktab va o'quvchi haqida qanday qo'shimcha ma'lumot beradi?

3. Bunday «ikki»larga siz qanday munosabat bildirasiz? Ularning foyda yoki zararini nimalarda ko'rasiz?

4. Ikkilarni o'qituvchi qanday maqsadlarni ko'zlab qo'yadi?

5. Agar o'quvchining onasi vaziyatni tushuntirib berishni so'rab, sizga murojaat qilsa, sinf rahbari sifatida siz nima deb javob berasiz?

24-masala.

6-sinf o'quvchisi kundaligini yo'qotib qo'ydi. Unda ikki nafar fan o'qituvchisining va unga nisbatan sinf rahbarining quyidagicha so'zlari bor edi: «Darsda juda yomon o'tirganligi, xulqi uchun yomon baho qo'yildi, o'rtog'ining dars tinglashiga xalaqit berdi. O'qituvchiga gap qaytardi, tartibga chaqirib qo'ying». «Sinf rahbarini va sinf jamoasini tan olmaydi. Chora ko'rishingizni so'rayman!»

1. Vaziyatni baholang:

a) Sinf rahbari va o'qituvchi tomonidan kundaligiga o'sha yozuv yozilgan 6-sinf o'quvchisi tomonidan turib;

b) O'qituvchilar tomonidan turib;

d) Sinf rahbari tomonidan turib;

e) O'quvchi ota-onasi tomonidan turib.

2. Sinf rahbari ota-onalar tomonidan ko'riladigan qanday choraga umid bog'layapti?

3. O'quvchi kundaligining vazifasi nimada deb bilasiz?

4. Bu vaziyat o'quvchining kundaligi o'z vazifasiga mos keladimi? Javobni asoslang.

25-masala.

Tanaffusga qo'ng'iroq chalindi. O'qituvchilar xonasiga pedagoglar birin-ketin kirib kelishni boshladi.

— Mavluda Aliyeva, — deya murojaat qildi. 6- «d» sinf-

ning sinf rahbariga — sinfingiz bolalari juda to'polonchi, masalani tushuntirguncha qiynalib ketaman, gaplashib o'tirishadi. Orqa partadagi Soliyeva doim kitob o'qib o'tiradi.

— Haqiqatda 6- «d» sinf o'quvchilari juda sho'x. Bugun mening darsimdan ko'pchilik o'quvchilar kontur kartani to'ldirishmadi, — deydi geografiya o'qituvchisi.

— Mening darsimga esa 5 nafar o'quvchingiz kirmadi, — deya qo'shimcha qildi jismoniy tarbiya o'qituvchisi.

1. Sinf rahbari tushib qolgan vaziyatni baholang.

2. O'qituvchi — hamkasblar sinf rahbariga qanday masalani hal etishni tavsiya qilishmoqda?

3. Bu masalani yechishni inkor eta oladimi?

4. Mavluda Soliyeva o'z kasbdoshlarining ishonchini oqlay olishi uchun qanday yo'l tutishi kerak?

5. Siz sinf rahbarining o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz? Shikoyat bilan murojaat qilgan fan o'qituvchilarini o'rnida bo'lsangiz-chi?

26-masala.

Jismoniy tarbiya darsi uchun ona o'g'liga keta olib berdi. Biroq bir necha kundan so'ng bola ketasini yo'qotganini aytdi.

— Endi yangisini olish kerak, — dedi bola onasiga.

— Usmon tanaffusda mening ketamni kiyib futbol o'ynagan edi, qayerda qolganini bilmaydi. Hammamiz birgalashib izladik, lekin hech qayerdan topa olmadik.

1. Siz onaga qanday ish tutishini maslahat berasiz?

2. Siz beradigan tavsiya nimalarga asoslanadi?

3. Sinf rahbari bolaga nisbatan va uning onasiga nisbatan qanday pedgogik pozitsiyani egallashi kerak?

4. 6-sinf bilan tarbiyaviy ishni olib borayotganda qanday masalani qo'yishi va o'z tarbiyalanuvchilari bilan nimalarni o'tkazishi lozim bo'ladi.

27-masala.

Maktab yetakchisi sinfga kirib keldi.

— Keyingi haftada, — deb xabar qiladi u, — bizning maktabda yetakchilar seminari o'tkaziladi. Mehmonlarni

shunday kutib olish kerak-ki, ularda yaxshi taassurot qolsin. Buning uchun sizlardan yordam so'raymiz. Kutib olish va kuzatish uncha murakkab ish emas, ammo unga mehr qo'yib, madaniyat va odob bilan sidqidildan bajarish kerak. Qani talabgorlar bormi?

Bunga javoban keskin sukunat. Nahotki xohlovchilar topilmasa.

— Kimlarni tavsiya qilasizlar?

— Yana sukunat.

Oxirgi partada o'tirgan qiz qo'l ko'tardi.

— Siz o'zingiz tayinlang!

Uning jon deb talabgor bo'lishiga tayyor ekanligi shundoqqina yuz-ko'zidan bilinib turibdi, lekin bir o'ziga qandaydir noqulay-da.

1. Maktab yetakchisining pozitsiyasini baholang? Nima uchun u mehmonlarni kutishni aynan talabgorlarga va sinf jamoasining tavsiyasiga topshirdi?

2. Bu hodisa jamoaning qanday xususiyatlari haqida ma'lumot beradi?

3. 7-sinf o'quvchilarida, yanada muhimroq hodisalarga duch kelganda yuqori ijtimoiy faollik namoyon bo'ladi, deb ishonish mumkinmi?

4. Bu hodisani bilgan o'quvchi qanday ish tutishi kerak? Sinf bilan ish olib borayotganda unga qanday tarbiyaviy masalani yechishga to'g'ri keladi?

28-masala.

Ota o'g'lining sinf rahbariga hasrat qilyapti:

— O'g'lim kuni bilan dars tayyorlaydi, kitob o'qiydi. Shubhasiz, o'g'limning yaxshi o'qishi, muloyim, kamtarona xulqi uchun uni majlislarda maqtashib, namuna qilib ko'rsatishlari men uchun juda yaxshi, albatta. Biroq meni tashvishga solayotgan tomoni shundaki, uni xafa qilishsa o'z huquqini bilmaydi, o'zini himoya qilolmaydi. Qizlar bilan hamma vaqt birga. Bu ahvolda u keyin qanday yashaydi? Undan qanday yigit chiqadi?

1. Otaning o'g'li taqdiri haqidagi xavotirga qo'shilasizmi?

2. Bolada urushqoqlik shakllanmayotgan bo'lsa, bu shunchalik yomonmi?

3. Bu masalani onda-sonda uchraydigan, tipik bo'lmagan hodisa deb hisoblash mumkinmi?

4. Maktab ish tajribasida o'quvchilarning shunday nuqtai nazari beixtiyor shakllanishiga imkon beradigan shunga o'xshash turg'un hodisalar yo'qmi?

5. Nima uchun bolalar norasmiy munosabat muhitida o'zlarini turlicha tutishadi?

6. Bu mavzu yuzasidan bolaning otasi bilan qanday suhbat olib borgan bo'lar edingiz?

29-masala.

Tadqiqot o'tkazish maqsadida 6—7-sinf o'quvchilarining ota-onalari bilan savol-javob o'tkazildi. U quyidagicha bo'ldi: «Sizning bolangiz sinfdoshlardan kimlar bilan do'st, bilasizmi?» degan savolga 45 foiz kishi javob berdi.

«Bolangiz mahallada kimlar bilan do'stlashgan?» — degan savolga 65 foiz ota-ona javob bergan. Biroq «Bolangiz darsdan so'ng va bo'sh vaqtlarda kimlar bilan yuradi va nima ish bilan mashg'ul?» — degan savolga faqat 25 foiz ota-ona javob bergan.

«Farzandingiz sinfdosh va mahalladosh o'rtoqlari bilan bo'lgan munosabatlaridan mamnunmi?» — degan savolga 10 foiz ota-ona javob bergan.

O'qituvchilar orasida ham savol-javob o'tkazildi. «Sizning sinfingizdagi bo'sh o'zlashtiruvchi va betartib o'quvchilar o'z sinfdoshlaridan kimlar bilan do'stlashadi?» — degan savolga 95 foiz pedagog javob bergan. «Sizning sinfingizdagi tartibbuzar o'quvchi o'qishdan bo'sh vaqtlarida kimlar bilan do'stlashadi yoki shunchaki uchrashadi?» degan savolga 23 foiz o'qituvchi javob berdi.

1. Ota-onalar o'smirlar munosabati haqida qanday ma'lumotga egaligini tahlil qiling.

2. O'qituvchilarga ma'lum bo'lgan o'smirlar munosabati haqidagi ma'lumot nimasi bilan farq qiladi? Ma'lumotlar bilan o'zaro o'rtoqlashish ularga nima beradi?

3. Shunga o'xshash hodisa yuz bersa, o'z sinfingiz haqida ota-onalar majlisida, o'qituvchilar yig'ilishida bu ma'lumotni qanday ishlatasiz? Qanday masala qo'yasiz?

4. Nima uchun keyingi yillarda o'smirlar va bolalar erkin munosabati mavzusi, maktab va jamoatchilikning jiddiy e'tibor obyektiga aylandi?

30-masala.

O'quvchilar inshosini tekshirayotgan o'qituvchi daftarni varaqlayotib ichidan Z+S=S degan varaqqa ko'zi tushib qoldi. Bu sevgi maktubi edi. O'qib hayratdan yoqa ushladi.

«Zarifa, seni sevaman, soat 7^{00}da bog' etagida kutaman» Sanjar.

1. Bu vaziyatni qanday baholaysiz?
2. O'qituvchi nima qilishi kerak?
3. Xatni egasiga berish kerakmi? Siz qanday yo'l tutar edingiz?
4. Ota-onasiga yoki sinf rahbariga aytish kerakmi?
5. Bunday maktublar qaysi yoshda, qaysi davrda ko'proq uchraydi?

31-masala.

Maktabning o'quv ishlarini tekshirishga kelgan komissiya geografiya darsi bo'layotgan 7-«V» sinfga kirdi.

— Davomat yaxshi.

— Sinf xona toza, tartibli.

— O'qituvchi konspekti bor, tasdiqlangan.

— O'quvchilar bilimi qoniqarsiz:

a) vazifa so'ralganda 28 nafar kishidan 10 nafarigina yaxshi javob berdi;

b) dars yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlarni bilishmaydi;

d) fan uchun tutilgan daftarlarga kam yozilgan, ayrimlari hatto yo'q;

e) o'qituvchi faniga qiziqtira olmaydi;

f) ko'rgazmali qurollar yo'q, interfaol usullardan qo'llanmaydi.

1. Bunday ayblar nimaga asoslanib qo'yiladi?

2. Kamchiliklarni qanday tuzatish mumkin?
3. O'qituvchi o'rnida bo'lsangiz qanday yo'l tutardingiz?
4. Siz rahbar, o'qituvchiga qanday chora ko'rasiz?

32-masala.

9-sinfda tarix o'qituvchisining ochiq darsini kuzatish monitoringi bo'ldi.

O'qituvchi darsni ko'rgazmali qurollar, kartochkalardan foydalanib, faoliyat ko'rsatdi. Orqada dars kuzatuvchilardan biri ikkinchi o'quvchining suhbatini beixtiyor eshitib qoldi: «O'qituvchimiz bugun chiroyli bo'lib ketibdimi? Ko'rgazmalar olib kiribdi, kartochkalardan foydalanganini aytmaysanmi? — deb qo'shib qo'ydi ikkinchisi? Vazifani ham bilmasvoylardan so'ramayapti?»

1. Darsdagi vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Ikki o'quvchi suhbatidan qanday xulosaga keldingiz? Fikringizni o'zgartirasizmi?
3. Bu holatni dars tahlilida aytasizmi? Qanday maslahat berasiz?

33-masala.

Yuqori sinf o'quvchilari bilan «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» darsini o'qituvchi interfaol usulidan foydalangan holda «Oiladagi g'oyaviy tarbiya» mavzusida olib bordi.

— Oilada farzandlar tarbiyasi bilan ko'proq shug'ullanish kerak?

— Tarbiya darajasi nimaga bog'liq?

— Oilada mas'uliyat, iymon, e'tiqod kerakmi? Nima uchun?

— Oila ma'naviyati, madaniyatini qanday tasavvur qilasiz? — kabi muammoli savollar o'rtaga tashlandi.

Hamma bolalar mavzuga qiziqqan holda oiladagi tajribalari, kino, badiiy adabiyotdan o'qigan oila haqidagi asarlardan parchalar keltirishdi. Bunday qiziqarli tortishuvga faqat Anoragina qo'shilmas edi.

O'qituvchi Anoraga savol nazari bilan qaradi. Shuni kutib turganday Anora ham:

— Men oilada hamma vaqt ham yaxshilik bo'lishiga ishonmayman. Otasiz yoki onasiz oila oilami? Mas'uliyatni hammangiz ota-onada deysiz. Ular yo'q bo'lsa-chi? Ota-ona yo'q bo'lsa, ma'naviyat, madaniyatni, tarbiyani kimdan o'rganamiz? Qanday tasavvur qilamiz?

1. Bu vaziyatni qanday baholaysiz?

2. Anorani hayot qiyinchiliklari bezdirgan narsa nima?

3. Anoraning achchiq muammoli savoliga qanday javob berasiz? Ko'ngliga qanday taskin berasiz?

4. Pedagogik jamoa va ota-onalar yig'ilishida bu masalani qo'yish mumkinmi?

34-masala.

5-sinfda o'qiydigan bir o'quvchi a'lo darajada o'qiydi. Maktabda va oilada intizomi yaxshi, mo'mintoy. Lekin u hech kimga qo'shilmaydi, o'rtoqlari yo'q. O'zi yakka o'ynab yuradi. Shunday yurishni yaxshi ko'raman, deydi.

1. Yigitchaning odamoviligiga nima sabab bo'lgan bo'lishi mumkin?

2. Uning tengqurlari bilan kirishib yetishi uchun nima qilish kerak?

35-masala.

Siz o'qituvchisiz. Sinfdagi hamma o'quvchilar sizni hurmat qiladi. Dars o'tayapsiz. Dars jarayonida ikki nafar qizning boshqa narsa bilan shug'ullanib o'tirganini sezib qoldingiz. Qizlarga bildirmay ularning oldiga borasiz. Qizlar kulgili rasm chizgan, rasmning ostiga sizning ismingizni yozib qo'yishgan edi.

1. Bunday vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

2. Bu holat qaysi yoshdagi o'quvchilarga to'g'ri keladi?

36-masala.

Yangi tayinlangan sinf rahbari sobiq sinf rahbaridan sinf o'quvchilariga tavsiflab berishni so'raydi va quyidagi ma'lumotni oladi:

— Abdullayev Olim. Sinf sardori. A'lochi. Mamajonov Mansur — yaxshi o'qiydi, ammo juda sho'x, jahldor. Tojiyev Bahtiyor — o'rtacha o'qiydi, xulqi yomon, ehti-

yot bo'lasiz. Asadova Lola — a'lochi, ammo birorta o'rtog'i yo'q, ota-onasi mansabdor bo'lganligi uchunmi, o'zini boshqacha tutadi. Bozorova Odina — o'rtacha o'qiydi, uy vazifalarini bajarmaydi, oilaviy ahvoli yaxshi emas. Mahmudov Behzod — o'rtacha o'qiydi, bo'sh, doim bolalar uni ajratib qo'yishadi. Shavkat Salimov — yaxshi o'qiydi, xulqi yomon, alohida guruhi bor, bezori ham.

1. Bu ma'lumotlardan siz qanday xulosa chiqarardingiz?
2. Sinf guruhi haqida qanday fikrga borish mumkin?
3. Sobiq sinf rahbariga qanday baho berasiz? U o'quvchilarini yaqindan biladimi?
4. Sizni birinchi navbatda o'quvchilaringizdagi nimalar qiziqtiradi? Nima uchun?
5. Bu guruhga sinf rahbari bo'lsangiz, ishni nimadan boshlaysiz?

37-masala.

7-sinf o'quvchisi Eldor Sobirov guruh jurnalini olish uchun o'qituvchilar xonasiga kirdi.

— Shu bola... — deya gap boshladi matematika o'qituvchisi, — ishyoqmas, yalqov, umuman misollarni yecholmaydi, xatto fikr ham yuritmaydi. Ikkinchi o'qituvchi:

— Yo'g'-e. Men uni aql-zakovat, kamolotda o'quvchilarga namuna qilgim keladi. U biologiya fani bo'yicha viloyat olimpiadasida qatnashdi. Eldorning boshlang'ich sinf o'qituvchisi:

— Sobirov — juda odobli bola, u rahimdil, xushfe'l, kamtarin bola, — deb ta'riflab o'tdi. Sinf rahbari esa, bu o'quvchim biologiya, geografiya, tarix kabi fanlarga juda qiziqadi. Hayvonlarni sevadi, u sinfdagi gullar va qushlarga o'zi qaraydi. Oilada ham ota-onasiga yaxshi yordamchi.

— Lekin, — gapga qo'shildi jismoniy tarbiya o'qituvchisi, — darsimga doim qatnashadi-yu, normativlarni hech qachon yaxshi, to'g'ri topshirolmagan, bo'sh yigit.

1. Nima sababdan o'quvchiga o'qituvchilar bunchalik turlicha munosabat bildirdi?
2. Har qaysi o'qituvchining tavsifi asosida nima yotibdi?

3. Nima uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi va sinf rahbari bola shaxsidagi eng muhim tomonlarini qayd etdi?

4. Sinf rahbari bunday muhokamadan o'zi uchun qanday xulosa chiqarishi kerak?

38-masala.

7-sinf o'quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini o'rganish maqsadida pedagogik ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi va quyidagicha anketa savollari tavsiya etildi:

1. Bugungi kun o'quvchisi qanday bo'lishi kerak?

2. Sizni o'qituvchingiz va ota-onangiz nima uchun maqtashadi deb o'ylaysiz? (bahodan tashqari).

3. O'zingizda qanday yomon xislatlarni sezasiz? Uni yo'qotishga harakat qilasizmi?

4. O'rtoqlaringiz ko'pmi? Ulardagi qaysi xislatlar sizga yoqadi?

5. Ota-onangiz va o'qituvchi nima uchun sizni jazolaydi yoki qoralaydi? (bahodan tashqari).

6. Siz qanday inson bo'lishni xohlaysiz?

7. Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

8. Sinf jamoangizni qanday bo'lishini xohlaysiz? Jamoaga bosh bo'lishni xohlaysizmi?

1. Anketa savollarini tahlil qiling. Ular yordamida o'qituvchi o'zi uchun ma'lumot olishi mumkinmi?

2. Bunday anketa savollarini shu yoshdagi o'quvchilar bilan o'tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblaysizmi? Nega?

3. Siz ham anketa savollarini boshqa sinfga tavsiya qilib ko'ring va tahlil qiling.

39-masala.

Sarvar oilada yolg'iz farzand, uning ota-onalari hamma sharoitni yaratib bergan. Lekin maktabga borib kelishi va dars tayyorlashi, uning atrofidagi o'rtoqlari hatto sinf rahbari kim ekanligini bilishmaydi. Faqat onasi har vaqt «tugmangni qada», «qo'lingni yuv», «kiyimingni tartibga keltir», «ovqatingni yegin» kabi tanbehlar berib turardi.

Sarvar maktabga sochlari taralmagan, kiyimlari tar-

tibsiz kelishiga maktabdagi o'quvchilar-u, o'qituvchilar ham ko'nikib ketishgan. Sarvar ustiga-ustak qaysar, odamovi, indamas. Darslarda hech jim o'tirmasdan g'imirlayveradi. Tanaffus paytida koridor bo'ylab chopgani-chopgan. Kimnidir turtib ketadi yoki oyog'idan chaladi. Darsdan so'ng sumkasini bir chetga otib, shosha-pisha ko'chaga yuguradi. Xulosa shundayki, bolani o'z xoliga tashlab qo'yilgan deb achinish bilan aytish mumkin.

1. Vaziyatni tahlil qiling. Kattalar xulq-atvoridagi nimalar bola xulqidagi salbiy tomonlarini rivojlantirishga qanday turtki bo'layotganligini aniqlang.

2. Bolaning o'z xoliga tashlab qo'yilganligini nimalarda ko'rayapsiz? Bu holatning oldini olish uchun qanday choralar ko'rasiz?

3. Sarvarni qayta tarbiyalash mumkinmi? Sinf rahbari qanday shaxsiy fazilatlarni, yo'l-yo'riqlarni tavsiya qilishi mumkin?

4. Sinf rahbariga ota-onalar tomonidan qanday yordam talab qilinadi?

40-masala.

Ota-onalar majlisida bir ona o'rnidan turib shunday dedi: «qizim yaxshi o'qisin deb hamma ishni o'zim qilaman, nima desa shuni qilaman muhayyo qilib beraman». Boshqa bir ota esa shunday dedi: «Men o'z o'g'limni fizika, matematikani va kimyoni yaxshi bilishini istayman! O'rnini yig'ishtirib qo'yadigan yoki tugmalarini taqib oladigan bo'lgani bilan u aqlli bo'lib qolmaydi». Ota va onaning ana shu fikrlariga munosabatingiz qanday? Sinf majlisini o'tkazayotgan sinf rahbarining mazkur ota-onalarga munosabati qanday bo'lishi kerak?

41-masala.

Bir o'qituvchi maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktori o'rinbosariga bunday dedi: «Men dars beradigan 8-«a» sinfda o'quvchilarning darsga sababsiz kelmay qolish hollari ko'payib ketdi, bolalar darsda shovqin-suron qilib

o'tirishadi, menga quloq solishmaydi, o'zlashtirishlari yomon. Bu ishda sizdan, ota-onalar menga yordam berishingizni iltimos qilaman».

1. Bu muammoni to'g'ri hal qilishda maktab direktori qanday yo'l tutishi lozim?

2. Siz shu o'qituvchi o'rnida bo'lsangiz, qanday yo'l tutar edingiz? Direktor o'rinbosari o'rnida-chi?

42-masala.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasidan kelgan inspektor maktab direktoriga shunday dedi: «Siz bosh bo'lgan mazkur maktabdagi birorta rahbar xodim dars tahlilining shartli ravishda qabul qilingan 5 ta turiga amal qilmas ekan. Ular o'qituvchilarning darslarini umumiy pedagogik tahlil qilish bilangina chegaralanar ekan, xolos.»

1. Dars tahlilining 5 ta turi deganda, siz nimalar nazarda tutiladi, deb o'ylaysiz?

2. Direktor o'qituvchilarga nisbatan qanday chora ko'rishi kerak?

43-masala.

Dars vaqti. O'qituvchi dars o'tayapti. Lekin bir o'quvchi uning so'zini tinglashni istamay, o'rtoqlari bilan gaplashib o'tiribdi. O'qituvchini sabr-kosasi to'lib, o'quvchiga tanbeh berdi. Shunda o'quvchi o'qituvchiga gap qaytarib, eshikni qattiq yopib chiqib ketdi.

1. O'qituvchi to'g'ri ish qildimi?

2. Endi u o'quvchiga nisbatan qanday jazo qo'llashi kerak?

44-masala.

Ikki o'quvchi bir o'qituvchi ustidan har xil gaplarni aytib turgan edi. Shu payt o'sha o'qituvchi behosdan buni eshitib qoldi.

1. Nima uchun o'quvchilar o'qituvchilar ustidan har xil gapiradi?

2. Bu hol o'qituvchi va o'quvchiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

45-masala.

Hozirgi kunda ko'chalarda, bozorlarda juda ko'p yosh bolalarni ko'ramiz.

Ular arava torib yurgan, non sotayotgan, ko'chada mashina yuvayotgan, mardikorchilik qilib yurganini uchratamiz. Ular aksariyat, 11—16 yoshli bolalar. Ayni bilim oladigan, o'qiydigan maktab yoshidagi bolalar.

1. Siz bu holatga pedagog sifatida va shaxs sifatida qanday qaraysiz?

2. Bunga kimlar aybdor deb bilasiz?

3. Bu yo'l ularni jinoyat sari boshlashi mumkinmi?

46-masala.

Diniy ekstremizmga, diniy oqimga kirib qolgan, buning oqibatida bir qancha jinoyatlarga qo'l urgan o'smirlar haqida eshitganmiz. Ularning ko'pchiligi bu ishlarni anglamagan holda qilganliklariga va pushaymon ekanliklariga iqror bo'lganlar.

1. Ularning bu holga tushishiga kimlarni yoki nimani sababchi yoki aybdor deb bilasiz?

2. Ko'pchilik buni moddiy tanglik, qiyinchilikdan deb biladi. Shu to'g'rimi?

47-masala.

7-«V» sinfda 3-soat kimyo darsi bo'lishi kerak, o'qituvchi biroz kech qoldi. 2—3 o'quvchi kelishib, o'qituvchi o'rindig'i o'rniga sinig'ini almashtirib qo'yishdi.

O'qituvchi shoshib kirib keldi, salomlashib «O'tiringlar», dedi-da, o'rindig'iga o'tirishi bilan yiqilib ketdi.

1. Vaziyatni tahlil qiling. Nima uchun bu voqea sodir bo'ldi?

2. O'qituvchi endi qanday yo'l tutishi kerak? Voqeani davom ettiring.

3. Sizda shunday voqea ro'y bersa, nima qilar edingiz?

48-masala.

Sinf rahbari tarbiyasi qiyin bolaning ota-onasi bilan suhbat olib bormoqda.

O'quvchi ko'p vaqtlarda maktabga darslarni tayyorlamasdan keladi, qo'pol, o'yinqaroq. Maktab intizomini mensimaydi. Masalan, dars paytida maktab oshxonasida yuradi. So'ramasdan darslardan ketib qoladi. Chorak oxirida reyting kundaligi haftada almashadi, baholari past chiqayapti.

Uning otasi fan doktori, professor, rahbar, onasi vrach. Pedagogning gaplariga quyidagicha javob beradi:

— Tushunsangizchi, biz Davlat ishlari bilan juda band odamlarmiz. Mening ishim juda ham mas'uliyatli ish! O'g'lim bilan shug'ullanishga mening hech vaqtim yo'q. Onasining ham ishlari ko'p. Biz maktabga yuborayapmiz. Maktab uchun kerakli narsalarni olib berayapmiz, maktab vaqtiga sizlar javob berasiz, tarbiyalaysizlar! Bu sizning vazifangiz emasmi?

Pedagog, oila bilan maktab hamkorlikda ish olib borsagina tarbiya samara berishi mumkinligini uqtirganda, u yana e'tiroz bildirdi:

— Nima ish qilish kerak bo'lsa, oilaga bog'liq bo'lgan ishlarning hammasini qilayapman. Uyda kompyuter bor, internetga ulab qo'ydim, kutubxonamiz mavjud, ingliz tili, rus tillaridagi o'quv kassetalar kolleksiyasi bor.

Ota tarbiyadagi o'z ishtirokiga oid elementlarni uzoq sanadi. Bularni eng asosiy deb hisobladi, ammo o'g'lining xulqi haqidagi sinf rahbari tomonidan bildirilayotgan tashvishli xabarga e'tibor qilmadi.

1. Vaziyatni tahlil qiling. Sinf rahbarining va ota-onaning bolaga nisbatan munosabatini baholang.

2. Siz bu voqeaga qanday munosabatda bo'lar edingiz?

3. Sizning o'quvchilaringiz orasida shunday ota-onalar bo'lsa, qanday yo'l tutardingiz?

49-masala.

Bir kuni o'qituvchilar o'zining butun umrini maktabga, ta'lim-tarbiyaga bag'ishlagan kishilar «pedagogik faoliyatning natijasi nimadan iborat», deya bahslashib qolishdi.

— Men sinfdan xursandman, sinfimda yomon o'qiydigan o'quvchining o'zi yo'q. Hammalari «men sendan

zo'rman» deb o'qishadi. Oliy o'quv yurtlariga kiradiganlari ham ko'p, hali ko'rasizlar hammalari jamiyatda o'z o'rnilarini topadilar.

— Siz aytmoqchi, bitirib ketgan mening o'quvchilarim juda kuchli sinf edi. Ko'pchiligi yirik mutaxassislar bo'lib yetishganligidan faxrlanaman, — deya qo'shib qo'ydi boshqasi.

— Meni esa ular kelajakda qanday kishilar bo'lib yetishadi, keyingi faoliyatlari qanday bo'ladi, o'z farzandlarini qanday kishilar qilib tarbiyalab, voyaga yetkazadilar, degan savollar ko'proq tashvishlantiradi, — deya so'zini yakunladi uchinchi o'qituvchi.

1. O'qituvchilarning suhbatidan, o'quv va tarbiyaviy ishidan qanday xulosa chiqarish mumkin.

2. Siz-chi? O'z ishingizning natijasini nimalarda ko'rasiz?

50-masala.

5-sinfning yangi sinf rahbari ishni o'quvchilar jamoasini o'rganishdan boshladi. Kuzatishlardan, suhbatlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, tortinchoq kamtarin Dilshod o'quvchilar o'rtasida hammadan ko'proq hurmatga ega ekan, Farhod juda ham faol, xushchaqchaq ekan. Dilshod sinf sardori, Farhod esa qator (zveno) boshlig'i qilib tayinlandi.

1. Dilshod sinf sardori qilib noto'g'ri saylangan, Dilshod bilan Farhodni almashtirish kerak degan xulosaga kelish mumkinmi?

2. Bunday vaziyatda sinf rahbari o'zini qanday tutishi kerak?

3. Sinf faollarini tez-tez almashtirish mumkinmi? Bu sinf jamoasiga qanday ta'sir qilish mumkin?

«MUQADDAS OILA» MAVZUSI BO'YICHA TEST

1. Oilaning ilmiy ta'rifini aniqlang.

a) Iqtisodiy va axloqiy jihatlar bo'yicha o'zaro majburiyatlar bilan bog'langan ikki shaxsning ittifoqi.

b) Fiziologik ehtiyojlar, maishiy xizmat, farzandlar tarbiyasi va ularni voyaga yetkazish asoslarida vujudga kelgan ikki shaxsning birligi.

d) Nikoh yoki yaqin qarindoshlikka asoslangan maishiy xizmat, o'zaro yordam va axloqiy mas'uliyat umumiyligi bilan bog'langan kichik guruh.

2. Qanday oilalar tarbiyasi bo'ladi?

a) Taqvodor oilalar.

b) Odobli oilalar.

d) Teng huquqli oilalar.

3. Fuqarolik jamiyatida oila bilan bog'liq siyosatning asosiy maqsadi nimadan iborat?

a) Har bir oilani munosib turar joy bilan ta'minlash.

b) Oila asoslarini moddiy va ma'naviy jihatlardan doimiy ravishda mustahkamlab borish.

d) Bolalar tarbiyasiga va faxriylarning moddiy-maishiy ta'minotiga ustuvor ahamiyat ko'rsatish.

4. Oilaviy hayot buzilishining asosiy sababi deb, nimani hisoblaysiz?

a) Er-xotin o'rtasidagi ijtimoiy farqlanish, notenglik.

b) Er-xotin o'rtasida biologik, fiziologik nomutanosiblik.

d) Kuyov yoki kelin ota-onalarini yoxud yaqin qarindoshlarining yosh oila hayotiga o'rinsiz va doimiy aralashuvi, tazyiqi.

5. Juftlik oila qachon paydo bo'lgan?

a) Bronza davrida.

b) Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida.

d) Patriarxat davrida.

6. Ko'p xotinlilik qachon paydo bo'lgan?

a) Quldorlik davrida.

b) Ibtidoiy jamoa davrida.

d) Bronza davrida.

7. Mamlakatimizda oila rejalashtirish tadbiri qanday amalga oshirilayapti?

a) Oilada tug'ilgan bolalar sonini sobit cheklab qo'yish, konsentrativ vositalarni tarqatish bilan.

b) Ayollar sihat-salomatligini mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar va chora-tadbirlarni hayotga joriy etish bilan.

d) Xotin-qizlarni va bolalarni shaxsiy, ona va bola gigienasi qoidalariga rioya qilish, ularning to'g'ri ovqatlanish va sog'lomlashtirish savodini va madaniyatini oshirish yo'li bilan.

8. «Onaning mehri osmoncha bo'ladi» hikmatining muallifi kim?

a) A. Navoiy.

b) A.Avloniy.

d) O'zbek xalqi maqoli.

e) «Qobusnoma»dan.

9. «Onaning bir qo'li beshikni, ikkinchi qo'li dunyoni tebratadi» jumlasi muallifi kim?

a) Jomiy.

b) «Qobusnoma».

d) «Oila» kitobidan.

e) Xalq maqoli.

10. 1998-yil — Oila yilining asosiy maqsadi deb, nimani tushunasiz?

a) Oilaning sog'lom, bilimdon yosh avlodni tarbiyalashdagi, barkamol avlod o'stirishdagi rolini oshirish.

b) Oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq etishni chuqurlashtirish, oilaga oid iqtisodiy-ijtimoiy statistik axborotlar to'plash.

d) Oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish va madaniy qiziqishlarini rivojlantirish.

e) Oilaning taraqqiyotimizdagi ahamiyatini oshirish, uning iqtisodiy, ijtimoiy-moddiy, ma'naviy va huquqiy manfaatlarini ta'minlash, ongini yuksaltirish.

11. «Avvalo onangga, yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil» jumlasi qaysi kitobdan olingan?

a) «Payg'ambarimiz nasihatlari» kitobidan.

b) «Hadisi Sharif»dan.

d) «Qur'oni Karim»dan.

e) «Sahihi Termiziy» kitobidan.

12. Yurtboshimiz «1999-yil — Ayollar yili» deb e'lon qilinishi to'g'risidagi taklifni qachon kiritdilar?

a) 1.10.1998.

b) 8.11.1998.

d) 5.12.1998.

e) 7.01.1999.

f) 20.03.1999.

13. Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazini tashkil etilishidan maqsad nima?

a) Milliy an'analarni asrab-avaylash, oila va nikoh muqaddasligini, huquqiy savodxonlikni oila a'zolarining, ayniqsa, yoshlarning ongiga singdirish.

b) Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashda oilaning muhim o'rnini ilmiy-amaliy asoslab berish.

d) Oilani ijtimoiy-iqtisodiy holati, demografik xususiyatlarini tadqiq etish va tegishli statistik axborotlarni to'plash.

14. Ayollarga bolani parvarish qilish davrida beriladigan nafaqa bola necha yoshga to'lguniga qadar to'lanadi?

a) 1,5 yoshga.

b) 2 yoshga.

d) 3 yoshga.

e) 16 yoshga.

15. Boquvchisini yo'qotgan bolali oilalarga beriladigan nafaqa farzand necha yoshga to'lgunga qadar to'lanadi?

a) 12 yoshga.

b) 16 yoshga.

d) 18 yoshga.

16. «Qizlarni turmushga chiqarishni onalar bilan maslahatlashinglar» jumlasi qaysi kitobdan olingan?

a) «Qur'oni Karim»dan.
b) «Hadisi Sharif»dan.
d) «Al-Adab Al-Mufrad» kitobidan.
e) «Xalq maqollari» kitobidan.

17. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida «Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi» degan qonun yozilgan?

a) 61-modda.
b) 21-modda.
d) 65-modda.
e) 111-modda.

18. Ayollarga hola ko'rish oldidan va undan keyin beriladigan dekret ta'tili qanday muddatga teng?

a) 55—60 kun.
b) 66—70 kun.
d) 56—72 kun.
e) 60—75 kun.
f) 60—70 kun.

19. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi bobi «Oila» haqida?

a) III bobi.
b) X bobi.
d) XIV bobi.
e) XIX bobi.

20. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar» Qonuni ko'rsatilgan.

a) 11-moddasida.
b) 19-moddasida.
d) 64-moddasida.
e) 96-moddasida.

21. Sizningcha oilada farzandlar tarbiyasi bilan kim shug'ullanishi kerak?

a) Ona.
b) Ota.
d) Bobo-buvalar.
e) Aka-opalar.
f) Hamma birgalikda.

22. Oila muhiti bola ma'naviy tarbiyasiga qay darajada ta'sir etadi?
a) Katta.
b) Bir oz.
d) Ta'sir etmaydi.

23. Qanday oilalarda ma'naviy sog'lom, vatanparvar, vatanga sodiq farzandlar tarbiyalanadi?
a) Ma'naviy boy oilalarda.
b) Mehnatsevar va pok oilalarda.
d) Ziyoli oilalarda.
e) Dindor oilalarda.
f) Ko'p bolali oilalarda.

24. Qanday oilalarda bolalar ma'naviy sog'lom va barkamol tarbiya oladi?
a) Ota boshqargan oilada.
b) Ona boshqargan oilada.
d) Bobo-buvalar boshqargan oilada.
e) Hamfikr va ahil oilalarda.

25. «Ayollarga erkaklar o'z tug'ishgan opa-singillari kabi munosabatda bo'lishlari kerak» degan hikmat qayerda keltirilgan?
a) «Payg'ambar nasihatlari» kitobidan.
b) «Qur'oni Karim»dan.
d) «Hadisi Sharif»dan.
e) «Dil hikmatlari» kitobidan.

26. «Tarbiya nuqtai nazaridan bolani urish mumkin» so'zi qayerda yozilgan?
a) «Hadisi sharif»da.
b) «Somoin yo'li» kitobida.
d) «Qur'oni Karim»da.
e) «Payg'ambarimiz nasihatlari» kitobida.

27. Sohibqiron Amir Temur oilaga, unda turmush qurish va boshqarish masalalariga qanday yondashgan?

a) Hukmdor sulolasining ichki ishi, masalasi deb qaragan, unchalik ko'p qiziqmagan.

b) Xonzoda ayollar va saroy bekalari tasarrufiga va yechimiga qo'yib bergan.

d) Davlat ahamiyatiga molik masala deb ko'rgan va hal etilishida shaxsan ishtirok etgan.

28. Oilaning rekreativ vazifasi nimadan iborat?

a) Oila iqtisodiy ro'zg'or yumushlarini bajarish.

b) Oila a'zolarining bir-birlariga jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam berishi.

d) Oilada nasl-nasabning davomiyligini ta'minlab borish.

29. Nikoh oldi motivi (omillari) qanday?

a) Nikohga yetuklik, balog'at yoshiga to'lganligi.

b) Nikoh yoshi, nikohdan oldingi tanishish muddati.

d) Sevgi, nikohga fiziologik yetuklik, stereotipi.

e) Nikohda iqtisodiy, huquqiy, axloqiy yetuklik.

30. O'zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi» ayol va erkak munosabatlarida nimani tan oladi:

a) Teng huquqligini.

b) Erkak huquqlari ustuvorligini.

d) Xotin huquqlari ustuvorligini.

31. Oilada er va xotin teng huquqlaridan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar, degan tushuncha qayerda keltirilgan?

a) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida.

b) O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksida.

d) O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida.

32. Nikohlanuvchi shaxslarning o'rtasida tuzilishi mumkin bo'lgan nikoh shartnomasi nima?

a) Nikohdan o'tish shart-sharoitlarining bir turi.

b) Nikohlanuvchi shaxslar o'rtasida huquqiy masalalarni hal qiluvchi hujjat.

d) Nikohlanuvchi shaxslarning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv.

33. O'zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi» qachon amalga kiritilgan?

a) 1991-yil, 31-avgust.
b) 1995-yil, 1-sentabr.
d) 1997-yil, 1-yanvar.
e) 1998-yil, 30-aprel.
f) 1998-yil, 1-sentabr.

O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK FAOLIYATIGA TO'SQINLIK QILUVCHI OMILLAR

—O'z fanini yaxshi bilmasligi.
—Moddiy rag'batlantirish yetarli emas.
—O'quv-metodik va boshqa adabiyotlarning yetishmasligi.
—Mehnat sharoitidagi kamchiliklar.
—Oilaviy to'sqinliklar.
—Kasbiga qiziqmasligi.
—O'quvchilarning passivligi sababli darslar samaradorligining pastligi.
—O'quv xonalari jihozlanmaganligi.
—Pedagogik-psixologik bilimlar yetishmasligi.
—Maktab ma'muriyatining salbiy ta'siri.
—Yetarli kompetensiyaga ega bo'lmagan «konservator» o'qituvchilarning salbiy ta'siri.
—Pedagogik stajning kattaligi.

(Tavsiya qilingan mulohazalarga tartib nomerlarini qo'ying).

1. KALIFORNIYA UNIVERSITETIDA TAKLIF QILINGAN TEST

Ko'rsatma: Diqqat bilan quyida keltirilgan savollarni o'qib chiqing va ularga o'z javobingizni bering. Xayolingizga kelgan birinchi javobingizni yozing.

1. Professor kech soat 8^{00} da budilnikni 9^{00} ga qo'yib, uyquga yotdi. U necha soat uxlaydi?

2. Erkak kishi o'z bevasining singlisiga uylanishi mumkinmi?

3. Avstraliyada ham «7-noyabr» bormi?

4. Mamedning 10 ta qo'yi bor edi. 9 dan boshqasi — hammasi o'lib qoldi. Nechta qo'y qoldi?

5. Sen Jazoirda qo'nib o'tadigan Gavana—Moskva reysi bilan uchadigan samolyot uchuvchisisan. Uchuvchining yoshi nechada?

6. Oylar 30—31-kunlar bilan tugaydi. Qaysi oyda 28 kun bor?

7. Sen notanish xonaga kirib qolding. U yerda benzin va gaz bilan yonadigan chiroqlar bor ekan. Sen birinchi bo'lib nimani yoqishing kerak?

8. Moskvadan Sankt-Peterburgga va Sankt-Peterburgdan Moskvaga bir vaqtda 2 poezd yo'lga tushdi. Sankt-Peterburgga kelayotgan poezdning tezligi ikkinchisinikidan uch marta katta. Uchrashgan vaqtda ularning har biri Moskvadan qancha masofa uzoqlikda bo'ladi?

9. Ota va o'g'il avtohalokatga uchrashdi. Otasi shu joyning o'zidayoq halok bo'ldi, o'g'lini esa kasalxonaga yuborishdi. Operatsiya vaqtida jarroh bolani ko'rib: «Voy xudoyim-ey, bu mening o'g'lim-ku», — deb yubordi. Shunday ham bo'lishi mumkinmi?

10. Arxeologlar eramizdan avvalgi 35-yili zarb qilgan tangani topib olishdi. Shunday ham bo'lishi mumkinmi?

11. Yog'ochni 12 bo'lakka bo'lish uchun uni necha marta arralash kerak?

12. Qo'llarda 10 ta barmoq bor, 10 ta qo'lda nechta barmoq bor?

13. Yomg'irda quyon qanday shox tagida o'tirishi mumkin?

14. Vrach (hakim) bemorga 30 daqiqa oralig'i bilan 3 ta ukol belgiladi. Bemor ularning hammasini qancha vaqt ichida olib bo'ladi?

15. Birdan 100 gacha bo'lgan qatorda nechta 9 bor.

16. Tungi qorovul kunduzi o'lib qoldi. Unga nafaqa to'lanadimi?

17. 7 ta sham yonib turgan edi, 3 tasini o'chirib qo'yishdi. Nechta sham qoldi?

18. Ikki kiloli qadoq tosh 1 kg va yarimta g'isht og'irligiga teng bitta g'ishtning og'irligi qancha?

19.16 qavatli uyda bir pakana (lilliput) odam yashaydi.U har kuni ertalab ishga ketayotib liftda pastga tushib, so'ng ishga ketadi, ishdan qaytayotganda esa 10 qavatgacha liftda ko'tarilib, u yog'iga piyoda ketadi. U nimaga shunday qiladi?

Test javoblari

Savollarga javob berishda faqatgina noto'g'ri, ya'ni «-» belgili javoblargina hisoblab chiqiladi va shunga qarab sinaluvchining tavsifnomasi beriladi.

Kalit

1. 1 soat; 2. Yo'q (chunki u kishining o'zi o'lib ketgan. O'lgan odam nafaqat xotinining singlisiga, balki mutlaqo uylana olmaydi); 3. Ha (bu kun hamma joyda kalendarda bor); 4. 9; 5. Sinaluvchining yoshi; 6. Hammasida; 7. Gugurt; 8. Bir xil masofada; 9. Ha (bu uning onasi); 10. Yo'q (u vaqtda tiyin bo'lmagan); 11. 11; 12. 50; 13. Ho'l shox tagida; 14. 1 soat; 15. 20; 16. Yo'q; 17. Uchta (uchta o'chirildi, qolgani yonib bo'lgan); 18. 2 kg; 19. Bo'yi yetmaydi.

0—1 — geniy; 2—4 — intellektual; 5—7 — mulohazali; 8—10 — o'rtacha; 11—12 — aql uchqunlari ko'rinib turadi; 13—16 — ahmoq odam; 17—19 — alohida joyda saqlanishi kerak bo'lgan odam.

2. SHAXSNING KOMMUNIKATIV IMKONIYATLARINI ANIQLASH TESTI

1. Mas'uliyatli ishga duchor bo'lganingizda hayajonlanasizmi?

2. Ahvolingiz yomon bo'lguncha ham shifokor chaqirmaysizmi?

3. Kutilmaganda ma'ruza qilasiz desa norozilik bildirasizmi?

4. Ota-onangiz ruxsat bermasa shaharga mehmonga borishdan bosh tortasizmi?

5. Begona kishiga kechinmalaringizni so'zlaysizmi?

6. Begona odam sizdan yo'lni, vaqtni so'rasa g'ashingiz keladimi?

7. Har xil avlod o'rtasida hayot masalasida kelishmovchilik bo'ladi, deb hisoblaysizmi?

8. Bir necha oy ilgari tanishingizga bergan 50 so'mingizni so'rashga hijolat tortasizmi?

9. Vagonda bir necha soat begona kishi bilan ketsangiz, gapni birinchi bo'lib boshlaysizmi?

10. Navbatda turish maqsadingizga erishish uchun zaruriyat bo'lsa ham, uzundan-uzoq navbat kutishdan voz kechasizmi?

11. Talabalar o'rtasida bo'lgan mojaroni hal qilishdan o'zingizni olib qochasizmi?

12. Biror adabiyot yoki san'at haqida so'z ketsa, fikringizni himoya qilasizmi?

13. Sizga yaxshi ma'lum bo'lgan masala bo'yicha noto'g'ri fikr eshitsangiz jim tura olasizmi?

14. Sizdan ish yoki o'qish yuzasidan yordam so'ralsa, norozi bo'lasizmi?

15. O'z fikringizni og'zaki bayon etishga imkoniyat bo'lsa ham yozma ravishda bayon etishni afzal ko'rasizmi?

Natijalar izohi:

Tavsiya etilayotgan 15 ta savolning hammasiga ochiq ko'ngil bilan javob bering va ballar yig'indisini toping. Agar siz «HA»

deb javob bergan bo'lsangiz — 2 ball, «BILMADIM», «HAYRONMAN», deb javob bersangiz — 1 ball, «YO'Q» deb javob bergan bo'lsangiz — 0 ball bo'ladi.

Agar ballar yig'indisi: 30—32 ballni tashkil qilsa, u holda siz chiqishimli (коммуникабельный) emassiz, ya'ni muloqotga ehtiyoj sezmaysiz, bu xususiyatingizdan hammadan ham o'zingiz jabrlanasiz, yaqinlaringizni ham siz bilan muomala qilishlari murakkab. Jamoa kuchini talab qiladigan ishlarni sizga topshirib bo'lmaydi. Odamlar bilan ko'proq muloqotda bo'lishga intiling.

25—29 ball yig'ilganda: Siz indamassiz, kamgapsiz, yolg'izlikni yoqtirasiz. Yangi ish, yangi muloqotlar sizni anchagina muvozanatdan chiqaradi. Sizni bu xususiyatingiz ko'pincha o'zingizga yoqmaydi. O'zingizni o'zgartirish o'zingizga bog'liq.

19—24 ball yig'ilganda: Atrofdagilar bilan osoyishta muloqotda bo'lasiz va notanish sharoitda o'zingizga ishonasiz. Yangi masalalar sizni cho'chitmaydi. Odamlar bilan kelisha olasiz, tortishuvlarda qatnashishni unchalik yoqtirmaysiz.

14—18 ball yig'ilganda: Siz qiziquvchansiz, sergap suhbatdoshingizni qiziqish bilan tinglaysiz. O'z nuqtainazaringizni jahlsiz himoya qila olasiz. Shunga qaramay, shovqinli davralarda bo'lishni yoqtirmaysiz.

9—13 ball yig'ilganda: Atrofdagilar bilan tez muloqotga kirishasiz, ko'plab yangi odamlar bilan tanishishni istaysiz. Qiziquvchansiz, sergapsiz, har xil masalalar bo'yicha gapirishni yoqtirasiz. Hech kimning iltimosini rad etmaysiz, har doim ham uni bajarish imkoniyati bo'lmasada, hammaning diqqat-e'tiborida bo'lishni istaysiz. Murakkab masalalarni hal qilishda sabr-toqat, qat'iylik yetishmaydi. Lekin xohishingiz bo'lsa maqsadingizga erishish uchun o'zingizni majbur qila olasiz.

4—8 ball yig'ilganda: atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishga intilish sizni tinch qo'ymaydi. Siz har doim hamma yangi-

liklardan xabardorsiz, har qanday masala bo'yicha gapirib ketaverasiz, har qanday sharoitda o'zingizni erkin tutasiz, har qanday ishni cho'chimay, ishonch bilan boshlaysiz, vaholanki, ko'pchilik hollarda uni oxirigacha yetkazmaysiz. Shu sababli hamkasblaringiz sizga ishonchsizlik bilan qaraydi.

3 ball yig'ilganda: Sizni muloqotga bo'lgan intilishingiz kasallik xarakterini olgan. Siz ezmasiz, sizga hech qanday aloqasi bo'lmagan ishlarga aralashasiz. Mutaxassisligingizga tegishli bo'lmagan masalalar bo'yicha hukm chiqarmoqchi bo'lasiz. Jahldorsiz, tez xafa bo'lasiz, ko'pincha qat'iy va odil bo'lmaysiz. Atrofdagi odamlarning siz bilan birga bo'lishi qiyin. O'z ustingizda ishlash sizga halal bermaydi, o'zingizda sabr-toqatni, o'z-o'zini boshqarishni, odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalang.

3. PEDAGOGIK FAOLIYAT MOTIVATSIYASINI ANIQLASH

Tavsiya qilinayotgan fikrlarga siz «ha» yoki «yo'q» degan javobni berishingiz mumkin («ha»ni «+», «yo'q»ni «-» belgi bilan belgilang).

1. Hayotdagi muvaffaqiyat tasodiflarga binoan oldindan qilingan hisob-kitoblarga ko'ra ko'proq bog'liq bo'ladi deb o'ylaydi.

2. Agar men o'zimning sevimli mashg'ulotlarimdan ayrilsam, unda men uchun hayotning mazmuni yo'qoladi.

3. Men uchun har qanday ishning oqibati, natijasidan ko'ra, uning bajarilish jarayoni muhim.

4. Men odamlarning o'z yaqinlari bilan bo'lgan munosabatlarning yaxshi emasliklaridan ko'ra ishdagi muvaffaqiyatsizliklardan ko'proq qayg'uradilar deb hisoblayman.

5. Mening fikrimcha ko'pchilik odamlar yaqin kunlarga mo'ljallagan maqsad bilan emas, balki uzoqqa mo'ljallagan maqsad bilan yashaydilar.

6. Agar imkoniyat bo'lsa ham hech kim sezmasligiga ishonchim komil bo'lsa ham, kinoga chiptasiz kirolmayman.

7. Mening hayotimda muvaffaqiyatsizliklardan ko'ra muvaffaqiyatli kunlar ko'p bo'lgan.

8. Men amaliy ishdan, ishbilarmon odamlardan ko'ra his-tuyg'uli (ko'ngilchan) odamlar ko'proq yoqadi.

9. Hatto oddiy ishda ham men uning ba'zi elementlarini takomillashtirishga harakat qilaman.

10. Muvaffaqiyatga erishish haqidagi fikrlarga berilib ketganimda ehtiyotkorlik choralarini ko'rishni unutib qo'yishim mumkin.

11. Bolaligimda meni ota-onam dangasa deb hisoblar edi.

12. Men o'zimning muvaffaqiyatsizligimga sharoit emas, ko'proq o'zimni aybdor deb hisoblayman.

13. Ota-onam meni qattiq nazorat qilishgan.

14. Menda qobiliyatga nisbatan sabr-toqat kuchli.

15. O'z maqsadlarimdan qaytishga muvaffaqiyatlarga erisha olmasligim haqidagi fikr emas, balki dangasalik sabab bo'ladi.

16. Men o'zimni o'ziga ishongan odam deb hisoblayman.

17. Muvaffaqiyatlarga erishish uchun garchi imkoniyatlar mening foydamga bo'lmasa ham tavakkal qilishim mumkin.

18. Men tirishqoq odam emasman.

19. Hamma ishlar tekis (me'yorida) ketayotgan bo'lsa, unda mening g'ayratim yanada oshadi.

20. Agar men gazetada ishlaganimda, turli voqealarni yozishdan ko'ra, ko'proq odamlar yaratgan yangiliklarni yoritgan bo'lardim.

21. Mening yaqinlarim odatda shaxsiy rejalarim bilan hamfikr bo'lmaydilar.

22. Mening hayotga nisbatan bo'lgan talablarimning darajasi o'rtoqlarimning shunday talablaridan pastdir.

23. Men o'z maqsadlarimga erishish yo'lida qat'iyman.

TEST KALITI:

«Ha» 1, 2, 6, 7, 8, 9, 15, 17, 19, 20, 22, 23.
«Yo'q» 3, 4, 5, 10, 11, 12, 13, 14, 16, 18, 21.

BALL. NATIJALAR TAHLILI

Ballar yig'indisi 0—9 dan past bo'lganda, sizning faoliyatingizda muvaffaqiyatga ehtiyoj yaqqol ko'rinmaydi.

10—13 gacha sizda muvaffaqiyatga intilish bor, lekin faoliyatingizni tashkil qilishda har doim ham muvaffaqiyatga ehtiyoj sezavermaysiz.

14—23 gacha sizning faoliyatingizda muvaffaqiyatga ehtiyoj yuqori darajada, har doim muvaffaqiyat bo'lishiga ishonasiz, qat'iysiz, u yoki bu darajada murakkab, lekin bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarni qilishni yoqtirasiz. Sizni tekshirishsa yoki siz bilan musobaqalashishsa, o'zingizni yo'qotmaysiz, balki aksincha, oddiy vazifalarni bajarish sizni ruhlantirmaydi. Muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining ushbu darajasini o'qituvchilarda bo'lishi maqsadga muvofiqdir, chunki bunda qiyinchiliklarga duch kelinganda, tirishqoqlik, qat'iylik imkoniyatlarga qarab ish tutish mumkin.

0—9 past	10—13 o'rtacha	14—23 yuqori

FAOLIYAT VA ISHGA MUNOSABAT HAQIDA SO'ROV VARAQASI

1. Topshiriqni bajara olmasam jahlim chiqadi.
2. Ish bajarayotganda hamisha obro'yimdan xavfsirayman.
3. Muammo chiqsa hammadan keyin qaror qilaman.
4. Agar 2 kun topshiriq olmasam tinchim yo'qoladi.
5. Ba'zi kunlari mening yutuqlarim o'rtachadan past bo'ladi.
6. O'zimga nisbatan talabchanroqman.
7. Boshqalarga qaraganda bag'rikengroqman.
8. Qiyin topshiriqdan voz kechsam o'zimni qiynab yuraman.
9. O'qish jarayonida tezroq tanaffuslarga ehtiyoj sezaman.
10. Meni ko'proq boshqalarning ishi, o'qishi mahliyo etib turadi.
11. Tanqid ko'proq menga foyda beradi (maqtovga nisbatan).
12. O'qishda meni ishchan hisoblashadi.
13. To'siqlar qarorimni qat'iylashtiradi.

14. Nafsoniyatimni tez qo'zg'ash mumkin.
15. Ishni yoqtirmay qilishim atrofdagilarga seziladi.
16. Zarur ishlarni ba'zan orqaga tashlab qo'yishga moyilman.
17. Faqat o'zimga ishonaman.
18. Hayotda puldan muhim narsalar kam.
19. Boshqalarga qaraganda izzat-nafsimga kamroq mahliyoman.
20. O'qish tugayotgandan xursand bo'lib boraman.
21. Ishga berilsam, uni boshqalardan afzalroq bajaraman.
22. Ishchan odamlar bilan tezroq til topishaman.
23. Ishsiz qolganimda, o'zimni qo'yishga joy topa olmayman.
24. Menga ko'proq o'ta mas'ul ishlarni bajarishga to'g'ri keladi.
25. Qaror chiqarish to'g'ri kelganda, u hammaga ma'qul bo'lsin, deyman.
26. Do'stlarim meni yalqov deyishadi.
27. Yutuqlarim kursdoshlarimga ham bog'liq.
28. O'z muvaffaqiyatlarimga kamroq ahamiyat beraman.
29. Boshqalar bilan hamkorlikda ko'proq natija olaman.
30. Boshlagan ishlarim ko'pincha oxiriga yetmaydi.
31. Ishi kamroq odamlarga havas bilan qarayman.
32. Qarorim haq va to'g'ri ekanligini bilsam, hech narsadan qaytmayman.

1, 2, 3, 4, 6, 7, 8, 9, 11, 12, 13, 14, 17, 18, 20, 22, 23, 25, 27, 29, 32.
«Ha» uchun bir balldan o'zingizcha hisoblang.

5, 10, 15, 16, 19, 26, 28, 30, 31.
«Yo'q» uchun ham bir balldan qo'ying.

1—10 ballgacha — sust motivlisiz.
11—16 — ballgacha o'rta darajada ishchansiz.
17—20 — o'rtachadan yuqori.
21 dan ko'proq — o'ta yuqori.

Rejalashtirishga munosabat haqida so'rov varaqasi

	To'la qo'-shilaman	Qo'-shila-man	Qo'-shilmay-man	Mutla-qo qo'-shilmayman	Bil-may-man
1.Hayot kutilmagan hodisalarga to'la, shu boisdan rejalashtirish-dan foyda yo'q					
2.Kundalik ish rejasi juda zarur					
3.Rejalar faqat ko'zda tutilmagan ishlar ro'y berib turgan holdagina ma'qul narsa					
4.Hayotda zavqlanib, to'-lib-toshib yashash ke-rak, rejalashtirib emas					
5.Hayotni qanday bo'lsa, shunday qabul qilish kerak					
6.Rejalar — qoidalar kabidir, ularga rioya qi-lish va bajarish kerak					
7.Agar siz nima xoh-layotganingizni aniq bilgan holdagina reja-lashtirish biror bir ma'noga ega bo'ladi					
8.Men rejalarim amalga oshishi uchun hamma imkoniyatlarni ishga solaman					
9.Juda qattiq rejalashti-rish ham ishning silliq bajarilishiga halal beradi					
10.Mening hayotim boshqalarning rejala-riga taqlidan ish qilish, ularning izidan borishdan iborat					

11.Rejalar tasdiqlangandan keyin o'zgarmasligi kerak					
12 Rejalashtirish tavakkalga o'rin qo'ymaydi					

Belgi -, +

Test: «O'zgalarni tinglay olasizmi?»

Quyidagi berilgan savollarga berilgan javoblarning o'zingizga mosini tanlab belgilang.

1. Sizningcha suhbatlashishdan maqsad nima?

a) Biror masala bo'yicha o'z fikrini bildirish.

b) Suhbatdoshni yaxshiroq o'rganish.

d) Fikr almashinish va muhokama qilish.

2. Sizga bolalar «Bulutlar qayerda uxlaydi», «Buvilar kichkina bo'lishganmi?» tarzida savollar berishadimi?

a) Ba'zan.

b) Hech qachon.

d) Ha, tez-tez.

3. Ertalab ishga yoki o'qishga ketayotib, qo'shiq xirgoyi qilasizmi?

a) Yo'q, hech qachon.

b) Ha, doimo bir xil ashulani.

d) Ha, odatda har xil ashulani.

4. Yig'ilish oxirida ma'ruzachilarga savollar berasizmi?

a) Hech qachon.

b) Ha, doimo nimanidir so'rashga to'g'ri keladi.

d) Ba'zan uning fikriga qo'shilmaganimda.

5. Do'stingiz yoki kasbdoshingiz bilan suhbatlashgandan so'ng, o'sha muammo yuzasidan o'z qarashlaringizni o'zgartirganmisiz?

a) Hech qachon.

b) Ko'pincha shunday bo'ladi.

d) Ba'zan.

6. Kim bilandir suhbatlashayotganda.

a) Ko'proq siz gapirasiz.

b) Ko'proq suhbatdoshingiz gapiradi.

d) Ikkalangiz teng gapirasiz.

7. Narxi bir xil bo'lganda siz nimani harid qilishni afzal ko'rasiz?

a) Gramplastinkani.

b) Kinoga chiptani.

d) Kitobni.

8. Sherigingiz sizga aloqasi bo'lmagan o'z muammosi xususida gaplashmoqchi. Siz nima deb o'ylaysiz?

a) «Qimmatli vaqtni yo'qotdim-a».

b) «Endi unga ta'sirim kuchliroq bo'ladi».

d) «Unga yordam beryapman».

9. Quyidagi jumlalarni qay biri sizning nuqtai nazaringizga to'g'ri keladi?

a) Ayni muammo yuzasidan mutaxassisgina aniq fikrga ega bo'lishi mumkin.

b) Chiroyli gapirishni bilgan odam xohlagan mavzusida gapirishi mumkin.

d) Ko'pincha mutaxassislarga o'z muammolari va g'oyalarini bayon etish uchun notiqlik malakasi yetishmaydi.

10. Suhbat chog'ida xayolingiz chalg'ib ketsa, nima qilasiz?

a) Umuman menga hamma narsa ayon.

b) Suhbat oxirida savol berish uchun suhbatning noaniq joyini eslab qolaman.

d) Gapirayotganni to'xtatib, o'sha yerni qaytarishni so'rayman.

11. Ertalab radio orqali eshitgan axborot yoki qo'shiqni qaytara olasizmi?

a) Eslay olmayman.

b) Ha, lekin esga tushirish uchun vaqt kerak.

d) Ha, doimo.

12. Estrada xonandasining qaysi jihatlari sizga ko'proq yoqadi, nima uchun?

a) Tashqi ko'rinishi.

b) Sahnada o'zini tutishi.

d) Ovozi.

13. Konsertlarga tushish siz uchun:

a) Ko'p qatori bo'lish.

b) Yaxshi ko'rgan xonanda bilan uchrashuv.
d) Qoniqish hosil qiladigan hodisa.

14. Siz mehmondasiz, u yerda sizdan boshqa yana 5—6 nafar kishi bor. Siz gap boshlaganingizda, ko'pincha:

a) Siz suhbatning tashabbuskori emassiz.
b) Sizni hech kim tinglamaydi.
d) Hamma sizga mahliyo bo'ladi.

15. Siz jamiyatda ro'y berayotgan barcha hodisalardan xabardorsiz. Chunki siz:

a) Gazeta o'qiysiz.
b) Radio eshitasiz.
d) Muntazam televizor ko'rasiz.

Ballarni qo'shib chiqing. 15—20 ball. Siz o'zgalarni tinglamaysiz. Balki siz o'zgalarni tinglashdan oladigan foydaning qadrini bilmassiz, lekin o'z bilim va tajribangiz uchun bu ishning foydasini bilishingiz zarur.

25—30 ball. Siz o'rtacha tinglovchisiz. Siz uchun suhbat ma'lumot manbai va muloqot uchun yetarli asos emas. Sizdan ko'p narsani o'rganish mumkin, lekin o'zingiz ham boshqalardan ko'p narsani o'rganishingiz mumkin, lekin o'zingiz ham boshqalardan ko'p narsa olishingiz mumkinligini, tanqid va e'tirozlar ham foydali ekanligini unutmang, ko'proq boshqalarni tinglang.

35—45 ball. Sizda noyob sifat — o'zgalarni tinglash va me'yorida gapirish bor. Siz bilan suhbatlashish juda yaxshi, chunki suhbatdosh sizdan doimo naf oladi. Siz o'zgalarning holatlarini tushunishga moyilsiz, ana shu noyob sifatni saqlang.

Javoblar:

a — 3 b — 2, 7, 10, 11, 12, 13, 15
b — 3 **b** — 3, 4, 5, 14
d — 3 **b** — 1, 8, 9, 6
a — 2 **b** — 1, 3, 4, 5, 14
b — 2 **b** — 2, 8, 9, 10, 11, 15, 6
d — 2 b — 7, 12, 13
a — 1 b — 6, 8, 9
b — 1 b — 1, 7, 12, 13
d — 1 b — 2, 3, 4, 5, 10, 11, 14, 15

AQLIMIZNI CHARXLAYMIZ

1. 1951-yili angliyalik Ser X'yu Biver Irlandiyada ov qilib yurgan paytda «Oltin loyxo'rak» deb ataluvchi tezuchar qushga o'q tekkiza olmaydi. U o'z muvaffaqiyatsizligini oqlashga urinsa ham, baribir manbalardan bu qushning tezligi haqida biror bir ma'lumot ololmaydi. Shunda uning niyasiga antiqa fikr keladi. O'sha fikrini amalga oshirishni Angliyadagi bir pivo tayyorlovchi kompaniyaga topshiradi va 1955-yili dunyoga mashhur manba yaratiladi.

O'sha manbaning nomi nima?

2. Alisher Navoiy o'z davrining musiqa ahliga juda katta hurmat bilan qarab, ular haqida samimiyat bilan yozganlar. Ana shulardan biriga olim, musiqashunos, xonanda va ajoyib insonning nomini alohida ko'rsatganlar. Hatto Alisher Navoiy u kishiga bag'ishlab asar ham bitganlar. «Majolus-un-nafois»da u kishiga yuksak baho berib «musiqiy va advor ilmida davrning benaziridir», deb yozganlar. Ushbu musiqachi, xonanda, olim kim edi?

3. Sohibqiron Amir Temurda bir odat bor edi: katta-katta janglarga yurishlaridan avval bir maqbaraga borib ziyorat qilganlar. Bu maqbarani kim qurdirgan va uning nomi nima?

4. Turli davlatlarda ta'lim berish vositalari har xil ekan. Hatto ayrim davlatlarda pochta, telefon, radio orqali dars berish yo'lga qo'yilgan. Qaysi rivojlangan davlatda radio orqali ta'lim yo'lga qo'yilgan va nima uchun?

5. Buyuk asar borki, u buyuk yurtdoshlarimizdan birining qalamiga mansub mashhur asar. 1705-yili Vitsen uni gollandchaga o'girgan, 1875-yili Pave De Kurteyl fransuzchaga, XX asr boshlarida Leyden va Erskin inglizchaga, Mixail Save ruschaga tarjima qilgan. Gap qaysi yurtdoshimizning mashhur asari xususida ketmoqda?

6. Arastu (Aristotel) — Aflotunning shogirdi, u tomondan tashkil etilgan akademiya talabasi edi. U ustozining oldida 20 yil tahsil oldi. Ammo Arastu o'ziga ham, yon-atrofdagilarga ham, hatto ustoziga ham talabchan edi. Ustozdan eshitganlarini ham tekshirar edi. U ustoziga ishonmas edimi?

7. U kishining asli kasbi matoga ohor beruvchi edi. Tarixchi Narshaxiyning yozishicha, uning bir ko'zi ko'r, boshi kal, basharasi xunuk bo'lganligidan yuziga ko'k parda tutib yurgan. VIII asrning 70—80-yillarida u butun Movarounnahrda mashhur bo'lgan bu badbashara inson kim bo'lishi mumkin?

8. U yuguradi, yugurgandan o'tadi. Bir vaqtda yotadi, o'q emas otiladi, qush emas uchadi. U nima?

9. Tarix otasi Gerodot iborasi:

Afsona — haqiqatdan xabar beruvchi ... nimadir?

10. Luqmoni hakim aziz farzandiga 100 ta nasihat qildi. 100 ta nasihatdan 3000 ta so'z yozib, uchta kalimani tanlab oldi. Bu uchta so'zning ikkitasini esda saqlab, bittasini unutib yubor, deydi. Nimani esda saqlab, nimani unutib yuborish kerak, deb hisoblaysiz?

11. Maloikalar bir kuni Ollohdan so'raydilar: Yo Rabbiy, Arshdan ham ulug'roq narsani yaratganmisan? Shunda Olloh: Ha, yaratganman, dedi. Aytingchi, Olloh Arshdan a'lo qilib nimani yaratgan?

12. Pirimqul Qodirovning «Xumoyun va Akbar» tarixiy romanidan parcha: Xumoyun Mirzoning suyukli xotini Hamidabegimga butun mamlakat aza tutdi. Uning tobutini Tagradan Dehligacha 100 minglab odamlar kuzatib qo'ydilar. Begimning jasadi o'zi qanotiga dafn etildi. Odatga binoan, uning qabri ustiga qo'yilgan marmartosh yuzasiga to'rt qirrali belgi tarashlandi. Marmartosh yuzasiga tarashlangan to'rt qirrali belgi nimani anglatgan?

13. Asrimiz boshlarida o'zbeklarning yurish-turishlari, kiyinishlarida bir ma'no bo'lgan. Ya'ni, ko'chada kim ketayotganligini u kishining yurish-turishidan, kiyinishidan bilib olishingiz mumkin bo'lgan. Ilgari boy-boyvachchalar bellariga qo'sha-qo'sha belbog'lar bog'lab yurishgan. Bu nimani anglatgan?

14. Prezidentimiz ta'limni isloh qilish borasidagi ma'ruzalaridan birida XX asr boshida aytilgan mashhur iborani keltirganlar. Ya'ni, «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo saodat, yo falokat, degan fikrni ko'p mu-

shohada qilaman», deganlar. Prezidentimizni o'ylantirgan bu ibora qaysi allomaga taalluqli?

15. Xoja Ahmad Yassaviy o'z falsafiy, dunyoviy qarashlari orqali shunday iboralarni qayd etganlar: men juda uzoq umr ko'rdim. Hayotim mobaynida 3 narsaga guvoh bo'ldim. Bir umrlik Xazina nima ekanligini bildim, eng og'ir dard neligini angladim. Eng yaxshi qasosni qanday olmoq Yassaviy hazratlari aytishlaricha, bir umrlik Xazina — bu sabr-toqat qilish ekan. Eng yaxshi qasos olish deb Ahmad Yassaviy hazratlari qanday xislatni nazarda tutganlar?

16. Bu so'z yunoncha «kanna» iborasidan olingan bo'lib, o'lchov tayog'i. Gazcho'p ma'nosini bildirgan. Yo'l-yo'riq, cheklangan, belgilangan ma'nolarni anglatadi. Dastlab me'mor ustalarning doimiy ish quroli bo'lgan gazcho'p o'lchov me'yori sifatida namoyon bo'lib, keyinroq hamma soha uchun taalluqli bir so'zning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Aytinglarchi, bu o'zbek tilidagi qaysi so'z bo'lishi mumkin?

17. XIX asr o'rtalarigacha Angliyada savodsizlik juda yuqori bo'lgan. Yoshlar uchun maktablar kam, keksalarga savod o'rgatish juda og'ir bo'lgan. Ko'pchilik ta'lim mutasaddilari amalga oshira olmagan ishni bir oshpaz hal qiladi. O'zi boyib ketish bilan birga, yoshu qarini savodli qilish muammosini osonlik bilan hal qiladi. O'sha oshpaz millat savodsizligiga qanday barham bergan?

18. Buyuk bobomiz Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Ali ibn Hasan Ibn Sino tabobat ilmining sultoni bo'lganlar. Qolaversa, falsafa, tarix, she'riyat, musiqadan boxabar bo'lganlar. U kishi mevalar payvand qilib yangi-yangi navlar kashf qilganlar. U kishining parvarishlari orqali paydo bo'lgan tabiat mahsuli bor. U qaysi meva?

19. Shunday bir asar borki, uni hech bir shoir yozolmagan, baxshilar to'qib chiqara olmagan, sozandalar o'z kuyi sifatida o'zlashtira olmagan. Bu asarda qayg'u ko'lankasi qoplagan paytlardan, qismat malomat toshini yog'dirgan kezlar borliqni to'zg'ituvchi nolalar aks etgan. U xotirjamlik, sokinlik, sehr va mehr nidosidir. Aytingchi, bu qanday nido?

20. 1738-yili mashhur Golland shifokori German Burxave vafot etgach, uning muhri buzilmagan yangi kitobi topiladi va 10 ming tillo bahosiga sotiladi. Muhrni buzib kitob ochib ko'rilsa, uning sahifalariga hech narsa yozilmagan ekan. Faqat birinchi betida bir jumla bitilibdi. Unda shunday jumla yozilgan ekan: «Agar sen boshingni sovuq, oyog'ingni issiq tutsang...» Kitobda yozilgan jumlani to'ldiring.

21. Nemis adibi Gyotening ayollar haqidagi satrlarini keltiradilar: «Ayolni ilk bor gulga o'xshatgan shoir buyuk shoirdir, uni ikkinchi marotaba gulga qiyoslagan shoir.» Jumlani to'ldiring.

22. Pifagorning geometriya, matematika va boshqa tabiiy fanlar rivojiga qo'shgan hissasini eshitgansiz. Qarangki, Pifagor musiqa san'ati rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan ekan. Pifagor musiqaga oid qanday yangilikni joriy etgan?

23. O'zbek pedagog olimi A.Avloniy maktab ta'limi sohasiga bir yangilik kiritgan. Bu yangilik o'qituvchilar uchun qulay bo'lsa, buni ayrim o'quvchilar noxushlik bilan kutib olishgan. A.Avloniy ta'lim tizimiga qanday yangilikni kiritgan deb o'ylaysiz?

24. 1502-yilda Axsiga yaqin Qaron degan joyda Bobur Mirzo yolg'izlanib qeladi. Namoz o'qish chog'i u uyquga ketadi. Tushiga islom olamining mo''tabar siymolaridan biri kirib, Boburga yo'l ko'rsatadi. Bobur Mirzoning tushiga kirib, to'g'ri yo'l ko'rsatgan buyuk zotning ismi shariflari kim edi?

25. Zahiriddin Muhammad Bobur, Andijon, Afg'oniston, Hindiston va Birma poytaxti Rangun. Ushbu ketma-ketlikni sharhlab bering.

26. Londonda Vestminster ibodatxonasi bir necha asrdan beri ko'rk to'kib turibdi. Buyuk Britaniya qirollari shu yerda qasamyod qabul qiladilar, vaqti-soati etib qazo qilsa ham shu erga dafn etiladilar. Demak, qirollar qabristoniga faqat qirollar dafn qilingan, ammo qirol zotidan bo'lmagan bir ingliz olimi ham hurmat yuzasidan qirollar orasiga dafn qilingan. Qaysi olim shunchalar sharafga musharraf bo'lgan?

27. U XX asrning o'rtalarida zoolog Piter Skott tomo-

nidan fanga kiritildi. Albatta, bu talkif zoologiya, biologiya, botanika fanlari uchun rivojlanish bosqichiga aylanadi. Piter Skott nimani taklif qilgan edi?

28. 1987-yilda Fransiyada bir soqov dunyoga keldi. Oradan 30 yil o'tib, 1927-yilda ilk bor o'sha Fransiyada u gapira boshladi. Dunyo ro'znomalari «Ulug' soqov tilga kirdi» sarlavhasi bilan shov-shuvlar ko'tarishdi. O'sha soqovning ismini toping.

29. XX asr oxirida Garvard universiteti professori Frens Salouey bir nazariyani ilgari surdi. Tarix va fan taraqqiyotiga kenja farzandlar katta hissa qo'shishdi. Arximed, Charlz Darvin, Kopernik, Mendeleev kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Nega ko'pchilik hollarda buyuk ixtiroyu kashfiyotlar kenja farzandlar tomonidan amalga oshiriladi?

30. Ernest Xeminguey fikricha, buyuk yozuvchi bo'lish uchun iste'dod va bilim kamlik qilar ekan. Buyuk yozuvchi bo'lish uchun unga yana muhim narsa zarur ekan. Bu muhim narsa nima?

31. Leonardo da Vinchi portret janrining daholaridan sanaladi. Inson qiyofasini to'laqonli ifodalash uchun, inson ichki va tashqi dunyosining asarlarda aks etib turishiga katta e'tibor qaratgan. U shu paytgacha, hali hech bir rassom foydalanmagan amaliyotni qo'llaydi. Portretlarning jonli chiqishi uchun u qaysi amaliyotni qo'llagan?

32. Lyudvig Van Betxoven juda ko'p musiqiy asarlar yozgan. 9-simfoniyasini yozib tugatgach, premeradan so'ng chalinayotgan qarsaklarni ko'rib, yosh boladay yum-yum yig'laydi. Bundan oldingi premeralarda u o'zini juda dadil va mag'rur tutar edi. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun Betxoven ushbu premьeradan so'ng yosh boladek yig'ladi?

33. Mashhur nemis faylasufi Gegel «Men dialektika haqidagi ta'limotni Sharqning bir buyuk allomasiga suyanib yaratdim» deb yozib qoldirgan. Gegel nazarda tutgan Sharqning buyuk allomasi kim edi?

34. U arabchadan tarjima qilinganda joy, makon ma'nolarini anglatadi. O'zbekistonda asrlar davomida shakl-

lanib faoliyat ko'rsatayotgan ma'muriy uyushmadir. U bizda qanday ataladi?

35. Baholash tartibiga muvofiq «2», «3», «4», «5» baholari asosiy hisoblanadi. Baholash tartibiga muvofiq nega eng past baho bir emas, ikki qilib belgilangan?

36. Uning qismati juda og'ir. G'arbda ham, Sharqda ham u haqida bir xil fikr bildirishadi: u doimo barhayot, lekin u siz o'ylagandek hamma vaqt ham baxtli emas. U nima?

37. Abdurauf Fitrat: «U dunyo imoratlarning eng mukammali va muqaddasidir», deb ta'riflagan. Fitrat bunday ajoyib o'xshatishni qanday muqaddas maskan uchun bergan?

38. Husayn Boyqaro bir sana munosabati bilan Navoiyni Xirotga taklif qiladi. Zo'r tantana uyushtirib, do'stiga peshvoz chiqadi, hammani lol qoldirib Navoiyga ta'zim qilib, uning otini Xirot ko'chalari bo'ylab etaklab yuradi. Husayn Boyqaro Navoiyga qanday munosabat bilan bunday ehtirom ko'rsatadi?

39. Hozirgi zamonaviy teatr, estrada konsertlarida tomoshabinlar o'tiradigan zalda chiroqlar o'chirib qo'yiladi. Opera va baletda ham shu ko'rinish namoyon bo'ladi. Lekin simfonik orkestrlar ijrosidagi akademik konsertlarda tomoshabin o'tirgan zalda chiroq o'chmaydi. Nima uchun klassik konsertlarda tomoshabin o'tirgan zalda chiroq o'chmaydi. Nima uchun klassik konsertlarda chiroqlar o'chirilmaydi?

40. Nemis matematigi Vayer Shtrass yozadi: «Haqiqiy matematik bo'lish uchun, biroz matematikaga zid bo'lgan bir narsadan xabardor bo'lishi kerak». Haqiqiy matematik bo'lib yetishish uchun nimadan xabardor bo'lish kerak?

41. Janubiy Afrikada yashovchi Gegero qabilasida antiqa urf-odat bor. Agar oilada o'shalar bo'lsa, u oila baxtli hisoblangan. Nafaqat baxtli, balki muqaddas sanalgan. Ular yashaydigan oilaga hech kim yomon so'z ayta olmagan. Haqorat qilsa qattiq jazolangan. Ular yashaydigan oilaning aytgani aytgan, degani degan. Hech kim ularning mushugini pisht deyishga jur'at eta olmagan. Ular kimlar?

42. XVII asr, Ispaniya. Badavlat zodagon Don Pedroga

Italiyadan bir buyum sovg'a qilib olib kelishadi. Don Pedro sovg'ani qo'liga olib qaragach, jahli chiqib uni uloqtirib tashlaydi. Uni kashf qilgan ixtirochisini bo'ralab so'kadi. Bu narsaning nomi nima va zodagonga nega ma'qul kelmadi?

43. Hamma davlatlarda quldorlik davrida qullarga juda past munosabatda bo'lishgan, Parfiya davlatidan tashqari. Bu mamlakatda qullarga munosabat do'stona bo'lgan. Parfiyada qullarga do'stona munosabatda bo'lishga sabab nima edi?

44. 1884-yili Angliyaning Oksford universiteti bu borada qaldirg'och bo'ldi. Bu tarixiy voqea ilgari Yevropaning hech bir universitetida sodir bo'lmagan edi. Ushbu voqeaning joriy etilishi avval biroz noqulayliklarga sabab bo'ldi. Astasekin ko'nikilib, keyinchalik unga odatiy holdek qarala boshlandi. Ayrim talabalar o'sha tarixiy voqeagacha hayot bir qadar osuda kechganligini e'tirof etishgan. Universitetlarga kiritilgan bu yangilik nima edi?

45. O'rta asrlarda san'at tarkibiga tasviriy san'at bilan umuman aloqasi yo'q bir kasb kirgan. Albatta, inson bilan bog'liq kasb. Bu qaysi kasb?

46. Dunyoga mashhur Oksford universiteti kutubxonasida hech bir joyda «chekilmasin» yozuvi yo'q. Baribir hech kim cheka olmaydi. Nega Oksford kutubxonasi ichida hech kim sigaret cheka olmaydi?

47. Hindlar ta'biricha, u sizga do'st bo'lguncha avval podsho bo'lib ko'rinadi, so'ngra xokisor qul ham bo'lib ko'rinadi. Shundan keyin u sizning haqiqiy do'stingizga aylanishi mumkin. Hindlar kimni shu sinovlardan keyin do'st deb qabul qilishadi?

48. Mashhur fantast yozuvchi Jyul Vernning «Istilo» qissasi qahramoni doktor Paper, bir mahluqot yaratadi. Odamga o'xshash 2 ta qulog'i, 2 ta ko'zi, og'zi, burni va h.k. Qizig'i shundaki, bitta narsani u mahluq negadir ikkita ko'radi. Doktor Paper u mahluqqa qanday o'zgarish kiritganki, bitta narsa uning ko'ziga ikkita bulib ko'rinadi?

49. Imom Al-Buxoriy o'z kitoblarida keltirgan hadislarda: «Agar sen bu dunyoda yaxshi yashashni xohlasang

— savdogar bo'l, agar sen u dunyoda yaxshi yashashni xohlasang — taqvodor bo'l, agar sen ikki dunyo saodatiga erishaman desang, ya'ni ham savob, ham ro'zg'or tebrataman desang ...» kim bo'l deganlar?

50. Abu Nasr Forobiyning yozishicha, kishida bir xususiyat mavjud bo'lsa, u kishidan albatta dono yetishib chiqadi. Ko'proq qanday xususiyat sohiblari donolikka moyil bo'ladilar?

51. O'tkir Hoshimov «Nur borki soya bor» asarida ularni charxpalakka qiyos qilganlar. Charxpalak suv tomchilarini kaftiga solib, yuqoriga olib chiqadi. Ular esa aslo ortiga qaramay o'z yo'llaridan ketadilar. Charxpalak esa ranjimaydi. Yana o'z ishini davom ettiraveradi. Asarda kimlar charxpalakka qiyos qilingan?

52. Bugungi kun adiblari Ernest Xemingueyning bir iborasiga hamon qoyil qolib kelishadi. U «birinchisi — muhabbat, ikkinchisi — mehnat, uchinchisi — urush, to'rtinchisi — o'lim», deb yozgandi. Ernest Xemingguey nima uchun bu to'rtta so'zni yozib qoldirgan?

53. Onore de Balzak uni «ota-ona va farzandlarning qo'riqchisi», deb atagan. U ota-onani g'am-kulfat, yolg'izlikdan qutqarsa, farzandlarni vijdon azobidan xalos qiladi. Balzak fikricha, qanday bir narsa ham ota-onani, ham farzandlarni qo'riqlaydi?

54. Ishga joylashmoqchi bo'lsangiz, korxona rahbari nomiga ariza yozasiz. Albatta arizani o'sha xodim o'z qo'li bilan yozishi kerak. Shunday qabul qilingan. Chiroyli qilib mashinka yoki kompyuterda yozilsa ham bo'ladi-ku. Xodim arizani o'z qo'li bilan yozishda qandaydir maqsad bormi?

55. Bu foniy dunyoni nega 5 kunlik deb atashadi?

56. Sharq Arastusi — Abu Nasr Forobiy shu narsa uchun Damashqdagi bog'lardan biriga ishga joylashadi. U nima?

57. Dunyo bo'yicha u narsa yiliga har bir kishiga 45 kg.dan to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, Afg'oniston va Malida yiliga 100 grammdan, Hindistonda 1,5 kg, Finlyandiyada bu ko'rsatkich 1400 kg.ga yetadi. Gap nima haqida ketayapti?

58. Bu asarni chinliklar «Odobul-muluk», Mochin podshohining zodagonlari «Oyikul mamlakat», mashriqliklar «Ziynatul umaro», eronliklar «Shohnomayi turkiy» deb ataganlar.

Bugun u asar qanday ataladi?

59. Algebra fani paydo bo'lishiga oilalardagi zarur bir ehtiyoj sabab bo'lgan. O'sha zarur ehtiyoj nima deb ataladi?

60. AQSHda shunday mashhur topishmoq bor. Eshik taqillaydi: tuk-tuk.

— Kim u?

— Bu men, sening imkoniyatingman.

— Yolg'on.

Uning imkoniyati emasligini u qayerdan bilib qolgan?

61. Insoniyat dunyoga kelgach juda ko'p kashfiyotlarni amalga oshirgan. Juda ko'p ilmiy dargohlar ham dunyoga kelgan. Ilmiy dargoh peshtoqiga «Geometriyani bilmaydiganlar kirmasin», deb yozib qo'yilgan. Bu qaysi ilmiy dargoh?

62. Pifagor, Suqrot, Konfutsiy ta'limotida qanday o'xshashlik bor?

63. Nemis faylasufi Shopengauer yozgan: Uylanish — yigitlarning haq-huquqlarini teng yarmiga qisqartiradi. Uylanish ularda nimani ikki barobar oshirib yuboradi?

64. Uni xuddi qayiqqa o'xshatish mumkin. Kimdir unda oltin yombi tashisa, kimdir qarmoq tashlab baliq ovlaydi. U nima?

65. Rim notiqlari nutq so'zlaganda bir oyoqda turishgan. Kim ularni bunga majbur etgan?

66. Deyl Kornegi yozishicha, inson uchun 3 ta asosiy vosita mavjudki, birinchisining yordami bilan biz umrimizni uzaytiramiz, ikkinchisining yordami bilan uni qo'llab-qo'ltiqlaymiz, uchinchisining yordami bilan esa o'zga dunyoga tayyorgarlik ko'ramiz. Inson uchun zarur 3 ta vosita nomini ayting.

67. Yapon bolakayi 1 yoshga to'lganda uning oldiga turli-tuman o'yinchoqlar tashlanadi. Nima uchun?

68. Doktor Tomdayk dangasalik sirlarini o'rganib shun-

day xulosaga kelgan: Asosiy sabab bitta, ishga munosabatning sovuqligi. Sovuqqon munosabat nimaning oqibatida tug'iladi?

69. Sen-simonchilar egnilaridagi kiyimlarning tugmasini orqadan qilib tiktirishgan. Nega?

70. Abu Ali ibn Sinoning yozishicha, uch xil toifa kishilaridan mayxo'rlar chiqishi mumkin. Birinchisi — daydilar, ikkinchisi — shohlar. Uchinchi toifani toping?

71. Xitoyliklar itlarni uch toifaga bo'lishgan: qo'riqlovchi, ovchi va yeyish mumkin bo'lgan itlar. Rimliklar ham itlarni uch toifaga bo'lishgan: urushqoq itlar, tez yugiruvchi itlar, 3-toifaga kirgan itlar qanday xususiyatga ega edilar?

72. Bir kuni graf Zavodovskiy mashhur rus adibi Pushkin bilan bo'lgan suhbatida o'zining katta miqdordagi mulkka egaligi va bu mulklardan yaxshigina daromad olishini aytib maqtangan. Bunga javoban rus adibi, men sizdan boyroqman va menda 36 ta doimiy daromad manbai bor, deb aytadi. Mashhur adib nimani nazarda tutgan edi?

73. A.Dyumaning navbatdagi asari teatrda ilk marotaba qo'yilayotganda tomoshabinlar ichidan Dyumaning otasi uni juda shovqinli tarzda olqishlaydi. Bundan bezovtalangan boshqa tomoshabin unga tanbeh ohangida: «Siz shunday olqishlayapsizki, sizni ko'rganlar asar muallifi deb o'ylaydi», dedi.

Dyumaning otasi unga qanday javob qaytargan?

74. Inson miyasidagi hujayralar 30 yoshgacha rivojlanib, so'ngra birin-ketin nobud bo'lar ekan. Yapon olimlarining fikricha, buning oldini olish mumkin ekan. Olimlar fikricha, hujayralar nobud bo'lishining oldini olish uchun biz nima qilishimiz kerak?

75. Uni birinchi bor yapon baliqchilari dengizga chiqishdan oldin IX asrda ijro etishgan. Ular nima ijro etishgan?

76. Uning tarkibiga 8 xil buyum kiradi. Papka, kitob, daftar, ruchka, qalam, yelim, chizg'ich, o'chirugch. Nimaning tarkibiga 8 xil buyum kiradi?

77. Buyuk Xitoy faylasufi Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, «Farzand ota-onasiga nisbatan g'amxo'rlik qilgan holda

ota-onasini o'ylab, yana kimgadir qayg'urishi kerak». Farzand kimga qayg'urishi kerak?

78. Insonlar o'zlari xohlamasalar ham o'shanga intilib yashaydilar. Garchand u noxush, qo'rqinchli bo'lsa ham. Insonlar o'zlari xohlamasalar ham nimaga intilib yashaydilar?

79. Aleksandr Soljenitsin o'z hayoti haqida gapirib, «yaxshiyam Ryazandagi uyimda isitish umumiy emas, pechkalik edi», degan edi. Nimasi bilan pechka batareyadan yaxshi bo'lgan ekan?

80. U o'z davrining mashxur lirik va falsafiy shoiri edi. Uning otasi chodirdo'z bo'lgan. U sahrodagi kishilarga chodir tikib tirikchilik o'tkazgan. Bu ishda bo'lg'usi shoir ham ishtirok etgan. Va umrining oxirigacha ota kasbiga sodiq qolgan. Shuning uchun ham uning taxallusi chodirdo'z bo'lgan. Bu albatta bizning tilimizda, o'sha shoirning ismi va taxallusini toping.

81. Venger jurnalisti Yojef Biro 1938-yilda ilk bor sharikli ruchkani ixtiro qilgan. 1944-yildan AQSH ushbu ruchkalarga patent olib, sterjeniga Pilot degan yozuv bilan ishlab chiqara boshlagan. Nega aynan Pilot so'zi sterjenda yozilgan deb o'ylaysiz?

82. Muqaddas kitob — Qur'onning ma'nosi nima?

83. Barcha insonlar yosh go'daklarni ovutish yo uxlatish uchun yonboshiga yotqizib, yelkalariga qo'llari bilan asta-sekin urib ovuntirishadi. Negadir go'dak ham tezda tinchiy qoladi. Bir o'ylab ko'ringchi, nega shu holatda bola tez ovunadi?

84. Shri Lankadagi bir maktabga talabalar 5—10 yoshda qabul qilinishadi. Ular maktabda gimnastika, dala ishlari, muallim bilan individual ishlash, axloq fanlari kabi darslar o'tishadi. Bu maktabni bitiruvchilariga talab maktab ko'rmaganlardan 3—4 hissa ko'proq bo'ladi. Bu maktab nomi?

85. Angliyada g'alati qonun amal qiladi. Kech soat 9^{00} dan ertalab soat 6^{00} gacha qo'ni-qo'shnilar oromini buzmaslik uchun oila a'zolaridan bir narsa talab etiladi. U qanday talab?

86. Bu san'at turi qadimgi Misrda, Yunonistonda, Rimda o'ta rivojlangan. Hatto musobaqalar ham bo'lib turgan. Bu qaysi san'at turi?

87. Tojmahalni bunyod etishda bosh-qosh bo'lgan me'mor kim?

88. Jonatan Svift nimani «ong farzandi» deb atagan?

89. Qadimgi Rimda bolani maktabga olib borib keluvchilarni kimlar deb atashgan?

90. Ular Germaniyada eng kam 15 foizni tashkil etadi. Ushbu savolda ular deganda kimlar nazarda tutilmoqda?

91. Bu jarayon filda 22 oyga yaqin davom etadi. Qaysi jarayon?

92. Islom va xristian dini g'oyaviy yo'nalishi jihatdan bir-biriga yaqin turadi. Lekin ikkala din ham ikki xil tushunchani birinchi o'ringa qo'yadi?

93. 1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Ushbu tarixiy ahamiyatga molik ish maxsus farmon bilan ilgari ham, bir necha asrlar oldin bir hukmdor tomonidan amalga oshirilgan edi. Bu ish kim tomonidan amalga oshirilgan deb o'ylaysiz?

94. Styuklet hikoya qiladi: «Biz bog'da sayr eta turib, daraxt soyasida dam olayotganimizda do'stim menga aynan shu holatda biroz jarohatlanganligini aytib berdi». Uning do'sti kim edi?

95. 1852-yil Janubiy Afrika qirg'oqlari yaqinida Britaniyaga tegishli «Birkenxed» kemasi cho'kib ketadi. Fojeani qarangki, juda oz miqdor inson qutilib qolishi evaziga 445 qurbon beriladi. Shu voqeadan so'ng, «Birkenxed» qonuni amalda qo'llanila boshlandi. Qonun mazmuni nimadan iborat?

96. Siz umrda, qomatda, mol va nasabda ilg'orsiz. Bu ilg'orlik qachon namoyon bo'ladi?

97. U hech kimdan arazlamagan, biroq hech kim bilan gaplashmaydi. Topshiriqlarni beminnat bajaradi, xizmatni qovoq-tumshuq qilmay ado etadi. Ammo churq etib og'iz ochmaydi. Bunga uning haqqi yo'q. Biroq, ma'lum shartni bajargach, bu huquqiga ega bo'lishi mumkin.

U kim o'zi, qanday shartni bajarishi lozim?

98. Avvallari, uzoq vaqt farzand ko'rmagan yoki farzandlari

turmagan, shuningdek, farzandlari og'ir betob bo'lgan kishilar avliyo va mozorlarga sig'inganlar. Bola tug'ilgach yo sog'aygach, farzandlarini o'sha joyga nazr qilib, jonliq so'yganlar. Qizig'i shundaki, odamlar ko'cha-ko'yda o'ynab yurgan bolalarga qarab, ularning qay biri nazr qilinganligini darrov bilishgan. Bolalarning nazr qilinganligini qanday bilishgan?

99. U haqiqatning onaizori va doyasidir. Haqiqat u bilan tirik. Xo'sh, haqiqat nima bilan tirik?

100. Dono odamning xislati 3 narsada namoyon bo'larkan:

— Hech qachon haqiqatga qarshi bormaydi.

— O'z atrofidagi odamlarning nuqsonlariga sabr-toqat bilan chidaydi.

Dono odamning yana bir xislati qanday bo'lishi mumkin?

101. Kongoda aholini uning 500 tasidan, Indoneziyada 250 tasidan, Sudanda esa 117 tasidan foydalaniladi. U nima?

102. Ulug' mutafakkir Mir Alisher Navoiy bu so'zning har bir harfiga bir ma'no berganlar. Bu so'zda ittifoqlik, saodat, latofat, oqibat va muhabbat mujassamlashgan. Bu qanday so'z?

103. Bu so'z arab tilidan olingan bulib, «nozik fahm, yaxshi fikrlash», degan ma'nolarni bildiradi. Bu qanday so'z?

104. K.S. Stanislavskiy deydi: «Teatr kiyim ilgichdan boshlanadi, aqliy mehnat unumdorligi» qayerdan boshlanadi?

105. Ahmad al-Farg'oniy ta'limotlarida shunday falsafiy fikrlar mavjud: «tuzataman, ammo yaratmayman!» degan. Al-Farg'oniy hazratlari nimani yaratmasliklarini aniq aytganlar?

106.O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ijodidan 2 misra:

Ko'zi ochiqlarga lazzatdur...
Ko'zi ochiqlarga rohatdur...
Ko'zi ochiqlarga zarur narsa nima?

107. Yaponiya shaharlarida shunday o'quv kurslari mavjudki, faqat 36 ta nomzod qabul qilinadi. Tanlovda yuzlab nomzodlar qatnashadi. Nomzodlardan qo'shiq aytib berish, raqsga tushish, rasm chizish, hatto turli sport musobaqalarida ishtirok etish ham talab etiladi. Hatto turgan

avtomobil yuradimi yo buzuqmi, degan turli mantiqiy savollarga ham javob berishlari kerak. Tanlov qayerda bo'layapti?

108. U jahongashta boyvachchaning laqabi «daydi olim» edi. Uning bir ixtirosini va boshqa ixtirochilarga xayrixohligini butun dunyo tan olgan. Juda ko'p yurtlarda bo'lgan, juda ko'p tillarni bilgan daydi olim kim?

109. Fransuzlar Shankartda, inglizlar Nyulende, nemislar Meyer nomi bilan atalishi kerak edi, deyishadi. U bugun kimning nomi bilan ataladi?

110. Abu Nasr Farobiy unga ta'rif berib: «yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo'lmaganingda, insonning ahvoli ne kechar edi!», desa, Ibn Sino: «U insonni hatto go'dakligidanoq jismoniy barkamol o'sishiga moyillik beradi», deb yozib qoldirgan. Ikki buyuk ajdodlarimizning bir narsaga ikki xil fikrini izohlang.

111. Rimliklar uni askarlarga to'lardilar. Avval legionerlarga, keyin varvarlarga ham. Liviy davridan barcha harbiy to'lovlar shu nom bilan atala boshladi. Vestgotlar uni yer maydoni shaklida askarlarga taqdim etardilar. Bizda bunday to'lov kimlarga to'lanadi?

112. Arab faylasuflari fikriga ko'ra, inson donishmandlikni izlayotganda donishmand bo'ladi. Qaysi holda ahmoqqa aylanadi?

113. Yaponiyaning Aogasima oroli Tokio shahridan 400 km uzoqda joylashgan bo'lib, uning aholisi 200 kishini tashkil etadi. Bu shaharchada avtomobillar harakati qandayligini tushunib olish qiyin emas. Lekin shaharchada baribir bir dona svetofor mavjud. U nimaga kerak?

114. XIX asrda ular kumushdan yasalgan bo'lib, unga «men shu yerda uxlab qoldim», deb yozilgan bo'lar edi. Hozirgi payt ular ancha kamtarona — qog'oz, mato, sintetik materiallardan yasalgan. U nima?

115. BMT ma'lumotlariga ko'ra, inglizlar unga 8 yil, ispanlar 2—3 yil, ruslar 6 yil sarflar ekanlar. Eng qiyini yaponlarga — ular unga eng ko'p vaqt sarflashlariga to'g'ri kelar ekan. Nimaga vaqt sarflash haqida gap ketayapti?

116. Shveysariya kantonlarida ular har xil paytda tugaydilar — Yura kantonida — 15-avgustda, Lozannada — 22-avgustda, Lozevda — 28-avgustda, Syurix va Bernda — 1-aprelda. Bizlar ham buni boshimizdan ko'p kechiramiz. Hammamiz kutadigan bu narsa nima?

117. Kogondagi Vabemba qabilasida ism qo'yish juda qiziq. O'g'il bola dunyoga kelganda bir ismga ega bo'ladi va bir necha yillardan so'ng ismiga si qo'shimchasi qo'shiladi. Bu qo'shimcha nimani anglatadi?

118. Eramizdan avval, 105-yili Xitoy imperatori saroyi xodimi Say Lun baliqchi to'ri, eski ko'ylak, maxsus o'simlik va tut shoxini oldi-da...Nima qildi?

119. Bill Manvill u haqda shunday degan edi: Bu shunaqangi oddiy o'yinchoqki, uni faqat chaqaloqlargagina sovg'a qilishadi. Nima haqida u shunday deb aytganini ayting.

120. Arablar biror inson haqida nima demoqchi bo'lsalar, uning kofe idishi doim to'la, deydilar? Buning ma'nosi qanday?

121. Per Abelyar bu fanni «toqat qilib bo'lmas fan» deb atagan. Undan ayrim hollardagina savdogarlar, quruvchilar, vrachlar foydalanmasa, u bilan asosan iblis bilan til topishganlar shug'ullanishadi, deb aytgan edi. Bu qaysi fan ekan?

122. O'zbekiston hududida birinchi marta rus-tuzem maktablari ochilganda u yerda o'qish albatta foydali bo'lgan. Ammo, bir sababga ko'ra, yoshlar u yerga borib o'qishni xohlamaganlar. Nimaga?

123. Qadimgi Rimda sud paytida nima uchun ayblanuvchi sudyaga hali unda suv ko'pligini aytishi mumkin edi?

124. Mayya hindularining kiche qabilasi tasavvurlariga ko'ra, birinchisi loydan, ikkinchisi yog'ochdan va hozirgi davrdagilari makkajo'xoridan yaratilganmish. Gap nima haqida?

125. AQSH, Ogayo shtati, Troya shahri «Marsh» supermarketida 1974-yil 26-iyun soat 8 dan 1 daqiqa o'tganda «Rigli» saqichining bir donasi sotildi va savdo sohasida yangi davr boshlandi. Nima sababli yangi davr boshlangan hisoblanadi?

126. «Аргументы и факты» gazetasi «dunyodagi eng

yaxshi inson kim» mavzusida so'rov o'tkazdi. Unda 2000 kishi xat bilan ishtirok etdi. 25 foiz ovoz bilan 2-o'rin Iisus Xristosga nasib etdi. 30 foiz ovoz bilan birinchi o'rinni kim egalladi?

127. Qadimdan xalqimizda bir naql bor: «Falonchining yuzi shuvut bo'ldi» degan. Xo'sh, «shuvut» nima o'zi?

JAVOBLAR

1. Ser Xyu Biver o'sha g'oyani amalga oshirishni pivo tayyorlovchi firmaga, ya'ni, Artur Ginnes va uning o'g'li kompaniyasiga topshiradi. Natijada dunyoga mashhur Ginnes rekordlar kitobi dunyoga keladi.

2. U kishi barkamol olim, musiqashunos, olim, xonanda, o'z davrining mashhur pahlavoni Pahlavon Mahmud edi. Hazrat Navoiy u kishiga bag'ishlab «Xoloti Pahlavon Muhammad» asarini yozganlar.

3. Sohibqiron o'zi tomonidan qurdirilgan Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini ziyorat qilganlar.

4. Cho'ponlar aholi zich joylardan ancha uzoqlarda joylashishadi, bolalarining maktabga borib kelishlari uchun na imkoniyati, na vaqti yetadi. Lekin hamma davlatlarda ham cho'pon bolalarini radio orqali o'qitishga moddiy jihatdan imkoniyat yo'q. Bu narsani baquvvat va rivojlangan davlatgina amalga oshira olishi mumkin. Bu davlat — Avstraliya.

5. Bu asar XVI—XVII asrlardayoq Yevropada ma'lum bo'lgan. Bu shoh asar Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub «Boburnoma»dir.

6. Arastu ustozini qattiq hurmat qilardi. Uning mashhur iborasi bor edi, «Ustozim menga do'st, ammo haqiqat qadrliroqdir». Demak, u haqiqatni izlagan.

7. Tarixdagi bu mashxur inson oq kiyimlilar nomi bilan mashhur qo'zg'olonning rahbari —Muqanna edi.

8. Fikr.

9. Afsona — haqiqatdan xabar beruvchi yolg'ondir.

10. Xudoni va o'limning haqligini yodingda tut, qilgan yaxshiligingni unut.

11. Olloh Arshdan ham ulug'roq qilib aqlni yaratgan ekan.

12. Bu belgi Hamidabonuning to'rt farzand ko'rgan ona ekanligiga ishora.

13. Beldagi har bir belbog' bir avlodning belgisi edi, demak, uchta shoxi belbog' bog'lagan boyning boyligi uch avlodga yetishiga ishora.

14. Bu milliy o'zbek pedagogikasiga tamal toshini qo'ygan zotlardan biri Abdulla Avloniyning iborasidir.

15. Yassaviy hazratlari falsafiy mushohadalari bo'yicha, eng yaxshi qasos bu unutishdir.

16. Bu «qonun» so'zi.

17. O'sha oshpaz ismi Jonatan Kerr ingliz alifbosidagi harflaridan pecheniy tayyorlagan. Odamlar iste'mol qilish bilan birga, harf taniy boshlaganlar. Shuning uchun oshpaz va ma'rifatparvar Jonatan Kerr nomi tarixda qolgan.

18. Ibn Sino uzumning Husayn navini yaratib, otasining ismini qo'ygan.

19. Alla.

20. Agar sen boshingni sovuq, oyog'ingni issiq tutsang, tibbiyot sohasida hech qanday kitob yozishga hojat qolmaydi. Sog'liq har kimning o'z qo'lida, demoqchi Burxave.

21. «Oddiy bir mahmadonadir».

22. Pifagor do, re, mi, fa, sol, lya, si, do notalarining muallifidir.

23. Bu yangilik albatta jahon tajribasida ilgari bo'lgan, lekin A.Avloniy buni o'zimizda ilk bor sinfdan sinfga o'tish paytida imtihon qilish, qoloq o'quvchilarni kerak bo'lsa sinfda qoldirishni joriy etganlar.

24. Shayx Najmiddin Kubro.

25. Bobur saltanati Andijonda boshlanib, 1858-yili Rangunda nihoya topadi. Boburiylarning so'nggi vakili Bahodirshohni inglizlar Hindistonni bosib olgach Rangunga surgun qilishadi. Va u o'sha yerda vafot etadi.

26. Isaak Nyuton.

27. Qizil kitob.

28. U narsa ilk bor 1987-yilda Fransiyada kashf qilindi, 1927-yilda unga nemis olimi Jorn tomonidan ovoz berildi. Tilga kirgan ulug' soqov — bu kinodir.

29. Sababi oddiy — ota kuchi bor paytida katta farzandlarini qo'llab-qo'ltiqlab yo'lga solib yuboradi. Kenja farzandlar ulg'aya boshlagan paytda ota qarib, ishlari orqaga keta boshlagan bo'ladi. Kenjatoy nima qiladi? Bor kuchini, bor bilimini, ishga solib tang holatdan yolg'iz o'zi chiqib ketishga intiladi. Intilganga tole yor, deyishadi.

30. Kuchli yozuvchi bo'lish uchun iste'dod va bilimdan tashqari, baxtsiz bolalikni boshdan kechirgan bo'lishi kerak.

31. Leonardo da Vinchi yashagan paytda jasadlarni yorib ko'rish umuman ta'qiqlangan. Leonardo da Vinchi insonni ichki a'zolarini ham his qilishi uchun jasadlarni yorib, ularni mukammal o'rgangan.

32. Betxoven bu asarni butun his-tuyg'ularini ishga solib yozgan edi. Chunki 9-simfoniyani qulog'i kar paytda yozgan. Uning 29 yoshida qulog'i kar bo'lib qolgan.

33. Jaloliddin Rumiy.

34. Mahalla.

35. O'quvchini darsda ishtirok etishining o'zi unga bir ball — baho beradi.

36. Haqiqat.

37. Maktab.

38. Bu tarixiy bo'lib o'tgan voqea. Husayn Boyqaro «Xamsa» asarini yozib tugatgan do'sti Navoiyni shunday e'zozlab kutib olgan.

39. Inson ovozni qulog'i bilan eshitadi. Lekin yorug' joyda odamning eshitish qobiliyati faollashadi. Olimlar tekshirishlari shuni ko'rsatadiki, qorong'i joyda ovoz bo'g'ilar ekan. Yorug'da esa oson tarqaladi.

40. Haqiqiy matematik bo'lish uchun biroz shoir bo'lish kerak, deb aytgan. Matematika aniq fan bo'lishi bilan birga shoirona dunyoqarash, yangi-yangi teoremalarga shoirlikdagi xislatlar yordam beradi deganlar.

41. Agar oilada egizak farzand tug'ilsa, u o'z-o'zidan muqaddas sanalgan.

42. O'zbeklarda bir maqol bor. «Yuzing qiyshiq bo'lsa, ko'zgudan o'pkalama», degan. Don Pedro badbashara, xunuk odam bo'lgan. Xunuk odamlar ko'zguga qarashni yoqtirishmaydi.

43. Tarixdan bilasiz, kichkina Parfiya juda boy davlat bo'lgan. Parfiya lashkarlarining asosiy qismini qullar tashkil etgan. Ularga yaxshi maosh to'lashgan. Albatta, qo'lida qurol tutgan quldan xayiqishgan. Do'stona munosabatda bo'lishdan o'zga choralari qolmagan.

44. Ayollarning universitetlarda o'qishga ruxsat berilishi.

45. Bu o'sha paytda katta mahorat, iste'dod talab etilgan kasb — shifokorlik kasbidir.

46. Bunga sabab kutubxonaga kirayotganingizda maxsus eshiklar orqali o'tasiz va sizdagi barcha yonuvchi va yondiruvchi vositalar olib qo'yiladi.

47. Farzandlarini.

48. Siz qo'lingizdagi ruchkaga qarang, u bitta. Ko'zingiz ikkita bo'lgani bilan siz uni bitta ko'rasiz. Chunki sizning miyangiz bitta. Ko'z axborotni miyaga beradi. Doktor Paper mahluqqa ko'z bilan birga ikkita miya ham joylashtirgan. Agar sizda ham ikkita miya bo'lganda ruchkani ikkita qabul qilar edingiz.

49. Hunarmand. «Hunarmandlar — Ollohning do'stlari» degan hadis ham bor. Misol uchun, Bahouddin Naqshband, Farididdin Attor.

50. Abu Nasr Forobiy kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, dono bo'lish uchun ko'p yozish, ko'p gapirish emas, ko'p tinglamoq kerak ekan. Eshitish xususiyati kuchli bo'lgan kishidan dono chiqishi tayin ekan.

51. O'qituvchilar.

52. Bu to'rttala so'z adiblar uchun abadiy mavzudir.

53. Agar ota-onaga izzat ko'rsatilsa, ular qariganda kulfat, g'am, yolg'izlik balosidan forig' bo'ladilar. Deylikki, farzand qariya ota-onasini izzat-hurmat qila olmasa, vijdon azobida qoladi. Izzat-hurmat ota-onani kulfatdan qutqarsa, farzandlarni vijdon azobidan xalos etadi.

54. Ishga kirayotgan xodim har tomonlama o'rganiladi. Insonning imzosi va yozuvi orqali uning xarakterini o'rgansa bo'lar ekan. O'sha qonun kuchga kirgan paytlarda bu narsaga juda katta e'tibor berishgan.

55. Go'daklik, o'smirlik, yigitlik, o'rta yashar payt, keksalik.

56. Alloma Forobiy hazratlari juda faqir hayot kechirganlar. Qorovullarga sham bepul berilgani uchun ham shu faqir lavozimiga rozi bo'ladilar. Kechalari mutolaa qilish uchun Forobiyga sham zarur bo'lgan.

57. Bu qog'oz.

58. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u-bilik» asari.

59. Algebra fani paydo bo'lishiga oilalardagi janjallar sabab bo'lgan, ming yil oldin ham oilalardagi janjallar o'sha narsadan kelib chiqardi, ya'ni merosni to'g'ri, teppa-teng taqsimlash maqsadi algebra faniga asos solgan.

60. Yolg'onligi shundaki, eshik ikki marta taqillagan. Imkoniyat hech qachon bir eshikni ikki marta taqillatmaydi.

61. Bu Aflotun yaratgan akademiya peshtoqiga yozilgan yozuvlar edi. Bilasiz, Aflotun geometriyani otasi hisoblanadi.

62. Ular o'z ta'limotlarini og'zaki holda qoldirishgan.

63. Mas'uliyatni.

64. Ilm.

65. Xalq. Chunki notiqlar soatlab gapirishgan. Bu holatda oyog'i charchaganda nutq ham yakunlangan.

66. 1 — farzand ko'rish, 2 — moddiy mablag' orttirish, 3 — ibodat.

67. Bolakay ko'proq qaysi o'yinchoqqa o'zini ursa o'sha sohaga beriluvchan bo'ladi. Masalan, mashinaga yopishsa — transportchi.

68. Zerikish. Kishi ilhombaxsh faoliyat bilan shug'ullanmasa shunday holat ro'y beradi.

69. Insonlar bir-birlariga diqqat e'tiborli bo'lishsin deb.

70. Donishmandlar.

71. Aqlli.

72. Alifbo.

73. «Men muallifning muallifiman».

74. Ko'proq fikrlash kerak.

75. Madhiya.

76. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1-sinf bolalari uchun sovg'asi.

77. O'ziga. Chunki ota-ona farzandi uchun qayg'uradi. Farzand barkamol bo'lsa, ota-ona baxtiyor.

78. Insonlar hurmat va izzatda, qariya bo'lib yurishni orzu qilishadi.

79. Qog'ozlarni yoqib yuborish oson.

80. Bu Umar Hayyom edi.

81. AQSHga bu ruchkalarni keltirishdan maqsad, uni uchuvchilar osmonda bemalol foydalana olishlari uchun edi. Chunki ilgarigi ruchkalar bosim kuchaygan paytda siyohlari oqib ketgan. Bu sterjen esa, osmonda ham bemalol ishlagan. Shundan uchuvchilar ruchkasi «Pilot» deb atala boshlagan.

82. Ma'nosi «o'qish» degani.

83. Bola ona qornida yotganda, onaning yurak urishini 9 oy sezib yotadi. Dunyoga kelgandan so'ng, yelkasiga urib turish unga onasining yurak urishini eslatadi. Shunda u tezda orom ola boshlaydi.

84. Bu fillar maktabi edi.

85. Er xotinni urishi mumkin emas.

86. Notiqlik.

87. Ustoz Isaxon.

88. Kitobni.

89. Pedagog.

90. Bolalar.

91. Homiladorlik.

92. Islom — rahm-shafqatni, xristian — muhabbatni.

93. Ilgari ham o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan. XIV—XV asrlargacha asosan fors tilida ishlar olib borilgan. O'zbek tiliga sulton Husayn Boyqaro davlat tili maqomini bergan edi.

94. Nyuton (boshga tushgan olma voqeasi).

95. Ayollar va bolalarni birinchi qutqarish.

96. Qadim sharq mutafakkirlari e'tirof etishicha, siz bo'lg'usi umr yo'ldoshingizdan yoshingiz va bo'yingiz

ulug‘ bo‘lishi, boylik hamda naslu-nasabda ustun bo‘lmog‘ingiz kerak. Ayollar ham ustun bo‘lishi kerak: husnda, xulqda, odob va ibodatda.

97. Xorazmda qadimdan shunday odat mavjud. Xonadonga yangi tushgan kelin qaynota-qaynonasi bilan gaplashmaydi. Buni odob, andisha, istihola tushunchalarining bir ko‘rinishi deyish mumkin. Shuningdek, oilada kelin bilan bog‘liq janjal chiqmaydi. Kelin farzandli bo‘lgachgina, gaplashish huquqiga ega bo‘ladi.

98. Ota-onalar nazr sifatida avliyo, parilar yo‘liga atab, bolalarining boshida bir tutam soch, ya’ni kokil qo‘yganlar. Bola ma’lum yoshga yetgach, qadamjolarga atalgan jonliqlarni so‘yganlar va shayxga nazr berib, kokilni oldirganlar.

99. Tanqid.

100. Dono odam avvalo boshqalarga bergan maslahatiga o‘zi amal qiladi.

101. Til.

102. Islom.

103. Zakovat.

104. Aqliy mehnat unumdorligi deraza darchasidan boshlanadi.

105. Nafaqat al-Farg‘oniy hazratlari, hech bir inson uni yarata olmaydi, tuzatishi mumkin? Axir ular qirol oila a’zolari bilan yonma-yon turadilar-ku. Ulardan anvoyi islar kelishi kerak. Ular gulni yeyishadi, surtishadi.

106. Mehnat.

107. Bu tanlov 4 yoshli iqtidorli bolalar bog‘chasida bo‘lmoqda.

108. Alfred Nobel.

109. Mendeleev davriy jadvali.

110. Ikki buyuk vatandoshlarimiz yuqoridagi fikrlarini musiqaga nisbatan aytishgan.

111. Talabalarga — nafaqa.

112. Donishmandlikni topdim deganda.

113. Bolalarga yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish uchun.

114. Kitob orasiga qo‘yadigan xatcho‘p.

115. Ona tilini o'rganishga.
116. Ta'tillar.
117. Ota bo'lganini.
118. Qog'oz yasadi.
119. Hayot haqida.
120. U juda mehmondo'st bo'lsa.
121. Matematika.
122. Unday maktabni bitirganlar harbiy xizmatga chaqirilganlar.
123. Uning nutqi vaqt bilan chegaralangan, vaqt esa suv soat — klepsidrada o'lchanar edi.
124. Odam haqida.
125. Birinchi bor shtrix-kod ishlatildi.
126. Onalar.
127. Qadimda o'g'rilik va muttahamlik bilan ayblanganlar yuziga shuvut bargidan yopishtirib sazoyi qilingan. Shuvut uyat belgisi bo'lgan. «Shuvut» degani, bugun biz sevib iste'mol qiladigan ukropdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. «Istiqlol va ma'naviyat», T., «O'zbekiston», 1994.

2. Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari, T., «Sharq», 1998.

3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi, T., «O'zbekiston», 1997.

4. Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari, T., «Mehnat», 2001.

5. Abdullaev Yo. Statistika nazariyasi. T., «O'qituvchi», 2002.

6. Zasobina G.A. va boshqalar. Pedagogikadan amaliy mashqlar. T., «O'qituvchi», 1998.

7. Beti Readon. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. Yunesko — Almato'. 2002.

8. Abdullajonova M. Ijtimoiy psixologik treningdan praktikum.

9. Yo'ldoshev J. Ta'limimiz istiqloli yo'lida. T., «Sharq», 1996.

10. Haqiqat manzaralari — 96, to'plovchi Jo'raeva Saodat, T. «Yangi asr avlodi», 2002.

11. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T., «O'qituvchi», 1997.

12. Safo Ochil. Inson ziynati odobdir. T., «O'qituvchi», 1996.

13. Ochilov M. Universitetlar tizimida pedagog xodimlar tayyorlash muammolari. «Ta'lim taraqqiyoti» jurnali, 1997. 5—6 son.

MUNDARIJA

Kirish.....3

I bo'lim. Topshiriqlar.....5

II bo'lim. Pedagogik masalalar.....37

«Muqaddas oila» mavzusi bo'yicha test.....68
Kaliforniya universitetida taklif qilingan test.....75
Shaxsning kommunikativ imkoniyatlarini aniqlash testi....77
Pedagogik faoliyat motivatsiyasini aniqlash 79
Aqlimizni charxlaymiz.....87

Foydalanilgan adabiyotlar.....110

ASQAROVA O'G'ILOY

PEDAGOGIKADAN AMALIY MASHQLAR VA MASALALAR
(o'quv qo'llanma)

Muharrir *Salima Suvonova*
Musavvir *Tolib Qanoat*
Sahifalovchi *Dildora Nuriddinova*

2005-yil 6-dekabda chop etishga ruxsat berildi.
Bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$. Shartli bosma tobog'i 7,0.
Adadi 2000 nusxa. Buyurtma №7

«Istiqlol» nashriyoti, 700129, Toshkent,
Navoiy ko'chasi, 30-uy, Shartnoma № N-51

XT "Melieva G. U." bosmaxonasida chop etildi
Bobur ko`chasi, 6-uy.

PEDAGOGIKADAN AMALIY MASHQLAR VA MASALALAR

"ISTIQLOL"